

**NASIBA ERXONOVA
ZUHRA RO'ZIYEVA**

**Barcha markazlarda
foydalanish mumkin**

**Hamma yosh guruhlariga
tavsiya etiladi**

**Bilish jarayonlari, nutq, xotira,
 mantiqiy fikrlash, eshitish,
 ko'rish, tahlil qilish qobiliyati
 rivojlanadi**



TARBIYACHI KITOBI DIDAKTIK O'YINLAR

The page is framed by a decorative border of yellow smiley faces with black eyes and mouths, set against a white background. The border is visible on the top, right, and bottom edges of the page.

TARBIYACHI KITOBI DIDAKTIK O‘YINLAR

Toshkent-2022
“Evrika” nashriyoti

UO'K 373.2.026

KBK 74.202

E 84

Tarbiyachi kitobi Didaktik o'yinlar [Matn] : amaliy qo'llanma / N.Erxonova, Z.Ro'ziyeva.-Toshkent "EVRIKA NASHRIYOT-MATBAA UYI", 2022-144 b.

TARBIYACHI KITOBI DIDAKTIK O'YINLAR

Mualliflar:

Nasiba Erxonova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Zuhra Ro'ziyeva, "Maktabgacha ta'lim metodikasi va nazariyasi" jurnali muharriri

Didaktik o'yin – bu aqliy faoliyatni tarbiyalashning qimmatli vositasi bo'lib, u boladagi intellektual jarayonlarni faollashtiradi. Didaktik o'yin bolalarga har qanday o'quv materialini qiziqarli va oson o'rganishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayoniga katta qiziqish uyg'otadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida yangi bilimlarni o'yinlarsiz o'rgatish mumkin emas.

Ushbularni inobatga olib, mazkur metodik qo'llanmaga "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida, "Matematika, konstruksiyalash va qurish-yasash", "Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish", "Til va nutq", "Fan va tabiat", "San'at" markazlarida olib boriladigan ta'limiy faoliyatlarda qo'llanadigan didaktik o'yinlar jamlandi.

Mazkur "Tarbiyachi kitobi Didaktik o'yinlar" kitobi maktabgacha ta'lim sohasidagi barcha pedagog xodimlar foydalanish uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

Mavluda Rustamova, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi

Zamira Rasulova, Namangan viloyati XTXQTMOHM katta o'qituvchisi

ISBN 978-9943-8441-1-7

© N.Erxonova, Z.Ro'ziyeva.

© "Evrika" nashriyoti, 2022

**“TIL VA NUTQ” MARKAZI
UCHUN DIDAKTIK
O‘YINLAR**

“DARAXT” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning so‘z boyligini oshirish, ularda ko‘rish va eshitish qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi daraxt haqida matn o‘qiydi va matnda tasvirlangan narsalarni suratda bolalarga ko‘rsatadi.

Osmonda quyuq bulutlar,
Yerda esa ko‘m-ko‘k daraxtlar,
Daraxtda barglar,
Daraxt pastida esa gullar.

Keyin esa bolalardan daraxtning tagida nima bor, osmonda-chi deb so‘rash kerak.

“QO‘G‘IRCHOQNI UXLATAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning eshitish qobiliyatini rivojlantirish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi qo‘g‘irchoqchani aravachaga soladi va bolalardan uni uxlatish uchun qanday so‘zlar aytish kerakligini so‘raydi. Har bir bola o‘zi-cha qo‘g‘irchoqni uxlatish uchun gaplar aytadi. Qo‘g‘irchoqcha uxlaganidan keyin esa tarbiyachi endi pastroq ovozda gapirish kerakligini, baland ovoz qo‘g‘irchoqni uyg‘otib yuborishi mumkinligini tushuntiradi. Bolalar bilan past ovozda gaplashadi, qo‘g‘irchoqcha uyg‘onganidan keyin esa ovozni balandroq qilib gapirish mumkin bo‘ladi.

“BALAND-PAST” O‘YINI

Maqsad: Bolalarga ovozning kuchi haqida tushuntirish, ularda ovozni o‘zgartirish ko‘nikmasini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi katta va kichik o‘yinchoq mashinani o‘yin uchun tayyorlaydi. Katta mashina yurganida qanday signal chaladi? Bi-bii, bi-bii-biiiip. Bolalar tarbiyachining ovozini qaytaradilar. Kichik mashina yurganida qanday ovoz chiqaradi? Bi-bi. Kichik mashina sekinroq ovoz chiqaradi. Bolalar tarbiyachining ovozini yana qaytaradilar. Endi esa bolalar e‘tiborliroq bo‘ladi, tarbiyachi katta mashinani ko‘rsatganida qattiqroq bip-bip deydilar, kichkina mashinani ko‘rsatganida sekinroq bip-bip deydilar.

“BARGLAR” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarga to‘g‘ri nafas olishni o‘rgatish, nafas gimnastikasi bilan shug‘ullantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi stol ustiga turli rangdagi barglarni qo‘yadi. Qizil, sariq, zarg‘aldoq rangli barglar daraxtdan yerga tushgan. Shamol esgan va ularni daraxt tanasidan judo qilgan. Kelinglar, biz hozir o‘zimizni shamol deb tasavvur qilamiz va barglarni puflaymiz.

Pedagog va bolalar barglarni yerga tushgunicha puflaydilar. Ularning to‘g‘ri nafas chiqarishini pedagog kuzatib boradi.

“QOR PARCHALAR UCHMOQDA” O‘YINI

Maqsad: To‘g‘ri nafas olishni o‘rgatish, lab mushaklarining faol ishlashini rag‘batlantirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog tashqarida qor yog‘ayotganligi va qor parchalari uchayotganligini aytadi. Stol ustiga paxtadan mayda dumaloq bo‘lakchalar qo‘yadi. Bolalarga mana shu paxta bo‘laklarini qor deb tasavvur qilishni va uni puflab uchirishni aytadi. Tarbiyachi ko‘rsatib berganidan keyin bolalar qor parchasini puflab uchiradilar.

“ATROFIMIZDAGI TOVUSHLAR” O‘YINI

Maqsad: Bolalarga A, O, U harflarini to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga atrofimizda turli ovozlarning borligini va bu gal ayrim tovushlarni birgalikda talaffuz qilishlarini aytadi. Bolalar, chaqaloq yig‘laganida qanday ovoz chiqaradi? A-a-a-a, qaytaramiz a-a-a-a. Ayiqchanning tishi og‘risa u qanday ovoz chiqaradi? O-o-o-o, o-o-o-o. Samolyot osmonda uchayotganida esa u-u-u-u degan ovoz eshitiladi. Bolajonlar qani endi u-u-u-u deb qaytaramiz. Pedagog bolalarning tovushni imkon qadar cho‘zibroq talaffuz qilishlariga e‘tibor beradi.

“NASOS” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni to‘g‘ri nafas olishga o‘rgatish, ular bilan nafas gimnastikasi mashqlari o‘tkazish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalar velosiped bilan uchishni yaxshi ko‘rishini, velosiped ballonini vaqti vaqti bilan shishirib turish kerakligini aytadi. Tasavvur qilinglar, hozir biz nasosimiz va s-s-s-s tovushi orqali ballonni shishiramiz. Qani, ikki qo‘limiz barmoqlarini birlashtirib nasos hosil qilamiz va s-s-s-s deyish bilan nasosni ishlatamiz. Pedagog ko‘rsatilganidek qilib bolalar ballonni shishiradilar. Pedagog bolalar zo‘riqib ketmasliklarini nazorat qiladi.

“AKS SADO” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning eshitish va talaffuz qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog birorta tovushni talaffuz qiladi, bolalar esa eshitgan tovushlarini qaytarib aytishlari kerak bo‘ladi. A-a-a, a-u, i-i-i, u-u-u, o-o-o kabi tovushlarni qaytarish mumkin.

“QURBAQALAR” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarni ikki guruhga bo‘ladi. Ularning yarmi ona qurbaqalar va yarmi bola qurbaqalar bo‘ladi. Ona qurbaqalar kva-kva deganda balandroq ovozda aytadilar, bola qurbaqalar esa kva-kva deb pastroq ovozda aytadilar.

“SOAT” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning eshitish qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda ijodkorlik qobiliyatini o‘stirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalardan soat millari qanday ovoz chiqarishini so‘raydi. Bolalar esa chiq-chiq, tiq-tiq deb o‘zlari eshitgan ovozni talaffuz qilib beradilar.

“TISH SHIFOKORI” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning kasblar haqidagi tasavvurlarini boyitish, ularning so‘z boyliklarini oshirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi guruhga tish shifokori kelganligini aytadi. Shifokor guruhdagi bolalarning tishlari sog‘lommi yoki kasalligini aniqlamoqchi demak, buning uchun og‘zimizni a-a-a-a-a deb ochib turishimiz kerak deydi. Shifokor har bir bolaning og‘zini ochib ko‘rib chiqadi, bolalar esa a-a-a-a deb turadi.

“QO‘NG‘IROQCHA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda eshitish qobiliyatini rivojlantirish, ularning nutqini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga qo‘ng‘iroqcha ko‘rsatadi. Bolalar qo‘ng‘i-

roqchani ushlab uni jiringlatib ko'radi. Qo'ng'iroqchanning ovozini eshitganlaridan keyin o'g'il bolalar katta qo'ng'iroqcha, qiz bolalar kichkina qo'ng'iroqcha bo'lishlari so'raladi. O'g'il bolalar din-din-din deb balandroq ovozda aytsalar, qizlar esa pastroq ovozda din-din-din deb takrorlaydilar. Keyin esa o'g'il bolalar kichkina qo'ng'iroqcha, qizlar esa katta qo'ng'iroqcha bo'lib qo'ng'iroqcha tovushini takrorlashadi.

“HAYVONLAR KELAYPTI” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning nutqini rivojlantirish, ularning tasavvurini kengaytirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarni ikki guruhga bo'ladi. Birinchi guruh fillar, ikkinchi guruh esa ayiqpolvonlar bo'ladi. Fillar yurganida to'p-to'p-to'p deb ovoz bilan tovush chiqarib yuradi, ayiqlar esa fillardan sekinroq top-top-top degan ovoz chiqarib yuradilar.

“ESHİK TAQİLLAGANDA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalardan eshik taqillaganda qanday tovush chiqishini so'raydi. Bolalar o'z javoblarini aytadi. Pedagog eshikni taqillatadi. Tuk-tuk-tuk degan ovoz chiqadi. Bolajonlar esa ana shu tovushni qayta takrorlaydilar.

“O‘RDAKLAR” O‘YINI

Maqsad: Bolalar tasavvurini kengaytirish, ularda eshitish qobiliyatini kuchaytirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga o'rdakning ovozi yozilgan audioyozuv taqdim qiladi. Bolalar uni eshitgach, o'rdaklar ovozini takrorlab aytib berishlari kerak. G'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a, g'a-g'a-g'a tovushini ko'p marta talaffuz qiladilar.

“TESHANING OVOZI” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning eshitish qobiliyatini kuchaytirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi kichkinagina teshacha olib bolalarning oldida uni taxtaga uradi va qanday ovoz chiqayotganligini so‘raydi. Bolalar teshaning ovozini eshitganlari asosida taq-taq-taq deb aytib berishlari kerak.

“KIM NIMANI YAXSHI KO‘RADI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalar nutqini rivojlantirish, ularning so‘z boyligini oshirish

O‘yin jarayoni: Stol ustiga sabzi, karam, malina, asal, baliq, yong‘oq, qo‘ziqorin, o‘tlarning suratlari qo‘yiladi. Tarbiyachi olmaxon, quyon va ayiqning suratini ko‘rsatadi. Bolalar qaysi hayvon nimani yeyishini aytib beradi.

“SO‘Z TANLA” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning nutqini rivojlantirish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi turli hayvonlar suratlarini ko‘rsatadi, bolalar suratlariga qarab o‘sha hayvonga mos so‘z aytishi kerak.

Ayiq (qanaqa?) ... (yumshoq, oq, qora).

Bo‘ri (qanaqa?)... (kulrang, jahldor).

Mushuk (qanaqa?)... (jigarrang, yumshoq, miyovlaydi).

Kuchuk (qanaqa?)...(qora rangda, tez yuguradi).

“QO‘G‘IRCHOQ LOLANIKIGA MEHMONGA BORAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning so‘z boyligini oshirish, ularning tasavvurlarini kengaytirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga qo‘g‘irchoqnikiga mehmonga borishlarini aytadi. Qo‘g‘irchoqnikida nimalar borligini, ular nimadan yasalganligini bolalardan so‘rash kerak. Misol uchun stol bor, u taxtadan yasalgan, eshik bor u ham taxtadan yasalgan kabi. Bolalar qo‘g‘irchoqning xonasida yana nimalar ko‘rayotganliklarini ham aytib berishlari kerak.

“IDISH-TOVOQLAR” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning idish tovoq haqidagi bilimlarini boyitish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Stol ustiga turli yelim o‘yinchoq idish-tovoqlar qo‘yiladi. Bolalar ularni qo‘liga ushlab ko‘rishlari, nomi va qanday rangda ekanligini aytib berishlari kerak bo‘ladi.

“OYIM NIMA QILADI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning tasavvurlari va dunyoqarashini boyitish, ularning nutqini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Bolalarga “Oyingiz nima ish qiladi?” deb savol berish va ularni tinglash kerak. Zarurat bo‘lsa pedagog bolalarni yo‘naltirib turishi ham mumkin. Qaysi bola savolga to‘liq javob bersa ana o‘sha bola o‘yin g‘olibi hisoblanadi.

“OYIMNING XISLATLARI” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning so‘z boyligini oshirish, ularni ravon gapirishga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga oyingizning sifatlarini sanang deb aytadi. Bolalar esa oyisi haqida o‘zi bilganicha ta‘rif aytishi kerak. Misol uchun, mening oyim pazanda, mening oyim xushmuomala kabi javoblar berishi mumkin. Bola oyisining qaysi kasbda ishlashini ham aytib berishi mumkin.

“KIM QAYERDA YASHAYDI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga “Kim qayerda?” yashaydi deb savol beradi. Tarbiyachi ko‘rsatgan suratdagi hayvonga qarab tarbiyalanuvchilar ushbu hayvonning qayerda yashashini aytishlari kerak. Misol uchun, tuya – sahroda, bo‘ri – o‘rmonda kabi.

“GAPNI TUGAT” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning nutqini rivojlantirish, dunyoqarashini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog tarbiyalanuvchilarga tugallanmagan gap aytadi. Bolalar esa o‘sha gapni mazmunan yakunlashlari lozim.

Masalan, mushukning bolasi ... (mushukcha).

Tuyaning bolasi... (bo‘taloq).

Otning bolasi... (toychoq).

“KERAKLI SO‘ZNI TOP” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning so‘z boyligini oshirish, ularni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Pedagog gapda bitta so‘zni tushirib aytadi, bolalar esa o‘sha tushirib qoldirilgan so‘zni o‘rniga qo‘yib aytishlari kerak.

Akvariumda turli xil ... suzib yurishardi (baliqlar).

Ayiq ... yaxshi ko‘radi (asal).

Olma, banan, apelsin, bular ... (mevalar).

“NIMA QILADI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga birorta so‘z aytadi, bolalar esa o‘sha so‘zda tasvirlangan hayvon yoki parranda nima qilishini aytib berishlari kerak.

Mushuk (miyovlaydi).

Kuchuk (vovullaydi).

Qush (uchadi).

Sigir (sut beradi).

Tovuq (tuxum qo‘yadi).

“QAYSI TARAFLIDA?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning fazoda mo‘ljal olish ko‘nikmalarini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog o‘yinchoqlarni turli joylarga joylashtiradi. Bolalar esa o‘yinchoq nomini eshitganidan keyin u o‘ng tomonda, chap tomonda, yuqorida yoki pastda deb aytib berishlari kerak.

“XAVFLI BUYUMLAR” O‘YINI

Maqsad: Bolalar hayot xavfsizligi saboqlari bo‘yicha olgan bilimlarini boyitish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga turli suratlar ko‘rsatadi. Bolalar esa ana shu suratlarga qarab ularni xavfli yoki xavfsizligini, nima uchun xavfli guruhga kirishini aytib berishlari kerak. Pedagog gugurt, pichoq, qaychi, rozetka kabilarning suratini ko‘rsatishi mumkin.

“KIM BIRINCHI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda topqirlikni rivojlantirish, ularni hozirjavoblikka o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi gaplardan birorta so‘zni tashlab o‘qiydi. Bolalar orasidan kim birinchi o‘sha so‘zni topib aytsa, ana o‘sha bola g‘olib bo‘ladi. Tarbiyachi mana shunday matn o‘qishi mumkin.

Alijonga otasi ... (velosiped) sovg‘a qildi. Alijon bu sovg‘ani ko‘rib juda xursand bo‘lib ketdi. Axir u bunday sovg‘ani anchadan beri ... (kutayotgan edi).

“NONUSHTA TAYYORLAYMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda tasavvur qila olish qobiliyati va ijodkorlikni rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga nonushta tayyorlashni, buning uchun esa narsalar emas faqat ularning nomlaridan foydalanishni taklif etadi. Har bir bola dasturxonga qo‘yadigan narsasini nomini aytib qo‘yadi. Misol uchun, men nonushtaga sariyog‘ qo‘ydim, men non qo‘ydim, men murabbo olib keldim, men piyola olib keldim kabi.

“TUG‘ILGAN KUN” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning tasavvur qila olish qobiliyatini rivojlantirish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bugun qo‘g‘irchoqning tug‘ilgan kuni ekanligini va ana shu tug‘ilgan kunga bolalar sovg‘a berishlarini aytadi. Bolalar xayolan beradigan sovg‘alarini tasavvur qilib ko‘radilar va ana shu sovg‘aning nomini va aynan nimaga ishlatilishini aytadilar.

“KUN QISMLARI” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning kun qismlari haqidagi tasavvurlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga kun qismlarida sodir bo‘ladigan voqealar suratlarini ko‘rsatadi. Bolalar esa ana o‘sha suratlariga qarab bu tongda, bu tushda, bu kechqurun sodir bo‘ladi deb aytishlari kerak bo‘ladi.

“KAYFIYATIMNI TOP” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning so‘z boyligini oshirish, ularni ravon gapirishga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga turli kayfiyatlari aks etgan, xursand bo‘lgan, xafa bo‘lgan, qo‘rqqan, baqirayotgan, charchagan suratlarini birma-bir ko‘rsatadi. Bolalar esa ayni suratda nima tasvirlanganini aytib berishlari lozim bo‘ladi.

“RANGINI AYT” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning rang haqidagi tasavvurlarini boyitish, ularning xotirasini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga turli sabzavotlar suratini ko‘rsatadi va ularning oldiga turli rangdagi lentalarni qo‘yib qo‘yadi. Bolalar esa tarbiyachi ko‘rsatgan sabzavot rangidagi lentalarni topib uni tepaga ko‘taradilar.

“QUYONCHAGA TO‘G‘RI GAPIRISHNI O‘RGATAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Pedagog quyonchani noto‘g‘ri so‘zlarini audio yozuvda bolalarga eshittiradi. Bolalar esa ana shu yozuvning to‘g‘ri talaffuzini aytib berishlari kerak. Misol uchun :

Balu – baliq

Ayu – ayiq

Nanna – non.

“NIMA QAYERDA TURADI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga turli suratlar ko‘rsatadi, bolalar suratdagi narsalarning qayerda turishini tarbiyachi ko‘rsatgan suratlar ichidan topib berishlari kerak. Misol uchun, mashina garajda turadi, qaychi tortmada turishi kerak, igna ip bilan birga turadi.

“O‘ZING SAVOL TUZ” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning so‘z boyligini oshirish, ularning nutqini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga turli mavzularda suratlar ko‘rsatadi. Bolalar esa ana shu suratlarga qarab savollar tuzishlari kerak. Misol uchun bola koptok o‘ynayapti suratini, ko‘rib “Bola nima qilayapti?”, “Uning koptogi qanday rangda” deb savol berishlari mumkin.

“XATONI TOP” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi birorta o‘yinchoqni ko‘rsatadi va shu o‘yinchoq ishtirokida noto‘g‘ri gap tuzadi. Misol uchun kuchukcha kitob o‘qiyapti. Bolalar tarbiyachi qayerda xato qilganligini aytishlari uchun tarbiyachi ularga “Kuchukcha kitob o‘qishi mumkinmi?” deb savol beradi. Bolalar kuchuk kitob o‘qimaydi deb

javob berishlari kerak.

“NIMA QANAQA?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga birorta narsani aytadi va o‘sha narsaning xususiyatlari haqida qisqacha eslatadi. Bolalar esa ana shu narsaga xos xususiyatlarni aytib berishlari kerak.

Sharf – qalin, issiq, qishda kiyiladi, yangi, ...

Ona – mehribon, pazanda, yaxshi, g‘amxo‘r, ...

Uy – katta, chiroyli, g‘ishtdan, ...

“GAPNI TUGAT” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga ushbu so‘zlarni o‘qiydi, bolalar esa so‘zlarining qarama qarshi ma’nosini topib aytishlari kerak.

Murch achchiq, shakar esa ... (shirin).

Barglar kuzda sariq, bahorda esa ... (yashil).

Qishda kun sovuq, yozda esa ... (issiq).

“KIM KO‘PROQ AYTADI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning tasavvurini rivojlantirish, ularning nutqini o‘stirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi savol beradi, tarbiyalanuvchilar esa savolga iloji boricha ko‘proq javob berishlari kerak. Har bir jamoa tarbiyachi tomonidan rag‘bat kartochkasi bilan rag‘batlantirib boriladi. Misol uchun :

Gul bilan nima qilish mumkin? (uni hidlash, ko‘rish, ekish, sovg‘a qilish mumkin).

Bog‘bon nima qiladi? (yerni chopadi, gul ekadi, sug‘oradi).

“NIMA QAYSI RANGDA?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning rang haqidagi tasavvurlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi birorta rangdagi narsa nomini aytib suratini ko‘rsatadi, bolalar esa o‘sha narsaning rangidan narsalar topib aytadilar.

Misol uchun qizil olma, qizil pomidor, qizil koptok, qizil shapkacha, qizil qalam kabi.

“KIM KO‘P TOPADI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning diqqat va xotirasini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi turli topishmoqlar aytadi, kim topishmoqlarga ko‘p javob topsa, ana o‘sha bola g‘olib deb topiladi.

Urmasdan yig‘lalar. (Piyoz)

Bizlar, bizlar biz edik,
Bizlar bir talay qiz edik,
Bizlarni uzdilar,
Bir ipga tuzdilar. (Garmdori)

Tepamda ko‘k dasturxon,
Dasturxonda shirmoy non.
Shirmoy non bir donadir,
Sindirilmas hech qachon. (Osmon, oy)

Oyog‘i yo‘q, qo‘li yo‘q,
Shoshib chopib chiqar u.
Ulkan zamin bag‘ridan,
Salom olib chiqar u. (Buloq)

Osmon chirog‘i
Yondi-yu o‘chdi. (Chaqmoq)

“MENING HIKOYAM” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning tasavvurini rivojlantirish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarning har biriga bittadan o‘yinchoq beradi. Bolalar esa o‘sha o‘yinchoq ishtirokida mustaqil gap tuzishlari kerak.

Misol uchun Lola qo‘g‘irchoq oladi va shunday gap tuzadi:

Men qo‘g‘irchoqqa yangi ko‘ylak tikib bering deb oyimga aytdim. Oyim bunga rozi bo‘ldilar.

“ILIB OL VA RANGINI AYT” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni hozirjavoblikka o‘rgatish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga koptok otish jarayonida birorta rangni aytdi. Bola esa o‘sha rangdagi o‘zi bilgan narsalar nomini aytishi kerak. Misol uchun Sariq – quyosh, jo‘jacha, o‘rdakcha.

Yashil – bodring, o‘t, dala.

Ko‘k – koptok, ko‘ylak.

“KAM VA KO‘P” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning so‘z boyligini oshirish, ularni ravon gapirishga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi biror narsani bitta deb aytdi, bolalar esa uning

ko'plik shaklini aytishlari kerak. Misol uchun, stol – stollar, gul – gullar, barg – barglar, uy – uylar, koptok – koptoklar kabi.

“GAPNI YAKUNLA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi turli mazmundagi gaplar o‘qirkan, ularni yakunlashni bolalarga vazifa qilib qoldiradi.

Ona nonni ... qo‘ydi (non idishga).

Buvim mazali salat qildi va uni ... qo‘ydi (muzlatkichga).

Manzura bugun bog‘chaga bormadi, chunki u bugun ... (kasal).

Dadam bozorga ... bordi (narsalar olish uchun).

“BUZILGAN TELEFON” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bitta so‘zni guruh boshidagi bolaga aytadi, u sherigiga aytadi, sherigi keyingisiga aytib butun guruh shu so‘zni bir-biriga aytganidan keyin o‘yin tugaydi. Kim so‘zni noto‘g‘ri talaffuz qilsa, u bu so‘zni qaytadan aytadi.

“BELGISINI AYT” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning nutqini boyitish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog so‘zlar aytadi va ularning belgilarini so‘raydi. Bolalar tarbiyachining savoliga javob qaytarishlari kerak.

Sharf – qalin, chiroyli, yumshoq.

Etik – qora, issiq, qulay.

Qo‘lqop – charmdan, jigarrang, issiq.

Tufli – kuzgi, chiroyli.

“YAQIN SO‘ZLAR” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni sinonim so‘zlarni topishga o‘rgatish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga so‘zlar aytadi, bolalar esa o‘sha so‘z ma‘nosiga yaqin so‘zlarni topib aytishlari kerak.

Yuz, chehra, aft, bashara.

Chiroyli, husndor, go‘zal.

Yaxshi, soz, durust.

“KIMNIKI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning so‘z boyligini oshirish, mantiqiy gikrlashga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi birorta so‘z aytadi va uni kimniki ekanligini so‘raydi. Bolalar narsaning kimniki ekanligini topib aytishlari kerak.

Ro‘mol – oyimniki.

Shlyapa – dadamniki.

Kitob – akamniki.

O‘yinchoq mashina – ukamniki.

Ko‘zoynak – bobomniki.

Hassa – buvimniki.

Kompyuter – akamniki.

“KO‘RGANIMIZNI AYTAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning xotirasini rivojlantirish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Bu o‘yinni sayrga chiqqanda o‘ynash foydaliroq. Sayr davo-

mida tarbiyachi bolalarga men daraxtni ko'rayapman deydi, bola esa men katta daraxtni ko'rayapman, keyingi bola esa men katta chiroyli daraxtni ko'rayapman, keyingisi men katti chiroyli va yashil daraxtni ko'rayapman deb o'sha narsaning belgilarini qo'shib aytib berishi kerak.

“KIM CHAQQON?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning fazoda mo'ljal olish qobiliyatini rivojlantirish, ularning so'z boyligini oshirish.

O'yin jarayoni: Pedagog bolalarga birorta o'yinchoq ko'rsatadi, keyin esa bolalar ko'zlarini yumadilar. Tarbiyachi o'sha o'yinchoqni bolalar ko'rishi mumkin bo'lgan shkaf ustiga, krovat tagiga berkitib qo'yishi mumkin. Bolalar ko'zini ochib keyin boyagi o'yinchoqni qayerda turganligini aytdi. Pedagog o'yinchoqni bir necha marta joyini o'zgartirishi mumkin.

“O‘ZING TUGAT” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning nutqini o'stirish.

O'yin jarayoni: Pedagog bir nechta gaplar o'qiydi, bolalar gap mazmuniga qarab uning yakunini aytishlari kerak.

Karim kasal bo'lib qoldi, chunki u ... (muzdek suv ichgandi).

Oyim soyabon oldi, chunki... (ko'chada yomg'ir yog'ayotgan edi).

Daraxt barglari qimirlayapti, chunki ... (shamol bo'layapti).

Judayam suv ichgim kelayapti, chunki... (chanqadim).

Kun sovub ketdi, chunki... (qor yog'ayapti).

“O‘ZING O‘ZGARTIR” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning so‘z boyligini oshirish, ularning nutqini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog gap o‘qiydi, bolalar esa unga o‘zgartirish kiritgan holda qayta aytishlari kerak. Bunda har bir bola o‘zi istagancha gapni o‘zgartirishi, to‘ldirishi mumkin.

Misol uchun, oyim ko‘ylak tikayapti. Xo‘p, oyim qanday ko‘ylak tikayapti?

Oyim qizil matodan ko‘ylak tikayapti, oyim yumshoq matodan ko‘ylak tikayapti.

“QARINDOSH SO‘ZLAR” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bitta so‘z aytadi, bolalar o‘sha so‘zdan yasalgan boshqa so‘zlarni aytishlari kerak.

Ayiq – ayiqpolvon, ayiqcha, ayiqjon.

Mushuk – mushukvoy, mushukcha, mushukjon.

Tulki – tulkivoy, tulkicha.

“XATONI TO‘G‘IRLA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bir nechta gap o‘qiydi. Gaplarning ichida xato bor va bolalar ana o‘sha xatoni to‘g‘irlab gapni to‘g‘ri shaklda aytishlari kerak. Pedagog quyidagi gaplardan foydalanishi mumkin:

Salim stol ustidagi qalamlardan yedi (konfetlardan).

Karima turli rangdagi konfetlar yordamida surat chizdi (qalamlar).

Shkafda bir nechta kitoblar bor edi. Ularni yuvish mumkinmi? (changini artish mumkin).

“KIM BO‘LSAM EKAN?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning kasblarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, gapni to‘g‘ri tuzishga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalardan “Kelajakda kim bo‘lmoqchisiz?” deb so‘raydi. Bolalar esa o‘zlari istagan kasbni aytishlari kerak. Pedagog bolalarning so‘zlarni o‘z o‘rnida ishlatayotganiga e‘tibor berishi kerak.

“TAOM NIMADAN PISHIRILGAN?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning so‘z boyligini oshirish, ularning nutqini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog gaplar o‘qiydi va savol beradi, tarbiyalanuvchilar esa pedagog bergan savolga javob berishlari kerak.

Sho‘rvaga nimalar solingan? (no‘xat, kartoshka, sabzi, pomidor, piyoz, ko‘kat)

Bo‘tqa nimadan qilingan? (guruch, suli yormasi)

Murabbo nimadan tayyorlangan? (olma, olxo‘ri, o‘rik, malina)

Sharbat nimadan qilingan? (sabzi, nok, apelsin)

“ISSIQ-SOVUQ” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarga qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar borligini tushuntirish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog ko‘ptokni bolaga otish jarayonida birorta so‘z ayta-di, bola esa o‘sha so‘zga qarma-qarshi ma‘noli so‘zni aytib, ko‘ptokni tarbiyachiga qaytarib otadi. Pedagog quyidagi so‘zlardan foydalanishi mumkin:

Yaxshi-yomon

Baland-past

Uzun-qisqa

Chiroyli-xunuk

Oq-qora

Xursand-xafa.

“BELGISINI AYT” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning so‘z boyligini oshirish, ularning nutqini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi fasllar nomini birma-bir aytadi, bolalar esa o‘sha faslda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni aytishlari kerak. Misol uchun bahor, yomg‘ir yog‘adi, daraxtlar barg chiqaradi. Yoz, mevalar pishadi, kun issiq bo‘ladi.

“AVVAL NIMA BO‘LGAN EDI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalar tasavvurini boyitish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog birorta so‘z aytadi, bolalar esa o‘sha so‘zda tasvirlangan narsa avval nima bo‘lganini aytib berishlari kerak.

Misol uchun jo‘jacha – tuxum, olma – urug‘, non – un, shkaf – taxta kabi.

“MAZASI QANAQA?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning tasavvurini boyitish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bir nechta mevalarni kesib bolalarga ko‘rsatadi. Bolalar esa mevalarni hidlab ko‘rib ular shirin, nordon, achchiq ekan deb, ta‘miga baho berishlari lozim.

“BU NIMANING OVOZI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning eshitish va kuzatuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog doirada, barabanda va qo‘ng‘iroqchada musiqa

chaladi. Bolalar esa ko‘zlarini yumgan holda musiqaning qaysi cholg‘u asbobidan chiqqanligini aniqlashlari kerak.

“KUZDA NIMA BO‘LADI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning fasllar haqidagi tasavvurlarini boyitish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Stol ustida turli fasllardagi o‘zgarishlarga oid suratlar qo‘yib qo‘yiladi. Bolalar esa ular ichidan aynan kuz faslidagi o‘zgarishlarga bog‘liq suratlarni tanlab olishlari va o‘sha suratdagi manzarani gapirib berishlari kerak.

“NIMA YO‘QOLDI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda diqqat va xotirani kuchaytirish va so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog stol ustiga 8 ta sabzavot qo‘yadi. Bolalar ushbu sabzavotlarning nomi, rangi, shakli qandayligini aytadi. Keyin esa bolalar ko‘zini yumib turadi, tarbiyachi ushbu sabzavotdan birortasini olib qo‘yadi. Bolalar stol ustida qaysi mahsulot yo‘qolganligini aytishlari lozim.

“NIMA DUMALOQ BO‘LADI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning shakl va kattalik haqidagi bilimlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog tarbiyalanuvchilarga “Nima dumaloq” deb savol beradi. Bolalar esa doira, koptok, g‘ildirak, olcha, olma deb javob beradilar. Keyin esa pedagog nima uzun deb savol beradi. Bolalar esa ip, daraxt deb javob beradi.

“YAXSHIMI YOKI YOMON?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning tasavvurlarini rivojlantirish, ularning so‘z boyligini

oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog gaplar o‘qiydi. Bolalar esa o‘sha gap mazmuniga qarab bu yaxshi, bu yomon deyishlari kerak. Misol uchun:

Bola daraxt shoxlarini sindirayapti – bu yomon.

Qizcha changlarni artayapti – bu yaxshi.

Aka ukasini o‘ynatayapti – bu yaxshi.

“QAYERDA NIMA QILISH MUMKIN?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning so‘z boyligini oshirish, ularning tasavvurini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga turli savollar beradi, bolalar esa o‘sha savollarga javob berishlari kerak. Tarbiyachi quyidagi savollarni berishi mumkin:

O‘rmonda nima qilish mumkin?

Bog‘da nima qilish mumkin?

Suzish havzasida nima qilish mumkin?

“NIMA UCHA OLADI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning qushlar haqidagi bilimlarini boyitish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga turli qushlar va hayvonlar suratlarini ko‘rsatadi. Bolalar suratda tasvirlangan narsa ucha olsa unda qarsak chaladilar, bordi-yu, ucha olmasa unda uning nomini aytadilar.

“KIM BIRINCHI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning hozirjavobligini oshirish, ularning nutqi ravon bo‘lishiga yordamlashish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga turli topishmoqlar aytadi, bolalar esa uning javobini aytishlari kerak.

U yog‘i tog‘,

Bu yog‘i tog‘,

O‘rtasida

Sariyog‘. (Yong‘oq)

O‘zi shirin tukligina,

Mazasi bor totligina. (Shaftoli)

Bir onadan

Yuz bola,

Yuzovi ham

Bo‘z bola. (Uzum)

Sariqqina to‘ni bor,

Ichi to‘la doni bor. (Anor)

Qat-qat to‘nli,

Qarich bo‘yli. (Karam)

Yer tagida oltin bosh. (Sholg‘om)

“QAYSI ORTIQCHA?”

Maqsad: Bolalarning mantiqiy fikrlash jarayonini o‘stirish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog so‘zlarni o‘qiydi. Bolalar esa o‘sha so‘zlarning ichdan

qaysi biri ortiqcha ekanligini topishi kerak.

Osmon, yulduzlar, sayyoralar, piyola.

Qoshiq, likopcha, ruchka, lagan.

Qizil, sariq, yashil, daftar.

Kuchuk, mushuk, bo'ri, qarg'a.

Musicha, zag'izg'on, kakku, kitob.

“KIMGA, NIMAGA?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning tasavvurini kengaytirish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga turli suratlar ko‘rsatadi va “Kimga nimaga?” deb savol beradi. Bolalar suratdagi predmetni kim va nima maqsadda ishlatilishini aytib berishlari kerak.

Pichoq, oshpazga narsalarni kesish uchun kerak.

Shprints hamshiraga ukol qilishi uchun kerak.

Ruchka o‘qituvchiga yozishi uchun kerak.

Fartuk oyimga ish qilayotganida tutib olishi uchun kerak.

Qaychi tikuvchiga matolarni qirqishi uchun kerak.

Rangli qalamlar rassomga surat chizishi uchun kerak.

Kitob o‘quvchiga o‘qishi uchun kerak.

Tarozi sotuvchiga narsalarni o‘lchash uchun kerak.

Tesha bog‘bonga gullarning tagini yumshatish uchun kerak.

Ko‘zoynak bobomga kitob o‘qish uchun kerak.

“SURATDAN HIKOYA TUZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning so‘z boyligini oshirish, ularda ijodkorlikni rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga biror mavzuga bag‘ishlangan surat ko‘r-

satadi. Bolalar esa o'sha surat asosida 4-5 ta gap tuzishlari kerak. Suratlar bolalar yoshiga mos, ularga tushunarli bo'lishi kerak. Buning uchun "Oila", "Hayvonot bog'i", "Oshxona", "Tug'ilgan kun" mavzularini tanlash ham mumkin. Pedagog quyidagicha savol berishi mumkin :

Suratda nima tasvirlangan? U nima qilayapti? Uning yonida kim bor? O'ng tomonida nima tasvirlangan? Chap tomonidachi?

"YEYMIZ-YEMAYMIZ" O'YINI

Maqsad: Bolalarning tasavvurlarini kengaytirish, ularning so'z boyligini oshirish.

O'yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga turli suratlar ko'rsatadi. Agar tarbiyachi ko'rsatgan suratdagi narsani yeyish mumkin bo'lsa, bolalar yeymiz deb aytadilar, yeyish mumkin bo'lmasa, unda yemaymiz deb. Nima uchun yemasliklari sababini aytib berishlari kerak.

Tarbiyachi quyidagi narsalarning suratini ko'rsatishi mumkin:

Olma, tarvuz, tufli, muzqaymoq, daftar, krem, sabzi, nok, televizor, muzlatkich, non, bulochka, mayiz, deraza, eshik, yong'oq, qurt, qovun, ko'ylak, bodring, pomidor, shim.

"O'ZING SO'Z TUZ" O'YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning so'z boyligini oshirish, ularning tasavvurini rivojlantirish.

O'yin jarayoni: Tarbiyachi so'zlar o'qiydi, bolalar uning davomini aytishlari kerak.

Limon nordon, olma esa ... (shirin).

O'rik shirin, dovuchcha esa ... (nordonroq).

Ukam chiroyli lekin uning bo'yi menikidan ... (pastroq).

Doira dumaloq shakliga o'xshaydi, tuxum esa... (ovalga).

“UYQUGA KETAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda mayda motorikani, tasavvurni rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga shunday deydi:

Bu barmoq uxlamoqchi. (O‘ng qo‘lni bo‘yin ustiga qo‘yadi).

Bu barmoq karovatga sakradi. (Chap qo‘lni bo‘yin ustiga qo‘yamiz)

Bolalar jim bo‘ling, tinchlaning. (O‘ng qo‘l ikkinchi barmog‘ini lablar ustiga qo‘yamiz).

Ukangizni uyg‘otib yubormang. (O‘ng qo‘l kaftlarini o‘ng va chap tomonga xuddi “yo‘q” degandek aylantiriladi).

Siz ham biroz dam oling. (Ikki qo‘l kaftini birlashtirib quloq orqasiga qo‘yiladi).

“BARMOQLAR SALOMLASHAYPTI” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Ikkala qo‘l kafti bir-biriga yopishtiriladi. Pedagog qani barmoqlarimiz bir-biri bilan so‘rashayapti deganida ikkala qo‘l barmoqlari birma-bir ochib yopiladi. Avval bosh barmoq, keyin ko‘rsatkich barmoq, keyin uzun barmoq, nomsiz barmoq va oxiri jimjiloq. Hamma barmoqlarimiz bir-biri bilan salomlashib bo‘ldimi? Unda yana bir marta bu mashqni qaytaramiz.

“YONG‘OQNI QO‘YIB YUBORMA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda nutqni rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Bu o‘yinda pedagog bolalarga yong‘oq tarqatib chiqadi. Keyin esa o‘zi bitta yong‘oqni stolning ustiga qo‘yib kafti, barmoqlari bilan uni aylantiradi. Bolalar, siz yong‘oqni ikki daqiqa mobaynida kaftingiz va barmoqlaringiz

yordamida aylantiring. Avval o'ng qo'lda, keyin esa chap qo'lda aylantirishingiz kerak. Yong'oq barmoqlarimizning hamma joyiga tegishiga e'tibor qiling.

“SOVG‘A” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning ijodkorligini oshirish, ularning tasavvurini boyitish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi jarayonni ko‘rsatib beradi. Katta aka ukaga qalam sovg‘a qilmoqda. Avvaliga bosh barmoq bilan qalamni quchoqlab oladi, keyin esa ikkinchi qo‘lning jimjilog‘i bilan qalamni ushlab oladi.

“HAMMASI ZO‘R” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda mayda motorikani rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Bunda tarbiyachi savollar beradi. Bolalar esa zo‘r degan javob berishsa bosh barmoqni tepaga ko‘taradilar, yaxshi emas deb javob berishsa barmoqni boshqa barmoqlar bilan yumib oladilar.

“BIRGA SANAYMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning sonlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga turli suratlar ko‘rsatadi. Bolalar esa o‘sha suratdagi narsalar sonini barmoqda ko‘rsatib beradilar. Misol uchun, ikkita ko‘z, bitta burun, ikkita quloq, ikkita qosh, beshta yulduzcha, to‘rtta olmaxon, beshta quyoncha kabi suratlar ko‘rsatilishi mumkin.

“BALIQLAR” O‘YINI

Maqsad: Bolalar tasavvurini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Bolalar bizlar baliqlarmiz deb tasavvur qiling, baliq uxlayapti. Chap qo‘l kafti pastda ustiga o‘ng qo‘l kafti qo‘yiladi. Endi baliqlar uyg‘ondi. Kaftlar birlashgan holda tikka turadi. O‘ngga suzimiz, keyin esa chapga suzimiz. Mashqni 5 marta qaytaramiz.

“KIM CHAQQON?” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarda mayda motorikani rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Bu mashqda bolaning ikkita qo‘liga qalam beriladi. Va ikkita oq qog‘oz stol ustiga qo‘yiladi. Bolalardan eng oddiy geometrik figuralarni bir vaqtning o‘zida ikkita qo‘lda chizish so‘raladi. Misol uchun uchburchak, to‘rtburchak, oval kabi shakllarni kim ikkita qo‘lda hammadan birinchi chizib bo‘lsa ana o‘sha bola g‘olib deb topiladi.

“QUSHCHA UYGA KELDI”

Maqsad: bolalarda tasavvurni boyitish, ijodkorlini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga daraxtdagi qushchani tasvirlashlarini aytadi. Buning uchun barcha barmoqlar birlashadi. Pedagog qushcha daraxtda degan vaqtda esa stol ustiga tuq-tuq-tuq deyishadi.

“KULGUNING RASMI” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning nutqini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga shunday deydi:

Bolajonlar, hammaga kulgan inson yoqadi. Shuning uchun qani kulguning

suratini havoda chizamiz. Buning uchun ikkita ko'rsatkich barmoqni 10-15 santimetr oraliqda qo'yib ikki tomondan o'rta olib kelib birlashtiriladi.

“XATOLIK BORMI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, ularni tahlil qilib qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalardan xatolarni to'g'rilashini so'raydi. Bunda quyidagicha gaplar keltirilishi mumkin. Olmazorda nok pishdi. Onam kartoshkali murabbo tayyorladi. Apelsin va mandarin sabzavot hisoblanadi. Kartoshka qishda ekiladi. Kuchuk qattiq miyovlaydi.

“MASHINANI YURGIZAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarni R harfini to'g'ri aytishga o'rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi stol ustiga o'yinchoq mashinalar qo'yadi va ular yuradigan yo'lning suratini chizib beradi. Bolalarga esa bitta mashina juda ham charchaganligi va yurishga qiynalganligi uchun “r-r-r-r-r” deb uning yurishiga yordam berish kerakligini aytadi. Bolakay “r-r-r-r-r” deyish bilan birga, o'sha mashinani qog'ozda chizilgan yo'nalish bo'ylab harakatlantirishi kerak.

“BILIMDON BOLALAR” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni tovushlarni to'g'ri aytishga va hozirjavoblikka o'rgatish.

O‘yin jarayoni: Bolalarga oldindan tayyorlab qo'yilgan suratlar ko'rsatiladi. Ishtirokchi suratni oladi va unda ko'rsatilgan narsaning nomini aytadi. Har bir suratda albatta R, harfi ishlatilgan narsalar tasvirlangan bo'ladi. Masalan, qulupnay, stul, futbol, olma, bayroq, jo'xori, pomidor, svetofor, raketa, arra, karam, malina, bola, quruvchi, duradgor, shakar.

“SAYOHATGA BORAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish, ularda boshqalarni his qila olish, hamdardlik ko‘nikmalarini shakllantirish. Tarbiyalanuvchilarning so‘z boyligini oshirish, o‘z fikrini erkin bayon yetish ko‘nikmasini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyalanuvchilar ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhdagi bolalar sayohatga borish uchun o‘zlari yoqtirgan o‘yinchoqlarni yig‘adilar. Guruhdagi stullardan poyezd ham yasash mumkin. Safarga ketayotganlar qolayotganlar bilan xayrlashadi. Poyezd ketish qo‘ng‘irog‘ini chaladi. Tarbiyachi bolalarga quyidagi topshiriqlarni berishi mumkin: Oyingiz dam olish maskaniga ketyapti. Siz hozir u bilan xayrlashing. Do‘stingizga bugun bog‘chada kuningiz qanday o‘tgani- ni aytib bering. So‘zingiz yakunida do‘stingizga atalgan yaxshi tilaklar bo‘lsin. Yozning bir oyini buvingiznikida o‘tkazmoqchisiz. Ota-onangiz bilan xayrlashing. Ularga qanday gaplarni aytasiz? Oyingiz ishga shoshilib turibdi, bu holatda unga nimalar deysiz? Keling, ota-onamiz ishdan qaytishiga tayyorgarlik ko‘ramiz. Xo‘sh, ularni qanday kutib olamiz? Uyqu oldidan oila a‘zolaringizga nimalar deysiz?

“MEHMONLARNI KUTIB OLAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni mehmon kutishning o‘ziga xos qoidalari bilan tanishtirish, faol muloqot vositalaridan foydalanish, mehmondo‘stlik xislatini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Ertaklar olamining mashhur qahramonlari moviy rang vertol- yotda guruhga mehmonga kelishadi. Ular orasida Buratino, Zumrad va Qimmat, Kenja botir, Qizil qalpoqcha singari qahramonlar bor. Ularning yoshi va ko‘rinishi turlicha bo‘lgani sabab o‘ziga mos tarzda kutib olish lozim. Mehmonlarni kutib olish jarayonida mimika, qo‘l harakatlaridan foydalanishda quyidagi qoidalar- ga amal qilish so‘raladi: mehmonning yuziga ochiq chehra bilan qarash; boshini biroz eggan holda tabassum qilish. O‘yin davomida kelgan mehmonlar turli dav- latlardan bo‘lishi ham mumkin. Bunda bolalarga qahramon mansub bo‘lgan tilida salomlashish o‘rgatiladi.

“MEN MUXBIRMAN” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri savol berish ko‘nikmasini shakllantirish, ijtimoiy-hissiy rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyalanuvchilar bir nechta guruhga bo‘linadi va ular uchun o‘zlari yaxshi biladigan mavzu tanlanadi. Masalan, “Mening kun tartibim”, “Mening o‘yinchoqlarim”, “Mening do‘stlarim” kabi mavzularni tanlash mumkin. Ishtirokchilardan biri, ya‘ni “mehmon” xonaning o‘rtasiga o‘tiradi, qolganlari esa unga navbatma-navbat savol berishadi. Bu jarayonda har bir guruh o‘zi tanlagan nomdan kelib chiqqan holda savol beradi. Masalan, “Sizning do‘stlaringiz ko‘pmi?”, “Do‘stlar ko‘p bo‘lishi uchun nima qilishi kerak?”, “Eng yaqin do‘stingiz haqida gapirib bering”, deb murojaat qiladi. Shu tariqa o‘yinni davom ettiramiz.

“DO‘KONDA” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning eshitish va nutq qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi sotuvchi, bolalar esa xaridor rolini o‘ynashadi. Sotuvchi xaridor biror narsaning aynan nomi emas, balki bosh harfi bilan aytganidan keyin olib beradi. Masalan, qalam emas, q, daftar emas, d, kosa emas, k kabi.

“O‘ZING YAKUNLA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning eslab qolish qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga savol beradi, tarbiyalanuvchilardan kim tayyor bo‘lsa, o‘sha javob beradi. Masalan, so‘z boshida va oxirida A harfi ishtirok etadigan so‘z ayting. Bolakay Aziza, aloqa deb javob berishi mumkin. So‘z boshida a, oxirida o harfi bilan tugaydigan so‘zga misol ayting deb so‘rash ham mumkin. Tarbiyalanuvchi esa a‘lo, ammo kabi so‘zlarni aytishi mumkin.

“AVTOBUS” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning eshitish qobiliyatini kuchaytirish.

O‘yin jarayoni: Bolalar stulda o‘tiradilar va uni avtobus deb tasavvur qiladilar. Tarbiyachi ularga turli narsalarning suratlarini tarqatadi. Bolalarning vazifalari A va B harfi ishtirok etgan suratlarni bir bolaga berib qolganlarini guruhdagi quti-chaga solishdan iborat. Avtobus o‘sha harflar ishtirokidagi suratlar yig‘ilganidan keyingina yura oladi deb uqtiriladi. Avtobus yurganida esa bolalar bip-bip-biiiiip deb ko‘chada ketayotgan yo‘lovchini ogohlantiradilar.

“O‘ZIM TOPAMAN” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning nutq qobiliyatini oshirish, ularni ravon gapirishga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi biror so‘z aytadi, tarbiyalanuvchi esa o‘sha so‘zga mos so‘z aytishi kerak. Masalan, quyosh - issiq, suv - ho‘l, konfet - shirin, tun - qorong‘i, olma - meva, sabzi - sabzavot, bahor - fasl, non - bulochka kabi.

“OXIRGI HARFNI AYT” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda eshitish va gapirish qobiliyatini rivojlantirish, ularni taqqoslashga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi so‘zlarni oxirgi harfini aytmasdan o‘qiydi, tarbiyalanuvchi esa uning oxirgi harfi bilan bilan birgalikda ayta olishi kerak. Masalan, kara., olxo‘r., mushu., kuchu., lavlag., dana., xurm., ko‘ka., mandari., zir., pomido., bodrin., shaftol., malin., xazin., piyo., darax., tovu., lol., atirgu.

“TEZ AYT” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarni topqirlikka o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bitta so‘zning yarmini aytib, koptokni tarbiyalanuvchilarga otadi. Koptokni ilgan bolakay o‘sha so‘zning yarmini to‘g‘ri aytishi kerak. Masalan, gi-lam, sho-ko-lad, da-da, kop-tok, qo‘-g‘ir-choq, ay-iq-cha, may-mun kabi so‘zlardan foydalanish mumkin.

“AGARDA...” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarda turli soha vakillariga nisbatan hurmat uyg‘otish, ularni barcha kasblarga qiziqtirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bitta gapni boshlaydi, tarbiyalanuvchi esa uni davom ettirishi kerak. Masalan,

Agar o‘qituvchilar bo‘lmaganida...

Agar tish shifokori bo‘lmaganida...

Agar qorovullar bo‘lmaganida...

Agar haydovchilar bo‘lmaganida...

“TOPGAN TOPALOQ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda mantiqiy fikrlash, xotira, nutq qobiliyatini o‘stirish, ularni hozirjavoblikka o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: O‘yin shartiga ko‘ra, tarbiyachi biror gap aytadi, tarbiyalanuvchilar esa o‘sha gapni mantiqan to‘g‘ri davom ettirishlari kerak.

U yong‘in chiqqanida yordamga keladi, demak, u (o‘t o‘chiruvchi).

Ko‘m-ko‘k osmonda uchuvchi yuqoriga nimada ko‘tarildi? (samolyotda).

Duradgor nimalar yasaydi? (eshik, deraza, mebel).

Bugun men qo‘g‘irchog‘imga ukol qilib qo‘ydim, demak, bugun men (hamshiraman).

Maktabda ishlaydigan insonlar kim deb ataladi? (ustozlar).

Sochlarimizni qirqib, bizni chiroyli qilib qo'yadigan ustalar (sartarosh).

U har kuni bizga xatlarni olib kelib beradi. Demak, uning kasbi (pochtachi).

U shirinliklar pishiradi, demak, u (qandolatchi).

Hamma uni pazanda deb ataydi, u turli taomlarni mazali qilib pishiradi (oshpaz).

U bog'chada bolalarga qaraydi, mashg'ulotlar o'tadi (tarbiyachi).

U ko'p hisob kitob qiladi, demak, u (hisobchi).

Har xil ko'ylaklarni tikadigan odam (tikuvchi).

Uylar, binolarni qurishdan oldin ularning suratini chizadigan odam (arxitektor).

“KIM KO'PROQ BILADI?” O'YINI

Maqsad: Bolalarga kasblar haqida ma'lumot berish, qaysi soha vakili qanday ish qilishini aytish.

O'yin jarayoni: Tarbiyachi avval o'zi haqida quyidagicha gapirib beradi. Men bog'chada tarbiyachiman. Bu mening kasbim. Men sizlarga o'zingizni qanday tutish kerakligini o'rgataman, rasm chizish, she'r aytishni o'qitaman, sizlar bilan birga sayr qilaman, sizlarga turli hikoyalar aytib beraman. Mening kasbim sizlarni tarbiyalashdan iborat. Xo'sh, oshxonada ovqat tayyorlaydigan Malohat opaning kasbi esa oshpazlik. U ovqatlar tayyorlaydi. Xo'sh, sizlar yana qanday kasblarni bilasizlar? (Bolalarning javoblari tinglanadi.) Juda yaxshi, endi esa kim nima qilishini aniqlab olamiz.

Shifokor – bemorlarni davolaydi, quruvchi – bino quradi, dizayner – turli dizaynlar chizadi.

“TEZ JAVOB TOP” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarni o‘yin orqali mantiqiy fikrlashga, tahlil qilishga o‘rgatish, kasbga qiziqishlarini oshirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi avvaldan tayyorlab qo‘yilgan kartochnidagi so‘zlarni o‘qiydi, bolalardan ma‘no jihatidan mos keladigan so‘zlarni topish so‘raladi. Kim ko‘p javob bersa, o‘yin oxirida rag‘batlantiriladi.

Bodring-sabzavot.

Lola-...

Nonushta-ertalab.

Tushlik-...

O‘qituvchi-maktab.

Kitob-...

Qor-qish.

Yomg‘ir-...

Aka-uka.

Opa-...

Baliq-suv.

Qush-...

“QARAMA-QARSHI” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda taqqoslashga, chamalashga o‘rgatish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Bu o‘yinda tarbiyachi so‘zlarni o‘qiydi, bola esa teskari ma‘nosini topadi. Aynan o‘zi topgan so‘z ishtirokida gap tuzishi ham mumkin.

Masalan:

Oq-qora.

Katta - ...

Semiz - ...

Keng - ...

Aqlli - ...

Yaxshi - ...

Quvnoq - ...

“KASBLARNI O‘RGANAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda kasblarga nisbatan qiziqish uyg‘otish, har bir kasb haqida tushuncha berish.

O‘yin jarayoni: Bola savolni tanlaydi, tarbiyachi o‘sha savolni o‘qib eshittiradi. Tarbiyalanuvchi savolga bir daqiqa davomida javob berishi kerak.

Taomni kim tayyorlaydi?

Kim uy quradi?

Kim she‘r yozadi?

Kim bolalarni davolaydi?

Kim mashina haydaydi?

Kim kiyim tikadi?

Kim surat chizadi?

“CHAMALASHNI O‘RGANAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarni chamalashga o‘rgatish, ularning nutq qobiliyatini o‘stirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga quyidagi matnni o‘qib beradi:

Ikkita bolakay bo‘lgan ekan. Ular bitta ko‘chada yashasharkan, bitta bog‘chaga borisharkan. Ammo bitta bola ikkinchisidan bir yoshga kattaroq bo‘lgani uchun

ular turli guruhlarga borarkan. Ularning tarbiyachilari ham ikki xil ekan. Qani, bolajonlar, hozir siz o'zingizni o'sha bola o'rniga qo'yib ko'rasiz va hikoyani davom ettirasiz. Demak, birinchi bola o'z tarbiyachisi haqida gapirsa, ikkinchisi o'zining tarbiyachisi haqida gapirib beradi. Masalan, mening tarbiyachim – chiroyli desa, ikkinchisi meniki chiroyliroq deyishi mumkin. Yana mening tarbiyachim mehribon, meniki esa dunyodagi eng mehriboni, meniki shirinso'z, meniki xushmuomalaroq kabi o'xshatishlar bilan davom ettirish mumkin. O'yin so'ngida esa tarbiyachi bolalar bilan ishlaydigan har bir tarbiyachi so'zsiz eng chiroyli, eng mehribon va eng yaxshi insondir deb o'yinga yakun yasaydi.

**“MATEMATIKA, QURISH-YASASH VA
KONSTRUKTSIYALASH” MARKAZI
UCHUN DIDAKTIK O‘YINLAR**

“TO‘G‘RI SANA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning sonlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Bolalar doira shaklida turib oladilar. Pedagog ularga koptok otadi va bir sonidan boshlab sanaydi. Koptokni ilib olgan bola keyingi sonni aytadi va koptokni sherigiga otadi. O‘yin barcha ishtirokchilar son aytib yana o‘ndan bir-gacha teskari sanaguncha davom etadi.

“NIMA QAYERDA?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning fazoda mo‘ljal olish qobiliyatlarini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Xonaning turli joylariga o‘yinchoqlar joylashtirib chiqiladi. Boladan qaysi o‘yinchoq qayerda turganligini topib uni tepada, pastda, o‘ngda, chapda, tagida kabi so‘zlar bilan qayerda turganligini aytib berish so‘raladi.

“KO‘PMI YOKI KAM?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning ko‘p, kam, bitta kabi so‘zlarning ma‘nosini yaxshiroq tushunishlariga yordam berish.

O‘yin jarayoni: Boladan xonada nima bitta, nima ko‘p, nima kam ekanligi so‘raladi. Keyingi boladan esa qaysi rangdagi buyumlar ko‘p, qaysi rangdagi buyumlar kam ekanligi so‘raladi. Bolalar stullar ko‘p, stol kam, o‘yinchoqlar ko‘p, kitoblar kamroq kabi javoblar beradi.

“ESHITAMIZ VA YOZAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning son haqida olgan bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Bolalarga pedagog birorta sonni aytadi, bolalar esa o‘sha sonni sanoq cho‘p yordamida yasab ko‘rsatib berishlari kerak. Tarbiyachi uch deganida

uchta sanoq cho‘p, besh deganida esa beshta sanoq cho‘p ko‘rsatishadi.

“MEVALARNI YIG‘” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning shakl va kattalik haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Pedagog avvaldan tayyorlangan katta, o‘rtacha va kichik savatchalarni bolalar yoniga qo‘yadi. Bolalar katta mevalarni katta savatga, o‘rtachalarini o‘rtacha savatga va kichik mevalarni kichik savatga solishlari kerak bo‘ladi.

“TEZ HISOBLA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning sonlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Pedagog olmaxon, quyon va ayiqning soni va ularga yeguliklar sonini hisoblab ko‘rishni bolalarga taklif qiladi. Bolalar quyon to‘rtta, sabzi ham to‘rtta, demak yetadi, olmaxon 5 ta, yong‘oq esa to‘rtta ekan, demak bitta yetmaydi deb aytishlari kerak.

“JO‘JALAR VA TOVUQLAR” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning qo‘shish va ayirish haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Pedagog bugun sizlar bilan tovuq fabrikasiga boramiz deb aytdi. Bolalar yoniga jo‘jalar va tovuqlar o‘yinchoqlari qo‘yiladi. Pedagog tovuqlar beshta ekan, jo‘jalar esa to‘rtta, jo‘jalar ham beshta bo‘lishi uchun nima qilishimiz kerak deb so‘raydi. Bolalar esa yana bitta jo‘ja qo‘shish kerakligini aytadilar. Pedagog yana bitta jo‘ja qo‘shadi va jo‘jalar soni beshta bo‘ladi. O‘yin shu tariqa davom etadi.

“QUSHLARNI SANA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarga 6 va 7 sonini yaxshiroq o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bir qatorga ko‘k rangdagi qushlarni qo‘yadi. Ikkinchi qatorga esa yashil rangdagi qushlarni qo‘yadi. Bolalar, birinchi qatordagi qushlar soni 7 ta ikkinchi qatordagi qushlar soni oltita. Ikkinchi qatordagi qushlar sonini birinchi qatordagiga tenglashtirish uchun nima qilish kerak? Bolalar esa ikkinchi qatorga yana bitta qush qo‘shish kerakligini aytadilar. Pedagog 6 va 7 soni orasidagi misollar aytaveradi, bolalar esa u misollarga javob topishlari kerak.

“JOYINGNI TOP” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning fazoda mo‘ljal olish haqidagi bilimlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga qayerga turishi kerakligini aytib turadi, bolalar esa o‘sha joyga turishlari kerak. Masalan, Kozim mening yonimga kel, Karim Kozimning orqa tomoniga tur, Salim Kozimning o‘ng tomoniga tur, chap tomoniga esa Akmal kel kabi yo‘naltirib turadi. Bolalar esa tarbiyachi aytgan joyga turadilar.

“CHO‘PLARNI BO‘YIGA QARAB JOYLA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning uzunlik haqidagi tasavvurlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga cho‘plarni bo‘yiga qarab joylatshirish zarurligini aytadi. Bolalar esa cho‘plarni ushlab chamalagan holda uzunligi bo‘yicha joylaydilar.

“SURATGA QARAB HARAKAT QIL” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning sonlar haqidagi bilimlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga sonlar yozilgan kartochkalar tarqatadi. Har bir bola o‘z kartochkasida qaysi son yozilgan bo‘lsa, ana o‘sha son miqdorida qar-sak chalishi kerak.

“KIM CHAQQON?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning sonlar haqidagi bilimlarini boyitish, ularni hozirjavob-likka o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Bolalar aylana shaklida turib oladilar. Pedagog koptokni bitta bolaga otadi va istalgan bitta sonni aytadi. Koptokni ilib olgan bola esa o‘sha son-dan oldingi va keyingi sonni aytishi kerak. Misol uchun 5, undan oldin 4, undan keyin 6 kabi.

“TUGALLANMAGAN SURAT” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning geometrik figuralar haqidagi tasavvurlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Har bir bolaga turli kesilgan shakllardagi qog‘ozlar tarqatiladi. Ularning oldiga shunday suratlar qo‘yiladiki, bu suratlarda qaysidir joyi yakuniga yetmagan bo‘ladi. Yosh rassomlar o‘sha yetishmayotgan joyga geometrik shakllar-ni yopishtirib rasmni yakuniga yetkazadilar.

“GILAMNI YAMAYMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning geometrik figuralar haqidagi tasavvurlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog quyidagicha matn o‘qiydi:

Bolalar kecha kechqurun sichqonchalar ko‘p bo‘lib uyga bostirib kirishibdi.

Ular tonggacha nima qilishni bilmasdan gilamni yeb uning ko'p joyini teshik qilib qo'yishibdi. Sizlar gilamning teshik joylarini yamab berishga yordamlashasizlarmi?
Bolalar yordamlashadilar.

“TIRIK SONLAR” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning 1 dan 10 gacha bo‘lgan sonlar haqidagi bilimlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga turli sonlar yozilgan kartochkalarni beradi. Bolalar qator bo‘lib turadilar, pedagog aytgan son qatordan chiqadi va boshqa joyga o‘tadi. U o‘zidan keyingi sonni chaqirishi ham mumkin.

“ESHIT VA AYT” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning eshitish qobiliyatlarini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Bolalarga biror narsani urib eshittiriladi va ular o‘sha urilgan ovozning soni nechtaligini aytib berishlari kerak. Misol uchun, tesha 5 marta yerga urildi, qoshiq 3 marta bir-biriga tegdi kabi.

“BILMASVOYGA O‘RGATAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning shakllar haqidagi bilimlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Xonaga Bilmasvoy kirib keladi. Bolalar esa unga xonada nima borligi va qanaqa shaklda ekanligini aytib berishlari kerak. Misol uchun, xonada shkaf bor, u to‘rtburchak shaklda, xonada koptok bor, u dumaloq shaklda.

“KIM TEZ YURADI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning fazoda mo‘ljal olish haqidagi ko‘nikmalarini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga turli o‘yinchoqlarni yashirib qo‘yganligini, ularning joyini faqat pedagog aytgan joydan yursagina topish mumkinligini aytadi. Bolalar pedagog ko‘rsatmasiga qarab yuradilar va yashirilgan narsalarni topadilar. Misol uchun o‘ngga olti qadam, to‘g‘riga ikki qadam to‘xtaymiz va yerga qaraymiz.

“KIM KO‘PROQ?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning 5 va 6 sonlari haqidagi bilimlarini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog tarbiyalanuvchilarga shunday deydi:

Bugun men avtobusga chiqdim. Unda mana shuncha qiz bola, (tarbiyachi doskaga 5 ta doira shaklini chizadi) va mana shuncha o‘g‘il bola (pedagog doskaga 6 ta uchburchak rasmini chizadi) bor ekan. Avtobusdagi qizlar va bolalar soni teng bo‘lishi uchun qaysi shakldan chizishimiz kerak? Bolalar yana bitta uchburchak shaklini chizish kerakligini aytadilar.

“SHAKLLAR USTASI” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning geometrik shakllar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Har bir bolaga sanoq cho‘plar beriladi. Tarbiyalanuvchilar kim ko‘proq geometrik shakllar yasay olishini sinab ko‘radilar. O‘yin so‘ngida kim ko‘proq geometrik shakllar yasay olsa, ana o‘sha g‘olib deb topiladi.

“BILMASVOY MEHMONDA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning sonlar haqidagi bilimlarini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga har bir quyonchaga bittadan yelim stakancha bo‘lishi kerak, qani stol ustini ko‘zdan kechiring va nechta quyonchaga stakan yetmayotganini aniqlang deydi. Tarbiyalanuvchilar esa quyoncha soniga yetmayotgan stakanlar sonini aniqlaydilar va o‘sha joyga stakan qo‘yadilar.

“ESHIT VA HARAKAT QIL” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda eshitish va sanash qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga u biror narsa bilan barabanga urishini va har bir urilgan son uchun bittadan o‘yinchoqni o‘ngdan chapga olib qo‘yish kerakligini aytadi. Bolalarning har biri yoniga beshtadan o‘yinchoq qo‘yib qo‘yiladi.

“TUGALLANMAGAN RASM” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning turli geometrik shakllar haqidagi bilimlarini oshirish.

O‘yin jarayoni: Bolalarga turlicha qirqilgan 8 ta bo‘lakdan bir butun kvadrat shakli yasash talab etiladi. Har bir bola uchun bo‘lingan karton qog‘ozlari tarqatiladi. Ular to‘rtburchak shakl yasashlari kerak.

“TEZROQ AYT” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning sonlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Bolalar doira shaklida turib oladilar. Pedagog koptokni otib hafta kunlaridan birini aytadi. Koptokni ilib olgan bola undan oldingi va keyingi hafta kunlari nomini aytib beradi va koptokni yana bir bolaga otadi.

“O‘YINCHOQNI TOP” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning fazoda mo‘ljall olish ko‘nikmalarini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga shunday deydi:

Tunda guruhda hech kim yo‘qligida Buratino bizga turli o‘yinchoqlarni sovg‘a qilib tashlab ketibdi. Ammo u o‘yinchoqlarning qayerdaligini bitta qog‘ozga yozib ketibdi. Uni topolsakkina o‘yinchoqlar bizniki bo‘ladi. Bolalar o‘yinchoqlarni topishga tayyormisizlar?

Qani, birinchi bola sen stoldan o‘tib uch qadam oldinga yur va chapga buril. Shkafning ustida o‘yinchoq mashinacha turibdi, ana shu seniki.

Endi ikkinchi tarbiyalanuvchi to‘rtinchi stolning tagini qara, o‘sha yerda senga atalgan o‘yinchoq turibdi.

Uchinchi ishtirokchi sen esa eshikning orqasini qara, o‘sha yerda ham bitta o‘yinchoq bo‘lishi kerak.

O‘yin shu tariqa davom etadi.

“BIR XILINI TOP” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning geometrik figuralar haqidagi bilimlarini oshirish.

O‘yin jarayoni: Bolalarga turli rang va shakldagi ko‘pgina geometrik figuralar aralashtirgan holda beriladi. Bolalar esa ularni rangi va shakliga qarab ajratadilar. Keyin esa pedagog qaysi geometrik figura ko‘proq, qaysi figura kamroq ekanligini, qaysi rangdagi figura eng ko‘pi ekanligini so‘raydi.

“CHAMALAB TOP” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning chamalash va mo‘ljall olish qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga bitta o‘yinchoq ko‘rsatadi. Keyin esa bola ko‘zlarini yumgan holda turli narsalar solingan xaltachadan aynan pedagog ko‘rsat-

gan o'yinchoqni topib berishi so'raladi.

Har ikkita ishtirokchidan keyin pedagog o'yinchoqni almashtiradi.

“KIM CHAQQONROQ?” O'YINI

Maqsad: Bolalarning shakllar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O'yin jarayoni: Pedagog stol ustiga turli shakllardagi uzun, kalta, katta-kichik karton qutilarni qo'yadi. Bolalarga esa katta qutini o'ng tarafdagi stol ustiga olib bor, kichkina qutini shkaf yoniga olib bor deb topshiriq beradi.

“XATO QILMA” O'YINI

Maqsad: Bolalarning sonlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O'yin jarayoni: Har bir bolaga kartok qog'ozdan bir tomoniga sonlar, ikkinchi tomoniga esa o'sha songa mos meva surati tushirilgan kartochkalar tarqatiladi. Bolalar o'sha karton qog'ozlarning son yozilgan tomonini yerga qaratib yoyib chiqadilar. Pedagog birorta sonni aytadi, misol uchun 3. Bolalar esa uchta meva tasvirlangan kartonni olib qo'llarini tepaga ko'tarib tarbiyachiga ko'rsatishlari kerak.

“YOSH RASSOMLAR” O'YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning fazoda mo'ljal olish haqidagi tasavvurlarini boyitish.

O'yin jarayoni: Pedagog har bir bolaga oq qog'oz tarqatib chiqadi. Qog'ozning o'rtasiga daraxt surati chizilgan bo'ladi. Keyin esa bolalar tarbiyachi topshirig'iga ko'ra daraxtga qo'shimcha suratlar chizadilar. Misol uchun, daraxtning o'ng tomoniga gullar chizamiz, chap tomoniga esa quyoncha suratini chizamiz. Daraxt novdalariga bir dona qizil olma suratini chizamiz. Topshiriqda tepada, pastda, yonida, o'rtasida, o'ng tomonida, chap tomonida kabi so'zlar ishlatilishi kerak.

“BUZILGAN MASHINA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning tasavvurlarini boyitish, ularning geometrik figuralar haqidagi bilimlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bitta g‘ildiragi chiqib ketgan mashinani bolalarga ko‘rsatadi va unga nima yetmayotganligini so‘raydi. Bolalar g‘ildirak yetmayotganligini aytadilar. Tarbiyachi g‘ildirak qanday shaklda va rangdaligini so‘raydi va bolalar javob beradilar.

“QAYSI SON YO‘QOLDI?” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning sonlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Bolalarga 1 dan 10 gacha bo‘lgan sonlar yozilgan kartochkalar ko‘rsatiladi. Bolalar stol ustiga taxlangan kartochkalarni aralashgan holdan to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiradilar. Keyin esa bolalar ko‘zlarini yumadilar va pedagog bitta sonni yashirib qo‘yadi. Bolalar qaysi son yo‘qolib qolganligini aniqlashlari kerak.

“KERAKLI SONNI QO‘Y” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning sonlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Har bir bolaga turli mevalar surati tushirilgan kartochkalar tarqatiladi. Bu suratlarda mevalar surati 1 donadan 10 tagacha tasvirlangan bo‘ladi. Bolalar esa o‘zlaridagi kartochkada tasvirlangan meva sonini uning yoniga qo‘yib chiqishlari va tarbiyachiga o‘sha qaysi raqam ekanligini aytib berishlari kerak.

“AYIQLARNI MEHMON QILAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning sonlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash,

ularning tasavvurlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga shunday deydi:

Bolalar bizning guruhimizga bugun ayiqpolvonlar mehmonga kelisharkan. Mana ular kelishdi. Bolalar, ayiqpolvonlar bilan so‘rashamiz. Momiqvoylarning soni nechta ekan bolajonlar? Bolalar 4 ta deb aytadilar.

Demak, biz stol ustiga nechta likopcha qo‘yamiz?

Ularga nechta piyolada suv berishimiz kerak?

Qoshiqdan nechta qo‘yishimiz lozim?

Yana ikkita ayiqpolvon mehmon kelib qoldi. Endi nechta likopcha, nechta qoshiq va nechta piyola qo‘yishimiz kerak?

“KIM TEZROQ?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, ularning tasavvurini boyitish.

O‘yin jarayoni: Xonaning 4 ta burchagi bor. Har bir burchakda bittadan mushuk o‘tirgan bo‘lsa, xonada nechta mushuk bor?

Xonaning bitta burchagidagi mushuk tashqariga chiqib ketsa, xonada nechta mushuk qoladi?

Itning nechta oyog‘i bor?

Filning nechta qulog‘i bor?

Quyoning ko‘zlari nechta?

Ayiqpolvonning burni nechta?

“BALIQLAR QAYERGA QARAB SUZAYAPTI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning fazoda mo‘ljal olish haqidagi tasavvurlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga baliqlar suzayotgan suratni ko‘rsatadi. Suratda baliqlarning 5 tasi o‘ngga, 3 tasi chap tomonga qarab suzayotgani tasvirlan-

gan bo'ladi. Pedagog bolalar, suvda baliqlar nechta, ularning nechtasi o'ng tomonga nechtasi chap tomonga suzayapti deb savol beradi. Bolalar javob beradilar.

“GUL O‘STIRAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning balandlik haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga beshtadan surat tarqatadi. Suratda gullar tasvirlangan bo‘lib ular har birida o‘shish jarayonida va borgan sari kattalashib boradi. Bolalar esa ularni to‘g‘ri ketma-ketlikda qo‘yib berishlari qaysi biri qaysi biridan balandroq ekanini aytishlari kerak bo‘ladi.

“JO‘JANI TOPAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning sonlar haqidagi tasavvurlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga shunday deydi:

Bolajonlar tovuq kelayotganida yo‘lda bo‘rini ko‘rinib qolibdi. Ana shunda tovuqning yonidagi jo‘jachalar qo‘rqib qochib ketishibdi. Hozir xonadan o‘sha qochgan jo‘jalarni topamiz va ularning sonini sanab onasi yoniga olib borib qo‘yamiz. Bolajonlar, rozimisizlar?

Bolalar va tarbiyachi jo‘jalarni topadilar va uni sonini aniqlaydilar.

“QAYSI UZUNROQ?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning uzunlik haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga fil, quyon, ayiq, maymunning suratlarini ko‘rsatadi. Bolalar esa qaysi hayvonning rangi qanaqa va uning dumi qaysi hayvonnikiga nisbatan uzun yoki kaltaligini topishlari kerak.

“BUVIMNIKIGA MEHMONGA BORAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning sonlar haqidagi tasavvurlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga 6 ta savat ko‘rsatadi. Ularga olma, apelsin, mandarin, nok, banan va non solingan. Buvimiznikida biz borgandan keyin odamlar soni 10 nafarga yetadi. Shuning uchun ham savatdagi narsalar sonini har birini 10 taga yetkazishimiz kerak. Bolajonlar, sizlar savatlardani narsalar sonini aniqlang va qaysi savatga nechta meva yetmayotganini bilib o‘shani soni 10 ga yetgunicha to‘ldirishingiz kerak bo‘ladi.

“BALIQ TUTAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning sonlar haqidagi tasavvurlarini boyitish, ularda ijodkorlikni rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Bolalarga hayvonot bog‘idagi hayvonlarni ovqatlantirish bugun bizning navbatimiz ekan, shuning uchun ham ularga baliq tutib berishimiz kerak deyiladi. Bolalar delfinga 10 dona baliq, oq ayiqqa 8 dona ayiq tutish kerak. Baliqlar soni bundan ko‘p ham, kam ham bo‘lmasligi kerakligi aytiladi. Ana shunda bolalar qarmoq bilan baliqni tutadilar va bu ayiqqa yoki delfinga ekanligini aytishlari kerak.

“ARIGA YORDAM BERAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning fazoda mo‘ljal olish bo‘yicha o‘rganganlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Stol ustiga uchta uycha qo‘yiladi. Xonaga ari uchib kiradi va o‘z uyiga yetib olish uchun yo‘lni bilmayotganligini, bolalar unga yordam berishlari kerakligini so‘raydi. Bolalar esa unga o‘ng tomonga uch, chap tomonga uch, to‘g‘riga uch kabi so‘zlar bilan uyini topishga ko‘maklashadilar.

“KICHIKDAN KATTAGA QARAB JOYLASHTIR” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning shakllar haqidagi tasavvurlarini boyitish, ularni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Har bir bolaga kichkinagina xaltachada turli kattalikdagi o‘yinchoqlar beriladi. Bolalar ma’ulm vaqt davomida ana o‘sha o‘yinchoqlarni kichikdan kattaga qarab stol ustiga joylashtirib chiqishlari kerak bo‘ladi.

“BO‘G‘IRSOQ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning shakl, rang, sonlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga shunday deydi:

Bizning guruhga bugun “Bo‘g‘irsoq” ertagi qahramonlari mehmonga kelishibdi. Mana bu nima? (Bo‘g‘irsoqning rasmini ko‘rsatadi). Bo‘g‘irsoqning shakli nimaga o‘xsharkan? Bo‘g‘irsoq nechta ekan? Bo‘g‘irsoq yo‘lda kelayotganida ajoyib kamalakni ko‘ribdi. Mana kamalakning surati. Unda nechta rang tasvirlangan ekan? Qanaqa ranglar tasvirlangan ekan? Bo‘g‘irsoq yo‘lda kelayotib pomidor yegisi kelib qolibdi va polizdan pomidorlar uzib olibdi. U yegan pomidor soni mana bu suratda ko‘rsatilgan. U nechta pomidor yebdi? Keyin esa uning daraxtda o‘tib yotgan olmalardan uzib yegisi kelib qolibdi. Mana bu esa u yegan olmalarning surati. U nechta olma yebdi?

“NIMAGA O‘XSHAYDI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning geometrik shakllar haqidagi tasavvurlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga bitta surat ko‘rsatadi. Suratda bulut, archa, quyosh, uylar, daraxtlar tasvirlangan bo‘ladi. Bolalar suratga qarab, quyosh doiraga, bulut ovalga, archa uchburchakka, uylar to‘rtburchakka o‘xshashini aytishlari kerak.

“TIKUVCHIGA YORDAMLASHAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning sonlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga bugun tikuvchi opaning ishi ko‘pligi uchun biz unga yordam beramiz deydi va kichkina qo‘g‘irchoqlar kiyimchalarini tarqatadi. Bolalar tugmalar joyiga qarab mosini ajratishlari kerak bo‘ladi.

“BITTA KO‘PINI TOP” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning sonlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Bolalarga mevalarning surati tushirilgan kartochkalar tarqatiladi. Pedagog hamma o‘zida bor kartochkada tasvirlangan meva sonidan bitta ko‘pini topishi kerakligini aytadi. Bolalar beshta meva tasvirlangan bo‘lsa oltita meva tasvirlanganini, oltita meva tasvirlangan bo‘lsa yettita meva tasvirlangan suratni topib ko‘rsatadilar.

“NIMA O‘ZGARDI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning geometrik shakllar haqidagi bilimlarini mustahkamlash, ularning xotirasini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga qog‘ozga oldindan tayyorlangan geometrik shakllarni ko‘rsatadi. Bolalarga bu rasmni eslab qolish tayinlanadi. Keyingi suratda tarbiyachi bitta geometrik shakl tushirib qoldirilgan variantda ko‘rsatadi. Bolalar yo‘qolgan geometrik shaklning nimaligini aytishlari kerak.

“KUNNING QAYSI QISMI?” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning sutka haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga kunning turli vaqtlariga doir suratlar

ko'rsatadi. Misol uchun, nonushta, ertalabki badantarbiya, kechki ovqat, kechki sayr kabi. Bolalar esa ushbu suratdagi holat kunning qaysi qismida sodir bo'layotganligini aytishlari kerak.

“KIM YO‘QOLIB QOLDI?” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning sonlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: 10 nafar bola qator qilib turgiziladi. Qolganlar ularga diqqat bilan qarashlari va eslab qolishlari so‘raladi. Bolalar ularga qarab turadilar. Keyin esa kuzatuvchilar ko‘zlarini yumadilar va qatordagi bolalardan biri qatordan chiqib berkinib oladi. Guruhdagilar qaysi raqamdagi bola yo‘qolib qolganligini aniqlashlari kerak bo‘ladi.

“JONLI SONLAR” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning raqamlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: 1 dan 10 gacha bo‘lgan sonlar joylarini almashtirib turadilar. Pedagog esa sonlar bu safar o‘z o‘rnilarini adashtirib qo‘yibdilar. Keling, ularga o‘z o‘rnilarini egallashlariga yordam beramiz deb aytadi. Bolalar sonlarni o‘z o‘rniga qo‘yishlari kerak. Buning uchun raqamlarga sen oldinga tur, sen keyinga o‘t deb aytish mumkin.

“NECHTA QADAM?” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning xotirasi va tasavvurini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalardan xonada turgan ayrim narsalargacha necha qadam yurib borish mumkin deb so‘raydi. Bolalar shkafgacha sen turgan joydan necha qadam, shkafdan yana oldingi joyingga qaytishga necha qadam? Eshikdan birinchi stol yonigacha necha qadam? Bolalarning javoblarini yurib ko‘rib sinab

ko‘riladi va kim to‘g‘ri chamalagan bo‘lsa ana o‘sha bola g‘olib deb topiladi.

“ESLAB QOL VA QAYTAR” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning geometrik shakllar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga 3 ta geometrik shaklni ko‘rsatadi. Ularning rangi va shakli qandayligini so‘raydi. Bolalar esa o‘sha geometrik shaklni xuddi pedagog ko‘rsatgan tartibda qayta ko‘rsatib berishlari kerak.

“BU QACHON SODIR BO‘LADI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning fasllar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga turli fasllarga oid suratlarni ko‘rsatadi. Bolalar esa 4 faslga oid suratlarni aynan qaysi faslga tegishliligini aytib berishlari kerak.

“DIQQAT BILAN QARA” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning qo‘shish haqidagi bilimlarini oshirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga qo‘lga sig‘adigan narsalar no‘xot, mosh, guruchlarni ko‘rsatadi. Ulardan masalan no‘xotdan bitta qo‘lga to‘rtta oladi, ikkinchi qo‘lga uchta oladi va ularning ikkalasini qo‘shsa umumiy soni nechta bo‘lishini so‘raydi. Bolalar bir nechta misollarga javob beradilar.

“JONLI HAFTA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning hafta kunlari haqidagi bilimlarini oshirish.

O‘yin jarayoni: Bolalar qator bo‘lib turib oladilar. Pedagog ularni hafta kunlari

nomi bilan nomlab chiqadi. Keyin esa tarbiyachi shunday savollar berishi mumkin:

Bugun qaysi kun? Oldinga ikki qadam chiqsin.

Seshanba va payshanba kunining o'rtasida qaysi kun bor? Oldinga uch qadam yursin.

Jumadan keyingi kun qani? U safda turib ikkala qo'lini tepaga ko'tarsin.

Payshanbadan keyingi kun qani? U safdan uch qadam oldinga yursin.

“MALIKANI QUTQARAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning fazoda mo'ljal olish bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash.

O'yin jarayoni: Pedagog bolalarga shunday deydi:

Yaqinda bir malikani saroydan yomon niyatli kishilar o'g'irlab ketishibdi. Malikani yashirishgan joyning manzilin aniq ekan. Faqat unga borish uchun aynan ko'rsatmadagidek yurish talab etilarkan. Bolalar malikani qutqarish uchun ko'rsatmadek yurishga rozimisizlar? Bolalar “ha” deb javob bergach, pedagog ko'rsatmani o'qib turadi, bolalar esa topshiriqni bajaradilar:

Birinchi saf bo'lib eshikdan chiqasizlar. Qayta saflanib yana eshikdan mayda qadamlar bilan xonaga kirasizlar. O'ng tomonga olti qadam, chap tomonga sakkiz qadam, to'g'riga o'n qadam yurasizlar yana o'ngga burilasizlar. Malika aynan shu joy yaqinida. Bolalar tarbiyachi aytganidek yuradilar va o'sha joyda malika paydo bo'ladi.

“NECHTALIGINI HISOBLA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning sonlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O'yin jarayoni: Pedagog bolalarga quyidagicha savollar beradi:

Ikkita ayiqning ko'zi nechta bo'ladi?

Otning oyoqlari nechta?

Uchta baliqning nechta ko'zi bor?

Ikkita mushukchaning nechta dumi borligini ayting.

“GUGURT DONALARIDAN YASA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish, ularning tasavvurlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga shunday topshiriqlar beradi:

7 ta gurut donasidan ikkita geometrik figura yasang.

Gugurt donalaridan soat raqamlarini yasang.

Gugurt donalaridan uycha quring. Endi esa ushbu uychani qurishga nechta gugurt donasi ketganligini hisoblang.

Gugurt cho‘pidan kemacha qur. Bunga nechta gugurt cho‘pi kerak bo‘lganini hisobla.

“SAYOHAT” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning o‘ng, chap, oldinga, orqaga degan tushunchalarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog xonaning poliga turli yo‘naltiruvchi belgilar bilan oldinga, orqaga, o‘ngga, chapga belgilarini chizib chiqadi. Bolalar esa aynan shu ko‘rsatkichlar yordamida yuradilar.

“BU QAYSI SHAKL?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning geometrik shakllar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga geometrik shakllar haqida ta’riflar aytadi. Bolalar esa uning so‘zlaridan qaysi shaklni ta’riflayotganini topishlari kerak. Misol uchun, uning uchta burchagi bor, archaga o‘xshaydi deydi. Bolalar uchburchak deb javob beradilar.

“RAQAMLAR” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning raqamlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga shunday savollar beradi:

Bu raqam beshdan katta, lekin yettidan kichik.

Bu raqam o‘n bilan sakkizning o‘rtasida.

Bu raqam to‘rt dan keyin keladi.

“O‘RMON KULBASI” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini kuchaytirish, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga shunday deydi:

Kulbada hayvonlar yashagan. Men ularni tanishtiraman sizlar esam umumiy hayvonlar sonini topishingiz kerak.

Uzun quloqli ikkita quyoncha, tikanli tipratikan, baquvvat ayiq, kulrang bo‘ri. Xo‘sh, kulbada nechta hayvon yashagan ekan?

“FOTOGRAFNING YONIDA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning mantiqiy fikrlash va tasavvur qila olish qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga shunday deydi:

Oila bir bo‘lib suratga tushish uchun fotosalonga kelishdi. Suratchi ularni shunday tartibda joylashtirdi:

Bobo va buvi stulda o‘rtada o‘tiribdilar, ularning orqa tomonida ota-ona va ota-onaning yonida ikkita nabira. Oilada nechta a‘zo borligini ayting.

“ADASHMA” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilar xotirasini, mayda qo‘l motorikasini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi va bolalar doira shaklida o‘tirib olishadi. Tarbiyachi bolalardan 1 dan 5 gacha bo‘lgan sonlarni sanashini so‘raydi. O‘yin shartiga ko‘ra, bolalar qo‘llarini tepaga ko‘targan holda tarbiyachi aytgan sonlarni barmoqlari yordamida ko‘rsatadilar. Tarbiyachi sonlarni ketma-ketlikda emas, aralash qilib aytadi. Masalan: 1, 4, 2, 5, 3, 5, 2, 4, 1 kabi. O‘yinda kim adashib aytilgan sonni emas, boshqasini ko‘rsatsa o‘yinni tark etadi.

“BESHGACHA SANA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarga sonlarni qiziqarli usullarda o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Bolalarga biror sabzavotning nomi aytiladi. Ularga ushbu mahsulotni beshtagacha sanash taklif etiladi. Bitta bodring, ikkita bodring, uchta bodring, to‘rtta bodring, beshta bodring kabi.

“NIMA QAYERDA?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarga oldinda, orqada, o‘ngda, chapda, tepada, pastda, o‘rtada degan so‘zlarning ma‘nosini misollar orqali tushuntirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi o‘yinchoqlarni xonaning turli joylariga qo‘yib chiqadi. Keyin esa bolalardan qaysi o‘yinchoq qayerda turganligini so‘raydi. Masalan, ayiqpolvon qaysi tomonda, qo‘g‘irchoq tepadami yoki pastda, mashina o‘ngdami yoki chapda kabi savollarni beradi. Tarbiyalanuvchilar o‘yinchoqlarni topish asnosida ularning qayerga qo‘yilganini ham aytib beradi. O‘yin guruhdagi hamma bolalar o‘yinchoqlarni topib, ularning qayerdaligini aytgunicha davom etadi.

“KO‘PMI, KAM?” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarga “ko‘p”, “kam”, “bitta”, “ko‘proq” kabi so‘zlarining ma‘nosini misollar orqali tushuntirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalardan xonada nima ko‘p, nima kamligini so‘raydi. Misol uchun: stullar ko‘p, stol bitta. Kitoblar ko‘p, doska bitta kabi so‘zlar bilan bola xonadagi narsalarni bir-biriga solishtiradi.

“RAQAMNI TOP” O‘YINI

Maqsad: Bolalarga birinchi o‘ntalik raqamlarni o‘yin yordamida o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: O‘yin qiziqarli bo‘lishi uchun bolalar ikki guruhga bo‘linadi. Qaysi guruh ishtirokchilari ko‘proq to‘g‘ri javob aytsa, o‘sha guruh g‘olib sanaladi. Savollar esa quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi: Qaysi raqam uchdan katta, beshdan kichik? Qaysi raqam uchdan kichik ammo birdan katta? Yettidan katta, to‘qqizdan kichik raqam qaysi? Yettidan kichik, beshdan katta raqam qanday ataladi?

“OLMAXONGA YONG‘OQ, QUYONGA SABZI” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda sanash ko‘nikmasini shakllantirish, o‘yin orqali ularni matematikaga qiziqtirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi o‘nta olmaxon va o‘nta quyon o‘yinchog‘ini stol ustiga qo‘yadi. Ularning yoniga beshta sabzi, yettita yong‘oq qo‘yadi. O‘yin shartiga ko‘ra, bolalar har bir olmaxon soniga yarasha yong‘oq va quyon soniga yarasha sabzi ajratishlari kerak.

“ADASHMA” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilar xotirasini, mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi va bolalar doira shaklida o‘tirib olishadi. Tarbiyachi bolalardan 1 dan 5 gacha bo‘lgan sonlarni sanashini so‘raydi. O‘yin shartiga ko‘ra, bolalar qo‘llarini tepaga ko‘targan holda tarbiyachi aytgan sonlarni barmoqlari yordamida ko‘rsatadilar. Tarbiyachi sonlarni ketma-ketlikda emas, aralash qilib aytadi. Masalan: 1, 4, 2, 5, 3, 3, 5, 2, 4, 1 kabi. O‘yinda kim adashib aytilgan sonni emas, boshqasini ko‘rsatsa, o‘yinni tark etadi.

“NIMA O‘ZGARDI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarga geometrik shakllar haqida tushuncha berish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi doskaga aylana, oval, uchburchak, to‘rtburchak shakllarini yopishtirib qo‘yadi. Bolajonlardan biri unga qaraydi, so‘ng ko‘zini qo‘llari bilan yopadi. Tarbiyachi shakllardan birini doskadan olib, qolganlarining joyini almashtirib qo‘yadi. Tarbiyalanuvchi aynan qaysi shakl yo‘qolganini topishi kerak bo‘ladi. Bu o‘yinni sonlar misolida ham olib borish mumkin. Masalan, tarbiyachi doskaga birdan o‘ngacha bo‘lgan raqamlarni tartib bilan joylashtiradi. Bolalar unga qarab sanab berishgach, tarbiyachi raqamlardan birini olib qo‘yadi. Bolalar qaysi raqam yo‘qolganini aytib berishlari shart.

“TESKARI SANA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda sanash qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar doira shaklida turib oladilar va ular o‘ndan boshlab teskari sanaydilar. Birinchi bola o‘n degach to‘qqiz degan bolaga qarab ko‘ptok uloqtiriladi. So‘ng sakkiz deganiga yana uloqtiriladi. O‘yin shu tariqa davom etadi.

“GUL RANGINI TOP” O‘YINI

Maqsad: Gul nomlari va ranglarini o‘rgatish, diqqatni va vizual xotirani rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi avval doskaga turli gullar kartochkalarini qo‘yadi va ularning nomi va rangini aytadi. Shundan so‘ng har bir bola savatchada orqa tarafi bilan qo‘yilgan kartochkalardan bittadan olib, joyiga o‘tiradi. Keyin har bir bola kartochkadagi gullar rangi va nomini aytadi. (Aniq javobi mavjud bo‘lmagan bolalarga yordam beriladi: kimning guli sariq rangda?, kimda lola guli tasvirlangan?).

“DENGIZDAGI XAZINA” O‘YINI

Maqsad: Suvning xususiyatlarini o‘rgatish, e‘tiborni rivojlantirish, harakatlarni muvofiqlashtirish.

O‘yin jarayoni: Ikkita idishga iliq va sovuq suv solinadi. Iliq suvga turli toshlar solinadi, sovuq suvga turli geometrik shakllar solinadi. Bolalar navbati bilan ikkala idishdagi “xazinalarni” olib, alohida savatchalarga solishadi. Har bir bola qaysi suvdan nima topganini aytadi.

“AKVARIUMDAGI BALIQLAR” O‘YINI

Maqsad: Bolalarga baliqlar suv jonivori ekanligini tushuntirish, fazoda mo‘ljal olish ko‘nikmalarini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Doskaga fetrli plakat yopishtiriladi (akvarium) va har bir bolaga turli hajmdagi, rangdagi baliqlar tarqatib chiqiladi. Tarbiyachi har bir bolaga individual topshiriq beradi. Masalan, Nigoraning balig‘i pastga qarab suzayapti. Bola shunga muvofiq harakat bajaradi. Ayni harakat bajarish paytida balig‘ining rangi qandayligi, katta yoki kichikligini aytadi.

“RANG-BARANG TO‘TIQUSH” O‘YINI

Maqsad: Bolalar ranglarni ajratadi, shakllarni farqlaydi, mo‘ljal olish malakalari shakllanadi.

O‘yin jarayoni: Har bir bolaga to‘tiqush tasviri tushirilgan trafaret tarqatiladi. Savatchaga to‘tiqushning mos shakllariga yopishtirish uchun rangli qog‘ozdan kesilgan figuralar solinadi. Bolalar o‘zlaridagi trafaretga kerakli shaklni topib yopishtirishadi. Ishning yakunida hosil bo‘lgan to‘tiqushining ranglarini aytib beradi. (Shakllar turli rangda beriladi, shunda har bir bolada turli rangdagi to‘tiqush hosil bo‘ladi).

“BIR XIL BARGNI TOP” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni tanish daraxtlarning barglarini ajratish va nomlashga o‘rgatish. Bolalarning nutqini daraxtlarning nomlari bilan boyitish.

O‘yin jarayoni: Stol atrofiga 2-5 nafar bola guruh bo‘lib o‘tiradi. Har bir bolaga uch xil daraxt bargidan (rangli qog‘ozlardan kesilgan) iborat barglar to‘plami beriladi.

Tarbiyachida ham shunday barglar bo‘ladi va u o‘zidagi bitta bargni olib, uning qanday nomlanishini aytadi va bolalardan xuddi shunday bargni o‘z to‘plamidan topishni so‘raydi. Bolalar tarbiyachi ko‘rsatgan bargni topadi va nomini aytadi.

“MAZASIDAN TOP” O‘YINI

Maqsad: Mevalarning ta‘mini, shaklini va xususiyatlarini taxmin qilishga o‘rgatish. O‘yin bolalarning ta‘mni his qilishi, xotirasini rivojlantiradi.

O‘yin jarayoni: Bolalarga turli xil mevalar va ularning qanday, qayerda o‘ssishi, shakli va mazasi slayd yordamida ko‘rsatiladi. Keyin har bir mevedan kichik-kichik bo‘laklarga kesib, tarelkalarga qo‘yiladi va bolalar tatib ko‘rib, bu mevaning nomi,

mazasi, shakli, qayerda o'sishini aytishi kerak.

“UNDAN NIMA TAYYORLANADI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda kognitiv qiziqish, fikrlash, vizual e'tiborni rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Bolalarga tarbiyachi turli xil predmetlar va mahsulotlar rasmini ko'rsatadi, bolalar ular ichidan undan tayyorlanganlarini topib, nomini aytadi. Quyidagilarning rasmi yoki ekranda elektron shakli ko'rsatilishi mumkin:

Bulochka

Palov

Patir

Kompot

Pechenye

Chak-chak

Shirguruch.

“NIMA PAXTADAN TAYYORLANGAN?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarga paxta, uning ko'rinishi, yetishtirilishi va undan nimalar tayyorlanishi haqida tushuncha berish.

O‘yin jarayoni: Bolalarga AKT vositasida paxtakorlar mehnati va paxtani yetishtirish jarayoni ko'rsatiladi. Shundan so'ng tarbiyachi oq, momiq paxtani har bir bolaning qo'liga berib, unda chigit borligini tushuntiradi va undan nimalar tayyorlanishini ekranda ko'rsatadi. Keyin quyidagi predmetlar ko'rsatiladi va bolalar paxtadan tayyorlangan mahsulot ko'rsatilganida chapak chalishadi.

Xo'jalik sovuni

Ruchka

Qog'oz

Qoshiq

“TRANSPORTLAR OLAMI” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning turli xil transport turlarini (havo, quruqlik va suvdagi) ajratish, nomlash, tasniflash qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: O‘yin uchun turli transport vositalari: avtomashinalar, traktor, velosiped, kema, qayiq, samolyot, mototsikl, raketa, vertolyot, yelkan va hokazo rasmlar to‘plami bolalarga beriladi. Doskaga, osmon, dengiz va yo‘l surati qo‘yiladi. Har bir bola o‘zidagi to‘plamdan transportlarni ajratib, qaysi qayerda yurishini aniqlab, o‘z o‘rniga qo‘yadi va nomini aytadi.

“QURUQ QUM, NAM QUM” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni quruq va nam qumning xususiyatlari bilan tanishtirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarni ikki guruhga ajratadi. 1-guruh bolalari qumni voronkadan, elakdan o‘tkazadi (oson o‘tadi). Turli qoliplarga solib, qumni ag‘daradi (sochilib ketadi).

2-guruh bolalari chelakchadagi suvni qumga sepadi va aralashtiradi. Keyin nam qumni voronkadan, elakdan o‘tkazish aytiladi (silliq tushmaydi). Turli qoliplarga soladi (har xil shakllar hosil bo‘ladi). Bolalarning e‘tibori quruq va nam qumning xususiyatlari va farqlariga qaratiladi.

“XAVFLI BUYUMLARNI AJRAT” O‘YINI

Maqsad: Bolalar xavfli va xavfsiz buyumlarni ajratishni o‘rganadi. Ular nima uchun xavfli ekanligini tushunadi.

O‘yin jarayoni: Bolalarga hayotga xavf soluvchi predmetlar, ularni ishlatish natijasida sodir bo‘ladigan vaziyatlar AKT vositasida ko‘rsatiladi. Yoki xavfli vositalar aks ettirilgan kartochkalar ko‘rib chiqish uchun tarqatiladi.

Shundan so‘ng tarbiyachi quyidagi predmetlarni ko‘rsatadi va bolalar ularni

ishlatish natijasida nima sodir bo'lishini aytadi:

Gugurt, qaychi, pichoq, koptok, mashina, tugmacha, legolar, idish-tovoqlar, munchoqlar.

Bolalar quyon haqida, rangi, yungi, tana qismlari, dumi, to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi. Hayvonlarga bo'lgan qiziqishlarini va mehr - muhabbati oshadi.

“QUYONCHANI OVQATLANTIRAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda tabiatga qiziqishni, hissiy sezgirlikni rivojlantirish. Izchil nutqini rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish va faollashtirish; bolalarga hayvonlar va ularning ozuqalarini bilish va nomlashni o‘rgatish; mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Stolga hayvonlarning fotosuratlari va ular uchun oziq-ovqatlar rasmlari qo‘yiladi.

Tarbiyachi: – Sabzini kimga beramiz?

Bolalar: – Quyonchaga.

Tarbiyachi: – Endi esa mana bu ozuqalar ichidan quyon yeyishi mumkin bo‘lganlarini toping.

Bolalar karam, olma, sabzi, kartoshka rasmlari aks etgan kartochkalarni rasmlar to‘plami ichidan ajratib ko‘rsatadi.

“PIYOZ NIMAGA O‘XSHAYDI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda sabzavotlar haqidagi bilimlarni sodda tarzda shakllantirish. Diqqatini, tahlil qilish malakalarini rivojlantirish. Tasavvur qilish jarayonini faollashtirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga bir bosh piyozni ko‘rsatadi va uning xususiyatlarini, qanday ishlatilishini aytadi.

Tarbiyachi: – Piyozning ko‘rinishi dumaloq va oval shaklida bo‘ladi. Mazasi

xom paytida achchiq va o'ziga xos ta'mga ega, ovqat va salatlarda ishlatiladi. U shamollashda davo. Endi bolajonlar piyozning shakli nimalarga o'xshashini toping.

Bolalar topishadi:

Lampochkaga

Nokka

Qovoqqa

Limonga.

“QUVNOQ ARCHA” O‘YINI

Maqsad: Xotirani va mayda motorikani rivojlantirish. Shakl, hajm haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Guruhga archa qo‘yiladi va unga har bir bola o‘zidagi yopishadigan o‘qinchoqlar to‘plamini yopishtirib chiqadi. Shundan so‘ng tarbiyachi archaning baland-pastligi, o‘yinchoqlarning rangi va shaklini aytirgan holda qiziqarli o‘yin tashkil qiladi.

“QOR YOKI MUZ” O‘YINI

Maqsad: Qish faslining xususiyatlari haqidagi fikrlarni aniqlashtirish, tabiatda sodir bo‘ladigan asosiy o‘zgarishlarni farqlashga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi qish faslining belgilarini, qor va muzning farqlarini AKT orqali tushuntirib beradi. Shundan so‘ng qor va muzga doir tushunchalarni aytadi va bolalar fikrlarning muzga yoki qorga tegishli ekanligini topishadi.

Gaplarga misollar:

Etiklarimiz yurganda g‘irchillaydi... (qor)

Unda mazza qilib uchumiz... (muz)

Undan qorbobo yasaymiz... (qor)

U singanda ovoz chiqadi... (muz)

Uning rangi oq... (qor)

Uning rangi shaffof va qattiq... (muz).

“RANGLI MUZLAR” O‘YINI

Maqsad: Bolalarga muz suvning tabiatdagi qattiq shakli ekanligini tushuntirish va uning rangini o‘zgartirish mumkinligi haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Bir kun avval, mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish jarayonidagi turli qoliplar (har xil shakldagi chuqur idishlar)ga rangli suv solib, maktabgacha ta’lim tashkiloti muzlatkichiga solinadi. Ertasi kuni mashg‘ulot jarayoniga muzlagan idishlar olib kiriladi va ularni qolipidan ko‘chiriladi. Bunda bolalar suyuq shakldagi suvning qanday holatga o‘zgarganini topishi, ranglarini aytishi va qoliplarga moslanganini tushuntirishi kerak. O‘yin oxirida rangli muzlar MTT hovlisiga olib chiqiladi va qor ustiga qo‘yiladi. Bolalar qor ustiga rangli muzlarni qo‘yadi va qor hamda muzning o‘xshashliklari va farqini topishadi.

“IZLARNI TOP-CHI!” O‘YINI

Maqsadi: Ko‘z xotirasini va e’tiborni rivojlantirish. Fikrlashi va o‘rganganlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Bolalar ikkita komandaga bo‘linadi. Har bir komandada 5-6 ta qatnashchidan kam bo‘lmasligi kerak (o‘yinda qancha ko‘p qatnashchi bo‘lsa, shuncha qiziqarli o‘tadi).

Birinchi komandadan har bir qatnashchi qorda o‘z oyoq izini qoldiradi. Ikkinchi komandaga 30 sekund vaqt beriladi, ular oyoq izlarini yodda qoldirishlari kerak, keyin bolalar izlarni o‘chirib tashlaydi. Ikkinchi komanda teskari qarab turishi kerak, bu vaqtda birinchi komandadan bir qatnashchi oyoq izini qoldiradi. Ikkinchi komanda kim qorda oyoq izini qoldirganini aniqlashi kerak. Keyin birinchi komanda joy almashadi, oyoq izlarini endi ular aniqlaydilar.

“KUCHUKCHAGA OVQAT BER” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda hayvonlar va ularning farqlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash. Diqqati va xotirasini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Bolalarga suyak rasmi tushirilgan (suyakda nuqtalar belgilangan bo‘ladi) kartochkalar tarqatiladi. Doskaga xuddi shunday nuqtali xollari bor kuchukchalar rasmi ilinadi. Tarbiyachi bolalarga nuqtalar soniga qarab kuchukchani ovqatlantirishni taklif qiladi. Har bir bola o‘zidagi rasmdagi nuqtalar soniga qarab, qaysi kuchukchaga mos bo‘lsa, o‘shanga yopishtiradi. Tarbiyachi jarayonning to‘g‘ri bajarilayotganini nazorat qiladi.

“QUM: QURUQ YOKI HO‘L?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni quruq va ho‘l qumning xususiyatlari bilan tanishtirish. Qum shaklining o‘zgaruvchanligi haqida tasavvur hosil qilish, qo‘llarning mayda motorli ko‘nikmalarini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Turli xil qoliplarni qumga qo‘yib, ularni bolalarga ko‘rsating, teginishga, rangi va shakli haqida gapirishga taklif qiling. Bu vaqtda siz qoliplarni qumga yashirasiz va boladan yashirin qoliplarni topishni so‘rang. Bola quruq qumdan qoliplarni topadi. Shunda bolalardan qumning quruq yoki ho‘liligini, qoliplarda qanday shakllar hosil bo‘lganligi va bu shakllar nima uchun buzilib ketayotganligi so‘raladi.

O‘yinning ikkinchi qismida idishga ho‘l qum solinadi va qoliplar yordamida turli shakllar hosil qilinadi. Ushbu harakatdan so‘ng ho‘l va quruq qumning farqlari nimada ekanligi so‘raladi.

“KIMGA SUV KERAK?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda suv barcha tirik mavjudotlar (odamlar, hayvonlar, hasharotlar, o‘simliklar, qushlar) uchun zarur ekanligi haqidagi bilimlarni boyitish. Lug‘atiga hayvonlar, o‘simliklar, hasharotlar, qushlar nomlarini kiritish.

O‘yin jarayoni: Bolalarga o‘simliklar, qushlar, hayvonlar, baliqlar, hasharotlar, odamlar va boshqalar tasvirlangan kartochkalar tarqatiladi. Guruh markazidagi doskaga suv rasmi tasvirlangan plakat osiladi. Bolalar qo‘lidagi kartochkalarni suv rasmi tasvirlangan plakatga yopishtirar ekan, qarorini izohlaydi:

Daraxt suvsiz yashay olmaydi.

Baliqlar suvda yashaydigan, ovqatlanadigan jonzotlardir. Quruqlikda baliq yashay olmaydi.

Insonlar uchun suv – hayot manbai.

Hayvonlar suvsiz nobul bo‘ladi.

“SEHRLI QOG‘OZLAR” O‘YINI

Maqsad: Bolalarga har xil turdagi qog‘ozlar bo‘lishini tushuntirish. Qog‘ozning hayotimizdagi o‘rni haqidagi bilimlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga oq qog‘oz, karton, rangli qog‘oz, laminatsiyali yaltiroq qog‘ozlarni ko‘rsatadi. Bolalar ushbu qog‘ozlarni ushlab ko‘rib, ularning farqini aytadi. AKT vositasida qog‘ozdan nimalar tayyorlanishi va undan qanday foydalanish bo‘yicha videomaterial namoyish etiladi. Shundan so‘ng tarbiyachi predmetlar rasmini ko‘rsatadi va bolalar buning uchun qanday qog‘ozdan foydalanishini topadi.

Konfet (laminatsiyali yaltiroq qog‘oz).

Shirinlik qutisi (karton qog‘oz).

Archa o‘yinchog‘i (rangli qog‘oz).

Xat (oq qog‘oz).

“QAYSI HASHAROT NIMA YEYDI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda hasharotlarni tasniflash va nomlash qobiliyatini mustahkamlash. Ularning lug‘atida hasharot nomlarini paydo qilish. Hasharotlarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish.

O‘yin jarayoni: Bolalar aylana turishadi, bir bola bir hasharot nomini aytib, qarama-qarshisidagi bolaga otadi. U esa aytilgan hasharot nima bilan oziqlanishini aytadi.

Chigirtka - o‘t

Asalari - nektar

Qo‘ng‘iz - barglar

Ninachi - boshqa hasharotlar

Kapalak - gullar

Burga - qon

Ipak qurti - barg.

“MEHRIBON QUYOSH” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning atrof olamdagi voqea hodisalarning turli tumanligi to‘g‘risidagi bilimlarini mustahkamlash. Guruh bo‘lib o‘ynash qobiliyatlarini takomillashtirish.

O‘yin jarayoni: O‘yinda 2 ta guruh ishtirok etadi. Har bir guruhda 5 tadan bola. Qur‘a tashlash yo‘li bilan qaysi guruh o‘yinni boshlashi aniqlab olinadi. Boshlovchi ishtirokchilarga mavzuga ta‘lluqli savollar beradi:

Apelsindan apelsin sharbati tayyorlanadi, pomidordan-chi? (Tomat).

Uchta baliq turini sanab ber (Laqqa, sazan, cho‘rtan).

Asalarining uyasi qaysi geometrik shaklga o‘xshaydi (Oltiburchak).

Limon, apelsin va mandarinni bir so‘z bilan izohla (Sitrus).

Qaysi o‘simlikdan tola tayyorlanadi? (Paxta).

Daraxtdan past, o‘tdan baland o‘simlik (Buta).
Manzarali daraxtlar o‘sadigan joy (O‘rmon).
Odamning ismiga o‘xshash qushning nomi (Mayna).
Faqat mevali daraxtlar o‘sadigan joy (Bog‘).
Osmonda uchadigan eng katta qush (Burgut).

“G‘AROYIB DUNYO” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda jonli va jonsiz tabiat haqidagi tasavvurlarni shakllantirish. Atrof-olam haqidagi bilimlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Guruh ikkiga bo‘linadi. Boshlovchi ishtirokchilarga mavzuga ta’lluqli savollar beradi:

Suvda harakatlanish uchun insonlar qanday moslamalardan foydalanadilar?
(Sol, qayiq, kater, kema)

Hamma tomondan suv bilan o‘ralgan quruqlik qanday ataladi? (Orol).

Tog‘da-balandlik, dengizda ... (Chuqurlik).

Daryo qachon o‘zanidan chiqadi? (Bahorda).

Globusda daryo, dengiz, okeanlar qanday rangda tasvirlangan? (Ko‘k).

Dengiz yoki daryo bo‘yi nima deb aytiladi? (Qirg‘oq).

“SIRLI TABIAT” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning fan va tabiat markazida o‘rgangan bilimlarini umumlash-tirish. Tahlil qilish qobiliyati va xotirasini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Guruh ikkiga bo‘linadi va quyidagi savollar ketma-ketlikda beriladi:

Nimadan idish yasash mumkin? (Loydan)

Tuproqda havo bormi? Buni qanday isbotlash mumkin? (Tuproq solingan idish-

ga suv solinsa-idishning yuqorisiga havo pufakchalari chiqadi)

Nima balandroq: tepalikmi yoki tog‘? (Tog‘)

Quruq qum yoki toshlardan iborat, o‘simliklari deyarli yo‘q joy qanday ataladi?
(Cho‘l)

Nima suvni yaxshi o‘tkazadi: loymi yoki qum? (Qum)

Baland tog‘larga ko‘tariladigan insonlar qanday ataladi? (Alpinistlar)

“QAYSI BIRI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda ona sayyoramiz haqidagi bilimlarni mustahkamlash va dunyoqarashini kengaytirish. Lug‘atiga jonli va jonsiz tabiat to‘g‘risidagi so‘zlarni kiritish.

O‘yin jarayoni: Guruh bolalari ikkiga bo‘linadi. Qaysi guruhda bola xato qil-
sa, o‘yindan chiqadi. O‘yin oxirida bolalar soni ko‘p bo‘lgan guruh g‘olib bo‘ladi.

Savollar:

Nima katta: Quyoshmi yoki Oy? (Quyosh)

Quyosh sayyorami yoki yulduz? (Yulduz)

Sayyora va yulduzlarni o‘rganishda olimlarga qanday jihoz yordam beradi? (Te-
leskop)

Biz yashayotgan sayyora qanday ataladi? (Er)

Qaysi sayyora har doim gardish bilan izohlanadi? (Saturn)

Kosmosga nimada uchiladi? (Raketa)

Quyosh yer atrofida aylanadimi yoki yer quyoshning atrofidami? (Yer quyosh-
ning atrofida)

Yer quyoshning atrofida aylanganligi oqibatida yerda nima sodir bo‘ladi? (Yil
fasllarning almashinishi)

Bahor faslidan keyin qaysi fasl keladi? (Yoz)

Bir yilda necha oy bor? (12 oy)

“VIKTORINA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning bilimlarini takrorlash jarayonida intellektual kompetent-siyasini shakllantirish. Atrof-olam haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Bolalar ikki guruhga bo‘linadi va quyidagi savollarga javob so‘raladi.

Havo haroratini o‘lchaydigan asbob qanday nomlanadi? (Termometr)

Agar qaldirg‘ochlar past uchsa ob-havo qanaqa bo‘ladi? (Yomg‘ir yog‘adi)

Osmondan tushayotgan muz parchalari nima deyiladi? (Do‘l)

Qor, qor parchalari ko‘rinishida yog‘adi, yomg‘ir-chi? (Tomchilar)

Yomg‘ir, do‘l, qorni bir so‘z bilan izohlang (Yog‘ingarchilik)

Yilning qaysi faslida ko‘pgina daraxtlar gullaydi? (Bahorda)

Faqat qishda uy tomlarida bo‘ladigan muz parchalari (Sumalak)

Qattiq shamol bilan qor yog‘ishi (Qor bo‘roni)

Yomg‘irdan keyin nima chiqadi? (Kamalak)

“AJOYIBOTLAR OLAMI” O‘YINI

Maqsad: Xotira va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish. Bilim doirasini kengay-tirish. So‘z boyligini faollashtirish. Tengdoshlariga nisbatan xayrixohlik, sherik va qarshi tomonga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash.

O‘yin jarayoni: “Ajoyibotlar olami” o‘yinida quyidagi topishmoqlar beriladi:

Nima mo‘ylovi bilan tug‘iladi? (Mushuk)

Qishda uxlaydi, yozda arining inini to‘zg‘itadi (Ayiq).

Kichkinagina oyoqchali, mushukdan qo‘rqadi (Sichqon).

Tikmaydi, to‘qimaydi lekin odamlarni kiyintiradi (Qo‘y, qo‘zilar).

Uy shipida, burchakda osiq elak, qo‘l bilan yasalmagan (O‘rgimchak to‘ri).

Beli xipcha qora ot, tog‘ga chiqsa tolmaydi, toshqin bo‘lsa botmaydi

(Chumoli).

U qora qarg'a emas, ho'kiz emas lekin shohdor, oltita oyog'i bor, oyoqlari tuyoqsiz (Qo'ng'iz).

Oynali qirg'oqchada baliqchilar ko'rinmas (Akvarium).

“ZAKOVAT” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda tabiat hodisalari va jonivorlar haqidagi bilimlarni mustahkamlash, faol nutqida bilimlarini tasvirlashga o'rgatish.

O'yin jarayoni: Bolalar guruhga bo'lingan holda jamoa bo'lib o'tirishadi va ularga quyidagi savollar beriladi.

Kamida ikkita ninali hayvonning nomini aytib ber (Tipratikan, suv tipratikani).

Qishda uyquga ketadigan hayvonlarning nomini ayt (Ayi, tipratikan, bo'rsiq).

Sirkda tomosha ko'rsatadigan sher yovvoyi hayvonmi yoki uy hayvonimi? (Yovvoyi).

Parrandalardan suvda suza oladiganlarining nomini ayt (O'rdak, g'oz).

Ucha olmaydigan qushlarning nomini aytib ber (Pingvin, tuyaqush).

Terak daraxti boshqa daraxtlardan nimasi bilan farq qiladi (Tanasining rangi va bargining tuzilishi).

Yer tagida o'sadigan sabzavotlarning nomini aytib ber (sabzi, sholg'om, turp, rediska).

Bahorda birinchi bo'lib gullaydigan mevali daraxtning nomini ayting (Bodom).

Oldin barg chiqarib keyin gullaydigan mevali daraxt (Olma).

“BOLASINI TOP” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning hayvonlarning bolalari haqidagi bilimlarini mustahkamlash. Fikrlarini jamlashga va nutqida o'rganganlarini tasvirlashga imkoniyat yaratish.

O‘yin jarayoni: Duskada uy va yovvoyi hayvonlar, ularning bolalari tasvirlangan kartochkalar (suratlar) qo‘yiladi.

Quyidagi savollar beriladi:

O‘rdak, tovuq va g‘ozlarning bolalari qanday ataladi? (o‘rdakchalar, jo‘ja, g‘ozchalar) Ularning tasvirini ko‘rsat.

Qarg‘a, chumchuq va musichaning bolalari qanday ataladi? (Qarg‘aning polaponi, chumchuqning polaponi, musichaning polaponi)

Tuyaning bolasi...(biya).

Mushukning bolasi...(mushukcha).

Sigirning bolasi...(buzoqcha).

Qo‘yning bolasi...(qo‘zichoq).

Echkinning bolasi...(uloqcha).

Kartochkalarda ko‘rsatilgan yovvoyi hayvonlarning bolalarini topib joylashtir va nomlarini aytib ber (Olmaxon-olmaxoncha, bo‘ri-bo‘ri bolasi, ayiq-ayiqcha).

Kartochkalarda ko‘rsatilgan uy hayvonlarining bolalarini topib joylashtir va nomlarini aytib ber (Sigir-buzoq, it-kuchukcha, qo‘y-qo‘zichoq).

Suratlar orasidan insonlarning tabiat bilan to‘g‘ri munosabat tasvirlanganini topib ber (Bolalar daraxtga qush inini joylashtirayotgani, to‘plangan chiqindilarni yig‘ishtirayotgan holatlar).

Suratlar orasidan insonlarning tabiat bilan noto‘g‘ri munosabat tasvirlanganini topib ber (Bolalar daraxtlar yonida olov yoqmoqda, qizcha qo‘lida qushning polaponini ko‘tarib yuribdi).

Suratlar orasidan o‘rmonda yashovchi hayvonlarni topib ularning nomlarini aytib ber.

“QIZIQARLI SAVOL” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning jonli tabiat haqidagi bilimlarini mustahkamlash. Tahlil qilish qobiliyati va vizual xotirasini shakllantirish

O‘yin jarayoni: Guruh ikkiga bo‘linadi va jamoadagilar quyidagi savaollarga javob beradi.

Quyong qishga qanday tayyorlanadi? (Quyongning yungi to‘kilib, ularning rangi o‘zgaradi)

Qushlarni nima bilan oziqlantirish mumkin? (Donlar, pista va urug‘lar bilan)

Qaysi uy hayvonining tuyog‘i bor? (Ot, sigir, echki, qo‘y)

Quyondan tashqari yana qaysi hayvonning quloqlari uzun deyishimiz mumkin? (Eshak)

Qisqichbaqa qayerda qishlaydi? (Daryo va ko‘llarning tubida qumlar orasida)

O‘zbekistonda birinchi bo‘lib qaysi daraxt gullaydi? (Bodom)

Qaysi mevali daraxt oldin barg chiqarib keyin gullaydi? (Olma)

Daraxtdan past o‘tdan baland o‘simliklar qanday ataladi? (Buta o‘simliklari).

“QIZIQARLI MANTIQ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning atrof-alam haqidagi bilimlarini mantiqiy savollar orqali mustahkamlash. Dunyoqarashini shakllantirish orqali chalg‘ituvchi savollarga javob topishga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Guruh ikkiga bo‘linadi va quyidagi mantiqiy savollar beriladi.

Meni hamma bosib ketadi, lekin borgan sari yaxshi bo‘laveraman. Bu nima? (So‘qmoq yo‘l)

Nega xalq tilida ola qarg‘a o‘g‘ri deyiladi? (Chunki u yaltiroq narsalarni iniga olib ketadi)

Yomg‘ir yog‘ayotganda qarg‘a qaysi daraxtga qo‘nadi? (Ho‘l daraxtga)

Qora mushuk qachon uyga osonlikcha kirib oladi? (Eshik ochiq bo‘lganda)

Tuyaqush o‘zini qushman deb ayta oladimi? (Yo‘q, chunki u gapira olmaydi)

O‘rdak nimada suzadi? (Qirg‘oqda)

“NIMA UCHUN?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning bilimlarini mustahkamlash, ekologik kompetentsiyalarini rivojlantirish. Nutqiy faolligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Ishtirokchilar navbat bilan quyidagi savollarga javob berishadi:

Xalq tomonidan aytilgan ob-havoni oldindan bildiruvchi belgilarni aytib ber (Kuchuk aylana bo‘lib yotib olsa havo sovuq bo‘ladi, qurbaqalar qurillasa yomg‘ir yog‘adi).

“It-mushuk bo‘lib yashaydilar” iborasi qanday kishilarga qarata aytiladi? (Har doim bir-biri bilan urishib yuradigan kishilarga)

Qaysidir hayvon haqida ta’kidlangan maqolni eslab ko‘r (Jo‘jani kuzda sanaymiz).

Nima uchun ayrim qushlar qishda issiq o‘lkalarga uchib ketadi? (Chunki ular oziqlanadigan hasharotlar yo‘qolib ketadi)

O‘simliklar haqida bironta topishmoq aytib ber (Oltin qoziq yer ostida, ko‘k arqoni yer ustida).

Nima uchun yo‘lbars yo‘l-yo‘l, jirafa esa xoldor? (Yashirinish uchun. Ular daraxtlar orasida ko‘rinmasliklari uchun)

“BU QACHON BO‘LADI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning mantiqiy fikrlashini rag‘batlantirish, xotirasini mustahkamlash. Tasavvuri va xayolotini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Guruh bolalari doira bo‘lib turishadi. Tarbiyachi bolalarga “Bu qachon bo‘ladi?” deya savol beradi, javob berilmagan bola doiradan chiqadi.

Qor yog‘moqda...(qishda).

Osmonda kamalak...(bahorda).

Sariq, qizil barglar daraxtda...(kuzda).

Qaldirg‘och in qurmoqda...(bahorda).

Bolalar cho‘milmoqda...(yozda).

“UCHINCHISI NIMA?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda bog‘lanishli nutqiy faoliyatni rag‘batlantirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish. Tahlil qilish va fikrlarini bayon etish malakalarini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi ikkita predmetning nomini aytadi, uchinchisini bola topishi lozim.

Moychechak, lola,...(romashka).

Qarg‘a, chumchuq,...(qaldirg‘och).

Tol, qayrag‘och,...(terak).

Quyosh, bulut,...(kamalak).

Gul, barg,...(ildiz).

“BU NIMA?” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning tabiat haqidagi bilimlarini mustahkamlash. Bilimlarini takrorlashga imkon yaratish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi o‘simlik yoki hayvonning nomini aytadi, bola ularning umumiy nomini aytadi.

Chumchuq...(qush).

Ayiq...(hayvon).

Archa...(daraxt).

Olma...(meva).

“BIR SO‘Z BILAN IZOHLA!” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda umumlashtirish va guruhlash malakalarini shakllantirish. Mantiqiy fikrlash va o‘rganaganlarini tasvirlash qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi tabiatdagi jarayonlarni ta’riflaydi, bolalar esa ularni umumlashtirib aytadi.

Yo‘lbars, timsoh, it ...(yirtqichlar).

It, mushuk, sigir ...(uy hayvonlari).

Fikus, begoniya, kaktus ...(xona gullari).

Yer, suv, havo ...(jonsiz tabiat).

“QANDAY OVOZ CHIQARADI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda ijtimoiy-hissiy rivojlanishni rag‘batlantirish. Nutqiy faollikka erishish.

O‘yin jarayoni: Kartochkalarda turli xil hayvon, qushlar rasmi tasvirlangan, ularni ko‘rsatganda nomlarini emas, ularning ovozlari taqlid qilish taklif qilinadi:

It-(vovillaydi).

Mushuk-(miyovlaydi).

Chumchuq-(chirqillaydi).

Qo‘ng‘iz-(g‘izillaydi).

Sigir-(mo‘raydi).

Qurbaqa-(qurillaydi).

Cho‘chqa-(xurillaydi).

Xo‘roz-(ku-ka-re-ku).

Ot-(kishnaydi).

Baliq-(ovoz chiqarmaydi).

“KIM QANDAY HARAKATLANADI?” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarda hayvonlarga g‘amxo‘rlik xislatlarini tarbiyalash. Mantiqiy tafakkuri va xotirasini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarni doira bo‘lib turishga taklif etadi va hayvonlar nomini aytadi. Bolalarning barchasi aytilgan hayvonga mos harakatlarni bajaradi.

Qushlar...(uchadi).

Baliq...(suzadi).

Quyvon...(chopadi).

Chumchuq...(sakraydi).

Inson...(emaklaydi, suzadi, yuradi, chopadi, sakraydi).

“NIMA BILAN OZIQLANADI?”

Maqsad: Bolalarda hayvonot olami haqidagi bilimlarni mustahkamlash. Ularning nima bilan oziqlanishini kuzatishga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi hayvonlar nomlarini aytadi, bolalar esa ularning nima bilan oziqlanishini topadi.

Xo‘roz...(don).

It...(suyak).

Quyvon...(karam).

Sigir...(o‘t).

Jo‘ja...(tuxum sarig‘i).

Mushuk...(sut).

“TABIATNI ASRANG” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda ona tabiatga mehrlilik bo‘lish tuyg‘ularini shakllantirish. Dunyoqarashini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Stolda qog‘ozdan yasalgan 5 qismga bo‘lingan doira va tabiat olami (o‘simliklar, hayvonlar, qushlar, baliqlar, inson) tasvirlangan kartochkalar.

Tarbiyachi bolalardan masalan: “agar o‘simliklar bo‘lmasa qushlar (hayvonlar va h.) bilan nima bo‘ladi?” deya savol beradi. Bolalar esa mantiqiy o‘ylab, savollarga javob beradi. Tarbiyachi agar tabiatda inson yo‘q bo‘lsa, tabiat zanjiri uzilishi mumkinligi, tabiatdagi barcha tirik organizm bir-biri bilan bog‘liq ekanligi, shuning uchun inson tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik bilan muomalada bo‘lishi lozimligi haqida tushuntiriladi.

“ATROFIMIZDAGI OLAM” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda guruhlash malakalarini shakllantirish. O‘rgangan bilimlarini mustahkamlashga imkon yaratish. Xotira va vizual xotirani shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi doskaga rassom aniq tasvirlagan plakatni iladi va bolalardan uni kuzatishni so‘raydi. Shundan so‘ng plakat olinadi va shu suratning aralash shakli bolalarga kartochkalar shaklida beriladi. Bolalar rasmlarni to‘g‘ri joylashtirib chiqishlari lozim.

“QANDAY EDI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda sezgi a‘zolarini faol ishlatishga bo‘lgan rag‘batni uyg‘otish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi predmetning nomini aytadi. Bolalar uning oldingi, hozirgi va bundan keyingi xususiyatlarini sanab beradilar. Masalan: olma.

Hozir - shirin, suvli, qizil va h.k.

Oldin - yashil, nordon, achchiq va h.k.

Bo‘ladi - qurigan, qurtlagan va h.k.

“O‘SIMLIKNI TOP” O‘YINI

Maqsad: O‘simliklar bilan tanishish, ko‘z xotirasini rivojlantirish. O‘yin jarayonida faollik ko‘rsatish malakalarini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Bolalar 3-4 ta bo‘lib komandaga bo‘linadi. Barcha qatnashchilarga 1 daqiqa davomida matoda yoyilgan 10-15 ta o‘simliklar namunalarini ko‘rsatadi. Keyin namunalar usti yopiladi, komandalar esa shu o‘simliklarni atrof-dan topishi kerak. Izlashga ma‘lum vaqt ajratiladi.

O‘yindan keyin tarbiyachi bolalarga izlab topgan o‘simliklari nomlari, ularning o‘ziga xosliklari to‘g‘risida gapirib berish kerak.

“YOSH BIOLOG” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni turli xil hasharotlar bilan tanishtirish, tabiat bilan yagonalik tushunchasini, barcha jonzotlarga mehrni, e‘tiborlilikni rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga lupalarni tarqatadi, har biriga masofasi 10 metrli yo‘lakchani ajratadi. Har bir qatnashchi o‘z so‘qmog‘i bo‘ylab, bukilib va e‘tibor bilan lupaga qarab kuzatib harakatlanadi (emaklab ham yurishi mumkin). Iloji boricha so‘qmoqda uchraydigan barcha mayda hasharotlarni kuzatishi kerak. O‘zlariga belgilangan yo‘lakni kuzatib bo‘lganidan keyin, barcha qatnashchilar doira bo‘lib o‘tiradi. Sayohat natijalarini muhokama qiladilar. Har bir bola yo‘lakchada sayohat qilganda o‘zini qanday his qilganini aytib berishi kerak.

“BU QAYSI HAYVON?” O‘YINI

Maqsad: Turli xil hayvonlar bilan tanishtirish, zehnni rivojlantirish. Ijtimoiy faollikni rag‘batlantirish.

O‘yin jarayoni: Biror bir hayvonning rasmi qatnashchilardan birining orqasiga yopishtiriladi. (Bola uning rasmini ko‘rmasligi kerak!) Endi qolgan qatnashchilarga qarab turishini iltimos qiling. Bolaning vazifasi – qaysi hayvonga “aylanib” qolganini aniqlab olish. Buning uchun u qolgan bolalarga savollar beradi, bolalar esa o‘z navbatida faqat “ha”, “yo‘q”, “balki” deb javob beradilar.

“HAYVONNI TOP” O‘YINI

Maqsad: Turli xil hayvonlar bilan tanishish, zehn va hamjihatlikni rivojlantirish. Mantiqiy tafakkurni shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Har bir komanda vakillari qutidan nomi yozilgan kartochkani oladi (ularning raqiblari kartochkada rasmni ko‘rsatmay olishi kerak!) Ikkinchi komanda noma’lum hayvonning nomini aniqlash uchun birinchi komandaga savollar beradi, ular esa faqat “ha”, “yo‘q”, “balki” deb javob berishlari mumkin. Kam savollar soni va tez hayvon nomini topgan komanda bolalari olqishlanadi.

“EKSKURSIYAGA TAYYORLANYAPMIZ” O‘YINI

Maqsadi: Bolalarni jipslashtirish, guruhda ishlay olishni o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Bolalar aylana bo‘lib o‘tiradi, tarbiyachi qutiga kartochkalarini solib, o‘rtaga qo‘yadi. Aniq bir vaqtda (masalan, 5 daqiqa) bolalar ekskursiya uchun zarur bo‘lgan 10 ta narsani ajratib qo‘yishlari kerak. Keyin bolalar nima uchun ayni shu 10 ta narsani ekskursiyaga olishlarini tushuntirib beradilar.

“FOYDA-ZARAR” O‘YINI

Maqsad: Bolalarga tabiatda foydali ham, zararli ham emas, faqat kerakli narsalar borligini tushuntirish. Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish.

O‘yin jarayoni:

1-bosqich

Bolalar aylanada turishlari kerak.

Tarbiyachi savol beradi: “Asalaridan nima foyda?”

Bolalar o‘rtoqlarining javoblarini takrorlamasdan navbat bilan savolga javob berishlari kerak. Keyin vazifa o‘zgaradi: “Asalaridan qanday zarar bor?”

2-bosqich

Tarbiyachi savol beradi: “Agar tabiatdagi barcha yomon fazilatlar yo‘q bo‘lib ketsa va atrofdagi hamma narsa yaxshi bo‘lib qolsa nima bo‘ladi?”

(Bo‘ri yaxshi bo‘lib qoldi, u quyonlarni iste‘mol qilishni to‘xtatadi, quyonlar shunchalik ko‘p bo‘lib ketadiki, ular daraxtlarning qobiqlarini kemiradi, natijada daraxtlar kamayib ketib, qushlar yashash joyidan mahrum bo‘lishadi...).

O‘yin oxirida tarbiyachi tabiatda ortiqcha narsa yo‘q degan xulosani misollar yordamida tushuntiradi.

“DARAXT VA TARVUZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni sabzavot va mevalarning farqini ajratishga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Bolajonlar, tarvuzni daraxtdan qanday qilib tez uzib olish mumkin? (Bolalar tarvuz daraxtda emas, polizda o‘shishini aytishlari kerak).

“KIM YORDAM BERADI?” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarni hayvonot dunyosi haqidagi bilimlarini oshirish, ularning so‘z boyligini ko‘paytirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi kartondan yasalgan quyonni oladi va uning ko‘ptog‘i suvga tushib ketganini, endi unga kim yordam berishi mumkinligini so‘raydi. Bolalar o‘zlarining taxminlarini aytadilar. Endi tarbiyachi quyonvoyning sahroga kelib qolganini va ketishga qiynalayotganini aytadi. Bolalar quyonvoyga cho‘lda aynan qaysi hayvonlar yordamga kelishini aytib berishlari kerak.

“QAYSI RANGDA?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni mantiqiy fikrlashga, ranglarni to‘g‘ri ajratishga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Yo‘lbars, jirafa va zebra turli rangdagi uylarda yashashadi. Yo‘lbars qizil ham, ko‘k ham uyda yashamaydi. Zebraning uyi esa qizil ham, yashil ham emas. Jirafaning uyi qanday rangdaligini toping.

“YAXSHIMI YOMON?” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarda tabiat va hayvonot olamiga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish tushunchasini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi oldindan tayyorlab qo‘yilgan suratlarni stol ustiga teskari qilib taxlab qo‘yadi. Suratlarda bolalarning atrof-olamga nisbatan qilgan nojo‘ya xatti-harakatlari aks ettirilgan bo‘ladi. Har bir ishtirokchi suratni olib, unda nima tasvirlanganini va bu ish yaxshi yoki yomonligini aytib berishi kerak. Masalan, daraxt shoxini sindirgan yaxshimi yoki yomon? Gullarga suv quygan yaxshimi yoki yomon? Yerga muzqaymoq qog‘ozini tashlagan yaxshimi yoki yomon? Mushukni qiynagan yaxshimi yoki yomon? Kim suratni eng to‘g‘ri va batafsil tasvirlasa, tarbiyachi tomonidan rag‘batlantiriladi.

“EKOLOGIK SVETOFOR” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning ekologik bilimlarini boyitish, ularni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga svetofof chiroqlari rangidagi kartochkalar tarqatadi. Ushbu kartochkalar qizil rangi ta‘qiqilaydi, zangorisi diqqatni jamlashga buyuradi yashili esa tasdiq ma‘nosini bildiradi. Tarbiyachi atrof muhit va tabiatga bog‘liq bir nechta suratlar ko‘rsatadi. Bolalar esa suratning ma‘nosiga qarab qo‘llaridagi rangli kartochkalarni ko‘rsatishlari kerak bo‘ladi. Har bir bola nima uchun shunday rangdagi kartochkani tanlaganini aytib beradi.

Tarbiyachi quyidagicha mazmun ifodalangan suratlarni ko‘rsatishi mumkin:

- Bolakay daraxtni sindirayapti.
- Bolalar ko‘pchilik bir bo‘lib mushukning qulog‘idan tortishayapti.
- Bitta bola dalada gugurt chaqmoqchi.
- Qizcha gullarga suv quymoqchi bo‘layapti.
- Qizcha ko‘chalarni supurayapti.

**“SAN’AT” MARKAZIDA
O‘YNALADIGAN DIDAKTIK
O‘YINLAR**

“O‘ZBEKISTON BAYROG‘I VA GERBINI TOPING” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni O‘zbekiston bayrog‘i va gerbi tasvirini topishga o‘rgatish. Diqqat va xotirani rivojlantirish. Vatanparvarlik, o‘z yurti bilan faxrlanish tuyg‘ularini tarbiyalash.

O‘yin jarayoni: 1. Bolalar stollariga oltita bayroq va oltita gerb va geometrik shakllar tasvirlangan ikkita karta qo‘yiladi. Bolalarni bayroqlar tasvirlangan varaqdan O‘zbekiston bayrog‘ini topishga taklif qiling va uning shakli qaysi figuraga o‘xshashligi so‘raladi (to‘rtburchak). Bolalar oltita davlat bayrog‘i ichidan O‘zbekistonning bayrog‘ini topgach, quyidagi savollar beriladi:

O‘zbekiston bayrog‘i qanday ranglardan iborat?

Yurtimiz bayrog‘idagi qizil rangli chiziq nimani anglatadi?

2. Gerb tasvirlari (6 ta) tushirilgan ikkinchi varaqda O‘zbekiston gerbini topish va unga mos geometrik shaklni tanlash so‘raladi. Bolalar vazifani bajargach, quyidagi savollar beriladi?

O‘zbekiston gerbida nimalar tasvirlangan?

Gerbimizda qanday ranglardan foydalanilgan?

Gerb markazida qaysi qush tasvirlangan?

“MENING UYIM” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda o‘z uyi, undagi elementlar nima uchun kerakligi haqida tasavvurlarini boyitish. Tahlil qilish qobiliyati va xotirasini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga uy rasmi tasvirlangan plakatni ko‘rsatadi va undagi xonalar, jihozlar haqida tushuncha beriladi. Shundan so‘ng mazkur plakat vositasida quyidagi savollar beriladi.

Insonga uy nima uchun kerak?

Uyni toza saqlash kerak, chunki ...

Uyga derazalar kerak, chunki ...

Uylar elektr energiyasi bilan ta'minlanadi, chunki ...

Uylar gaz bilan ta'minlanadi, chunki ...

Uyning eshiklari nima uchun kerak?

Uyda qanday xonalar bo'ladi?

“MENING OILAM” O‘YINI

Maqsad: Bolalar nutqida oila a'zolarini bildiruvchi so'zlarni faollashtirish. Oila a'zolarini tavsiflovchi ta'riflarni tahlil qilish qobiliyatini yaxshilash.

O'yin jarayoni: 1. Tarbiyachi doskaga daraxt rasmi tasvirlangan plakat ilib, bolalardan oila a'zolarini uning qaysi shoxlariga qo'yish mumkinligini so'raydi. Shajara daraxtida hamma o'z oila a'zolarini tasvirlagach, tarbiyachi oila a'zolarini ta'riflaydi, bolalar gap kim haqida ketayotganligini topadi.

Sevimli, g'amxo'r, mehribon – ona;

Mehribon, yumshoq, dono – buvisi;

Mehribon, jiddiy, donishmand – bobo.

Jiddiy, kuchli, mehnatsevar – dada;

Kichkina, erkatoy, shirin – uka;

Quvnoq, aqlli, chiroyli, mehnatsevar – opa.

“MENING DO‘STIM KIM?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning savolga izchil javob berish qobiliyatini shakllantirish. Improvizatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirish; kognitiv ko'nikmalarni mustahkamlash.

O'yin jarayoni: 1. Tarbiyachi bolalarga aylana turishni taklif qiladi. Bolalar o'zining yonidagi do'stini ta'riflaydi.

2. Shundan so'ng bolalarga yonidagi do'stini biror gul nomi bilan atash taklif qilinadi. Masalan, Dilrabo atirgul, Bobur rayhon, Odina lola, Temur no-mozshomgul...

O‘yin so‘ngida tarbiyachi do‘stlikning ahamiyati, inson do‘stlar bilan mukammal bo‘lishi haqida tushuncha berib, do‘stlik haqida maqollarni bolalarga o‘rgatadi.

“ORTIQCHA GULNI TOP” O‘YINI

Maqsad: Gullarning o‘shish joyiga ko‘ra tasniflash qobiliyatini shakllantirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: 1. Tarbiyachi bolalarga bog‘da, xonada qanday gullar o‘shishini, kuzda ularning qanday holatda bo‘lishi haqida AKT yordamida ma‘lumot beradi. Shundan so‘ng har bir kartochkada to‘rttadan gul (ularning bittasi boshqa turga mansub bo‘ladi) tasvirlangan materiallarni bolalarga tarqatadi. Bolalar gullar ichidan ortiqchasini topadi.

2. Tarbiyachi bolalarga qismlarga bo‘lingan gul bo‘laklarini taqdim qiladi. Bolalar gulning rangi va joylashuviga qarab bir butunlik hosil qiladi.

“HOSILNI YIG‘” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning sabzavot va mevalar haqidagi bilimlarini mustahkamlash, ularni tashqi ko‘rinishi bo‘yicha tanib, nomlashga o‘rgatish. Bolalarning faol nutqini, diqqatni, vizual xotirani rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarni turli meva va sabzavotlar rasmlari aralashtirilgan savatcha atrofiga taklif etiladi. Unda to‘plangan meva-sabzavotlar haqida ma‘lumot beriladi. Shundan so‘ng guruh ikkiga bo‘linadi. 1-guruh bolalari mevalarni, 2-guruh bolalari sabzavotlarni yig‘adi.

“UNDAN NIMA TAYYORLANADI?” O‘YINI

Maqsad: Kognitiv qiziqish, fikrlash, vizual e‘tiborni rivojlantirish. Bolalarning don, un turlari, ulardan tayyorlanadigan non mahsulotlari haqidagi bilimlarini

mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: 1. Tarbiyachi unning nimadan olinishi va bu jarayondagi katta mehnati bilan bolalarni tanishtiradi. Guruhda undan xamir qorib, novvoylar mehnati haqida ma’lumot beriladi. Shundan so‘ng, kartochkalardan non mahsulotlarini tayyorlashdagi ketma-ketlikni topish buyuriladi. Masalan, birinchi undan shirinlik xamiri tayyorlanadi, keyin pishiriladi.

2. Bolalar non haqidagi maqollarni aytishga va topishmoqlarni topishga taklif qilinadi.

“G‘AROYIB PAXTA” O‘YINI

Maqsad: Paxta haqida bolalarga qiziqarli tarzda bilim berish, o‘rganganlarini umumlashtirish. Xotirasi va diqqatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga paxtaning xususiyatlari haqida tushuncha beradi va paxtakorlar mehnati haqida AKT vositasida videorolik namoyish qilindi. Shundan so‘ng paxtaga tegishli bo‘lgan va bo‘lmagan fikrlarni aytadi. Agarda fikrlar paxtaga tegishli bo‘lsa, chapak chaladi, aksincha paxtaga tegishli bo‘lmasa, oyoqlari bilan polni do‘pillatadi.

Paxtaning rangi pushti (oq).

Paxta yerning tagida o‘sadi (ustida).

Paxtadan moy olinadi (moy olinadi).

Paxta qo‘lda terilmaydi (qo‘lda teriladi).

Paxta bahorda yetiladi (paxta kuzda yetiladi).

Paxtadan plastmassa olinadi (ip olinadi).

“TRANSPORTLAR OLAMI” O‘YINI

Maqsad: Vizual idrok va e’tiborni rivojlantirish, mantiqiy fikrlash, izchil nutqni shakllantirish. Tilning leksik tomonini rivojlantirish (og‘zaki lug‘atni kengaytirish).

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga rasmlarni tarqatadi, ularni ko‘rib chiqish va nomlarini topishni taklif qiladi. So‘ngra transportlarga tegishli xususiyatlarni aytadi, bolalar bu ta‘rif qaysi transport turiga teshili ekanligini topadi.

Yo‘lda yuradi, yo‘lovchilarni tashiydi (avtobus)

Suvda suzadi, motori bor (kema)

Balloni bor, signal chaladi (mashina)

Yer haydaydi, shovqin chiqaradi (traktor)

Havoda uchadi, qanoti bor (samolyot)

“QUYOSHJON KO‘RIN” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning loy ishi bo‘yicha tajribalarini oshirish, ularda ijodkorlikni rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyalanuvchilar quyosh haqida gapirib beradilar. Keyin esa quyosh va uning nurlarini plastilin yordamida yasab beradilar.

“BUVIMGA GULDASTA” O‘YINI

Maqsad: Bolalar mas‘uliyatli bo‘lishini o‘rganadi, tasavvuri kengayadi.

O‘yin jarayoni: Bolalar turli guldastalar suratlarini tomosha qiladilar va o‘zlari ham rangli qog‘ozlardan guldasta yasaydilar.

“QUYOSHJON” O‘YINI

Maqsad: Bola ixtiyoriy kompozitsiyalarni yaratishi mumkin, xamir bilan ishlash bo‘yicha texnik ko‘nikmaga ega, bir nechta qismlarni qanday joylashtirishni biladi.

O‘yin jarayoni: Bolalar quyosh va uning xususiyatlari haqida gapirib beradilar. Keyin esa xamirdan quyoshning shaklini yasab beradilar.

“HAYVONOT OLAMI” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning hayvonot olami haqidagi bilimlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga turli hayvonlar suratlarini ko‘rsatadi va ular qayerda yashashini so‘raydi. Bolalar tog‘da, cho‘lda yashaydigan hayvonlarning suratlarini ajratishlari va ularni oq qog‘ozga qaychi yordamida kesib yopishtirishlari kerak bo‘ladi.

“BAYRAMLAR SHAHRI” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning bayramlar haqidagi tasavvurlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Bolalardan qanday bayramlar borligi haqida so‘raladi. Bolalarning javoblaridan keyin esa har bir bola A4 oq qog‘oziga o‘ziga yoqqan bayram suratini chizib berishi so‘raladi.

“HAYVONLAR” O‘YINI

Maqsadi: Bolalarning uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash. Ularning tasavvurlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Bolalar turli hayvonlar suratlarini ko‘radilar, ularning nomlarini aytadilar. Keyin esa o‘sha hayvonning suratlarini qaychida kesib oq qog‘ozga yelim yordamida yopishtiradilar.

“QUSHLAR SHAKLINI YASAYMIZ” O‘YINI

Maqsad: Loy ishining turli usullarini qo‘llashni o‘rganadi, jamoa bo‘lib ishlay olish ko‘nikmasi va mayda motorika rivojlanadi.

O‘yin jarayoni: Bolalar qushlar suratlarini tomosha qiladilar. Keyin esa tuzli xamirdan qushlar shaklini yasaydilar.

“SAYYORALARNI YASAYMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda jamoa bo‘lib ishlash malakasi rivojlanadi, ijodiy fantaziya shakllanadi.

O‘yin jarayoni: Bizning sayyoralar mavzusida AKT materiallari tomosha qilinadi. Bolalar sayyoralarning nomlanishini aytadilar. Keyin esa plastilin va loydan sayyoralar shaklin yasaladi.

“SAYYORANI ASRA” O‘YINI

Maqsad: Tabiatga nisbatan mehr bilan munosabatda bo‘lishni o‘rganadi, mayda qo‘l motorikasi rivojlanadi.

O‘yin jarayoni: Tarbiyalanuvchilar yil fasllari tasvirlangan suratlarni tomosha qiladilar. Pedagog tabiatga qanday munosabatda bo‘lish kerakligi haqida tushuncha beradi. Keyin esa oq qog‘ozga har bir bola o‘ziga yoqqan faslning suratini chizadi.

“ORZUIMDAGI UY” O‘YINI

Maqsad: Mustaqil ravishda syujet tanlaydi va bajaradi, rasmning mazmuniga qarab uni varaqda joylashtiradi. Qora qalam bilan sirtini chizadi va rangli qalamlar bilan uni bo‘yaydi.

O‘yin jarayoni: Tarbiyalanuvchilar o‘z orzularidagi uy haqida gapirib beradilar. Keyin esa geometrik shakllardan kesib qo‘yilgan shakllardan uycha rasmini oq qog‘ozga yopishtirib chiqadilar.

“MENING XONAM” O‘YINI

Maqsad: Bolaning rasm chizishdagi texnik mahorati oshadi, tasavvuriya kengayadi.

O‘yin jarayoni: Bolalar “Mening xonam” mavzusida qisqacha gapirib beradi-

lar. Xonada qanday jihozlar bor, qaysi jihoz ularga ko‘proq yoqadi bu haqida ham aytadilar. Keyin esa hamma o‘z xonasining suratini chizadi.

“CHOYNAK-PIYOLA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda ijodiy qobiliyatni va ko‘nikma malakalarini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Bolalar paxta surati tushirilgan choynak va piyolani tomosha qiladilar. Keyin esa oq qog‘ozda oldindan chizilgan paxta gulli naqshni ranglar bilan bo‘yadilar.

“KOMPYUTER” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning ijodiy tafakkurini hamda rasm chizish texnologiyasini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Bolalar kompyuter rasmini tomosha qiladi. Pedagog kompyuterning inson hayotidagi o‘rni haqida gapirib beradi. Bolalar qaysi kompyuterning suratini chizishlarini aytadilar. A4 oq qog‘oziga suratni chizadi va kompyuter chegarasini qora qalamda bo‘yaydi.

“O‘ZING TOP” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda xotirani rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Bunda tarbiyachi biror guruhning nomini aytadi, tarbiyalanuvchi esa o‘sha guruhga tegishli so‘zlarni topishi kerak. Tarbiyachi shunday deyishi mumkin: Uy hayvonlarining nomini ayt. Sabzavotlarga oid so‘zlarni top. yer osti transportiga oid so‘zlarni ayt. Yer usti transportiga tegishli so‘zlarni ayt. Yovvoyi hayvonlarni sanab ber.

“BIR SO‘Z BILAN AYT” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarda tahlil qila olish ko‘nikmasini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi tomonidan aytilganlarni bolalar bitta so‘z bilan aytishlari kerak.

Masalan, olma, nok, uzum, shaftoli, mevalar.

Aziza, Gulnoza, Fazilat, Zahro - ...

Stol, stul, kreslo -...

Bahor, yoz, kuz, qish -...

Stakan, vilka, piyola -...

Bir, ikki, uch, to‘rt -...

“TO‘G‘RI TA‘RIF BER” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda chamalash, tasavvur qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi so‘z aytadi, bola esa o‘sha so‘zga mos ta‘rifni aytib berishi kerak. Masalan, oy - dumaloq.

O‘t -...

Stol -...

O‘yin -...

Quyosh -...

Shokolad -...

“NIMA QILADI?” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarda xotirani kuchaytirish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: O‘yin shartiga ko‘ra, tarbiyachi bolalarga biror so‘z aytadi,

ishtirokchilar esa o'sha so'zga mos harakatni aytib bera olishlari kerak. Masalan, qaychi - kesish, kitob - o'qish kabi.

Piyola -...

Bo'yoq -...

Sovun -...

Dazmol -...

Yelim -...

Burun -...

Sumka -...

“KO‘K TIMSOH” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarni tahlil qilishga o'rgatish, tasavvurini boyitish.

O'yin jarayoni: Ikkita timsoh suzib ketayotgan edi. Ularning biri qizil, ikkinchisi ko'k rangda. Qaysi rangdagi timsoh tezroq suzadi?

(Bolalar timsohning tez suzishiga uning tana rangining aloqasi yo'qligini aytib berishlari kerak).

“XATOIMNI TOP” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini kuchaytirish.

O'yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga ketma-ketlikda gap o'qiydi, bolalar esa qaysi gapda xato borligini va nima uchun xatoligini aytib berishlari kerak.

Yoz keldi. Komiljon bundan juda xursand bo'lib, darrov chanasini olib chiqdi. Malika esa boshiga qalpog'ini kiyib oldi. Feruza tarvuzni sovib tursin deb, suv tagiga qo'yib qo'ydi. Mahmud ariq bo'yida qo'lqopini kiyib olib cho'mildi. (Tarbiyalanuvchilar gaplardagi xatolarni to'g'rilab aytishlari kerak).

“O‘ZING IZLA” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarni katta va kichik tushunchalarini farqlashga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Agar Akrom Malikaning ukasi bo‘lsa, demak, u Malikadan ... (kichik). Aziza Mohiraning opasi bo‘lsa, demak, u Azizadan ... (katta). Fotima va Zuhra bir kunda tug‘ilgan. Demak, ularning yoshi ... (teng).

“XATOSINI TOP” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarni qiyoslashga, hozir-javoblikka o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi quyidagi gaplarni o‘qiydi, bolalar esa gapning xatosini to‘g‘irlab aytishlari kerak. Stol ustida ikkita nok, ikkita olma bor. Stol ustida jami nechta meva bor? Xontaxta ustidagi ikkita temir chelakcha yerga tushib ketdi. Uning siniqlari necha bo‘lak bo‘ladi? Mushuk sichqon bilan do‘st bo‘libdi-da, bunga g‘ashi kelgan kuchuk ularni quvib ketibdi...

“QAYSI BIRINCHI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, ulardagi tahlil qila olish qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi chalg‘itish maqsadida gaplarni noto‘g‘ri o‘qiydi. Ishtirokchilar esa tarbiyachi qayerda xato qildi va u xato nimadan iboratligini aytib berishlari kerak. Masalan: Men tugmani taqdim, keyin ko‘ylak kiydim,

Oyim ertaga keldi,

Men kecha bog‘chaga boraman,

Men tushlik qilib bog‘chaga bordim.

“NIMA UCHUN ORTIQCHA?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning topqirlik qobiliyatini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga so‘zlarni ketm-ketlikda o‘qiydi. Bolalar qatordagi qaysi so‘z ortiqchaligini va nima uchun uni bu qatorga qo‘shib bo‘lmasligini aytib berishlari kerak.

Soat, daqiqa, soniya, yoz.

Sut, tvorog, non, smetana.

Televizor, radio, kitob.

O‘rik, olcha, olma, qalam.

“TO‘G‘RI BO‘LSA IL” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni hozirjavoblikka o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi biror bir vaziyatni aytadi, tarbiyalanuvchi agar o‘sha gap to‘g‘ri kelsa ko‘ptokni ushlab oladi. Agar gap mantiqan noto‘g‘ri tuzilgan bo‘lsa bola to‘pni olmaydi. Quyidagi vaziyatlarni misol tarzida keltirish mumkin: Poyezd daraxda uchib yuribdi, olma judayam sho‘r ekan, men ovqat yeyapman, uy sayr qilgani tashqariga chiqib ketdi, shishali tufllilar ko‘p ekan, baliq o‘yinchoq mashinani ko‘tarib olib kelayotgan edi, qishda qulupnay tergani bordik, yoz bo‘lsa ham chanada uchdik, bir vaqt kuchuk ku-ka-re-ku deb baqirayotganini eshitdik.

“RASSOM NIMANI UNUTDI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda tasavvurni kuchaytirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga rasm ko‘rsatadi va unda bolalar rassom qoldirib ketgan narsaning nima ekanligini topishlari kerak.

Masalan, suratda to‘rtta odamga uchta qoshiq tasvirlangan, gilamning chiziqlarini chizish esdan chiqib qolgan, vazada suv turibdi, uning gulini chizish esdan chiqqan.

“KIYIMDAGI RANGLARNI TOP” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni sezgirlik, chaqqonlikka o‘rgatish, ranglarni ajrata olish qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Bolalar xonadagi gilamga oyoqlarini uzatgan holda o‘tiradilar. Tarbiyachi bolalarga birorta rang aytadi, bolalar ana shu rangni o‘z kiyimlaridan topishlari kerak. Agar kimning kiyimida aytilgan rang bo‘lmasa u qo‘lini yuqoriga ko‘taradi va o‘yinda uch martadan ko‘p qo‘l ko‘targan bola o‘yindan chiqib ketadi.

“ESLAB QOL” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda xotirani rivojlantirish, o‘quv qurollari nomini o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Bolalarni ikkita jamoaga bo‘lib olamiz. Keyin ularga so‘zlarni ketma-ketlikda aytamiz. Masalan, qog‘oz, qalam, yelim, plastilin, ruchka. Bola so‘zlarni aynan tarbiyachi aytganidek ketma-ketlikda aytishi kerak. Kimdir tartibdan adashsa, o‘yindan chiqib ketadi. Qaysi jamoada ko‘p ishtirokchi qolsa, ana o‘sha jamoa g‘olib bo‘ladi.

“MEVALARNI TOP” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: O‘yin shartiga ko‘ra, tarbiyachi so‘zlarni ketma-ketlikda o‘qiydi, tarbiyalanuvchi esa meva nomini eshitganda qarsak chalishi kerak. Masalan: karam, olma, nok, ukrop, olxo‘ri, sabzi, o‘rik, qulupnay, kartoshka, apelsin.

“GURUHLARGA AJRAT” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni tahliliy fikrlashga o‘rgatish, taqqoslash haqidagi bilimlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi ismlarni ketma-ket o‘qiydi, tarbiyalanuvchi esa bu so‘zlarga qanday nom berishni aytadi. Masalan, Aziza, Tohir, Malika, Rustam, Anvar – bularni do‘stlar deb nomlasak bo‘ladi. Bo‘ri, tulki, ayiq, yo‘lbars, maymun – bularga qanday nom berasiz? Endi o‘zingiz idishlar degan guruhga mansub so‘zlarni ayting deb topshiriq berish mumkin.

“UMUMIY JIHATNI TOP” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning atrofi olam haqidagi bilimlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: O‘yin shartiga ko‘ra, tarbiyachi aytayotgan so‘zlardagi umumiy yaqinlikni bolalar topishlari kerak. Non va yog‘ bu – yegulik. Burun va ko‘z, bu – tana a‘zolari. Olma va nok – mevalar. Sherxon va kit – hayvonlar.

“BUNDAN QANDAY FOYDALANILADI?” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarni maktabga tayyor- garligini tekshirish, ularning o‘quv qurollari haqidagi bilimlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bironta o‘quv qurolini ko‘rsatadi. Masalan, qalam, tarbiyalanuvchilar esa undan nima maqsadlarda foydalanish mumkinligini aytadilar. Bolalar quyidagi variantlarni aytishlari mumkin: chizish, bo‘yash, yozish, ko‘rsatkich sifatida foydalanish.

“NIMA YAXSHI-YU, NIMA YOMON?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni ijobiy va salbiy baho berishga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi muzqaymoq – yaxshi, yozda salqinlik baxsh etadi, mazali deydi. Tarbiyalanuvchi esa uning salbiy tomonini topadi. Masalan, ko‘p yeb qo‘ysa tomoq og‘rib kasal bo‘lib qolish mumkin. Televizor – yaxshi ko‘rgan multfilmni ko‘rish mumkin, yangi qiziqarli narsalarni o‘rganish mumkin. Yomon tomoni – yaqindan ko‘rsa ko‘rish qobiliyatiga salbiy ta‘sir qilishi mumkin.

“NIMA HAQIDA GAPIRYAPMAN?” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarni topqirlikka o‘rgatish, tahlil qila olish qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi biror predmet, meva, sabzavot, hayvonning belgilari haqida gapiradi. Tarbiyalanuvchilar esa tarbiyachining nutqidan nima haqida ketayotganini bilib, o‘sha narsaning nomini aytishi kerak. Masalan, usiz kuni-mizni tasavvur qilolmaymiz. Uni nonushtada, tushlikda, kechqurungi ovqatda ham yeymiz. Yana unga sariyog ham surib yeymiz. Oyingiz sizga uni ehtiyot qilish kerakligini doim aytadi. Bu nima? (Tarbiyalanuvchilar bu nonligini aytishlari kerak). O‘yinda tarbiyachi bolalarga yaqin narsalar, masalan, shokolad, o‘yinchoq mashina, qo‘g‘irchoq, hayvonlardan ayiq, quyon, kuchuk, mushuk haqida ham hikoya qilib berishi mumkin. O‘yin so‘ngida eng faol bo‘lgan tarbiyalanuvchi rag‘batlantiriladi.

“ERKALAB AYT” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning so‘z boyligini oshirish, ularda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: O‘yin shartiga ko‘ra, tarbiyachi bitta so‘z aytadi, ishtirokchilar esa uni erkalab aytishlari kerak. Kim tarbiyachi aytgan so‘zga mos so‘zni tezda topsa, golib hisoblanadi. Masalan, oyi - oyijon, mushuk - baroqvoy, ukam - erkatoyim, singlim - chaqqonim, opam - g‘amxo‘rim, do‘stim - mehribonim kabi.

“BU QAYSI HAYVON?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning atrof olam haqida bilimlarini oshirish va ularni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: O‘yinni birinchi bo‘lib tarbiyachi boshlab beradi. U biror hayvon mimikalarini qiladi, unga o‘xshab yuradi, ovoz chiqaradi. Bolalar esa tarbiyachi tasvirlayotgan hayvonning nomini, uning uy yoki yovvoyi hayvon ekanligini, u nimalar bilan oziqlanishini aytib berishlari kerak. Tarbiyachidan keyin guruhdagi ishtirokchilar navbatma-navbat xuddi shu tarzda hayvonlarning xatti-harakatlarini ifodalab beradilar.

“BO‘LISHI MUMKINMI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning dunyoqarashini kengaytirish, savol vositasida suhbat qilishga undash.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi birorta gal o‘qiydi, bolalar shu gal haqiqatan bo‘lishi mumkinmi yoki yo‘qligini aytib berishlari kerak. Agar bo‘lishi mumkin bo‘lmasa, nima uchun mumkin emasligini izohlab beradilar. Tarbiyachi bu o‘yin uchun quyidagi savollardan foydalanishi mumkin: daraxtdan rosa pishloq yog‘ildi. O‘rtog‘im quyoshni qo‘lida ko‘tarib olibdi. Yulduzni sumkamga solib oldim. Mo-maqaldiraq hammani qo‘rqitmasin deb uni tortmaga solib qo‘ydim. Lola gulining ichidan bitta shokolad chiqdi. Otning bo‘ynida atirgul o‘sib turgan ekan.

“U BIZGA NIMAGA KERAK?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning nutqi rivojlanishiga yordam berish.

O‘yin jarayoni: Bolalar stol ustiga qo‘yib qo‘yilgan buyumlardan bittadan oladilar va uning nima uchun kerakligini tushuntirib berishlari kerak bo‘ladi. Masalan, men ruchkani oldim, u menga yozish uchun kerak. Stol ustiga daftar, koptok,

o‘chirgich, rangli qalam, rangli qog‘oz, plastilin, stakan, kitob, ayiqcha o‘yinchogi, qo‘girchoq kabilar qo‘yish mumkin.

“GAP TUZ” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarda so‘zdan gap tuza olish ko‘nikmasini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga so‘zlar aytadi, qaysi ishtirokchi tayyor bo‘lsa, qo‘lini ko‘tarib o‘zi tuzgan gapni aytishi mumkin. Ikkita bir xil tuzilgan gapni qabul qilinmaydi. Masalan, savatda olma, qizil tarvuz, shokoladli muzqaymoq, mevali pirog, quvnoq musiqa, qiziqarli kitob.

“ORTIQCHA SO‘ZNI TOP” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, ularda o‘z fikrini yorqin ifoda qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolaga 3-4tadan iborat so‘zlar ketma-ketligini o‘qiydi. Bola o‘sha qatordagi so‘zning qaysi biri nima uchun ortiqchaligini izohlab berishi kerak. Misol uchun quyidagi so‘zlar ketma-ketligidan foydalanish mumkin: sut, tvorog, qatiq, banan. Sovun, tish pastasi, shampun, ruchka. Qalam, daftar, kitob, shaftoli. Soat, daqiqa, soniya, televizor. Ko‘ylak, yubka, shim, atir. Qoshiq, sanchqi, likopcha, qalam.

“ONASINI TOP” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning hayvonot olami haqidagi bilimlarini boyitish, ularning xotirasini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi birorta hayvonning nomini aytadi, bolalar esa uning bolasini aytishlari kerak. Masalan, tuya - bo‘taloq, ot - toychoq, echki-uloqcha.

“HOZIR QAYSI FASL?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni tabiat hodisalarini farqlashga, fasllar haqidagi bilimlarini boyitishga o‘rgatish. Ularda topqirlikni rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Bolalar o‘rindiqda o‘tiradilar. Tarbiyachi har bir faslga xos belgi ifodalangan biror matn o‘qiydi va bolalar bu hodisa qaysi faslda bo‘lishini aytib beradilar. Masalan: “Biz mazza qilib chana uchdik”.

Bolalar qaysi faslda chana uchish mumkinligini aytib beradilar.

“KIM KO‘PROQ HARAKATLARNI AYTADI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda diqqat va xotirani rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi savol beradi, bolalar esa javob qaytarayotganda iloji boricha ko‘proq harakat nomini aytishlari talab qilinadi. Misol uchun: gullarni nima qilish mumkin? (hidlash, uzib olish, sovg‘a qilish, bargini artib qo‘yish). Bog‘bon nima qiladi? (bog‘ni parvarish qiladi, gullarga suv quyadi, daraxtlar va ko‘chatlar ekadi, o‘tlarni yuladi).

“NIMA UCHADI?” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning hayvonlar, qushlar, hasharotlar haqidagi bilimlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Bolalar aylana shaklida turadilar. Ularning orasidan bir bola o‘rtaga chiqadi va biror buyum yoki qush nomini ayta turib ikkala qo‘lini tepaga ko‘taradi. Agar u qush nomini aytsa, qolganlar ham ikkala qo‘llarini tepaga ko‘taradilar. Bordi-yu, buyum nomini aytsa, unda ko‘tarmaydilar. Kim yanglishsa, o‘yinni tark etadi.

“UCHINCHISI ORTIQCHA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularni meva va sabzavotni farqlashga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi so‘zlar aytadi, bolalar ushbu so‘zlardan qaysi biri va nima uchun ortiqchaligini aytib berishlari kerak. Masalan: olma, nok, sabzi. Sholg‘om, qulupnay, o‘rik.

“BU QACHON BO‘LADI?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning vaqt haqidagi bilimlarini boyitish, xotirasini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi oldindan tayyorlab qo‘yilgan ertalab, tushlikda, oqshom va kechqurun so‘zlarini navbati bilan ko‘rsatadi. Bolalar esa tarbiyachi ko‘rsatgan so‘zga mos harakatlarni aytib berishlari kerak. Misol uchun, ertalab degan yozuvga bolalar tishimizni yuvamiz, nonushta qilamiz, bog‘chaga kelamiz kabi misollarni aytishlari mumkin.

“SURATDAN O‘RGANAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarga meva va sabzavotlarning farqini o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bo‘laklarga bo‘lingan meva va sabzavot suratlarini stolga aralashtirgan holda qo‘yadi. Tarbiyalanuvchi meva yoki sabzavotning kesilgan qismini o‘rniga qo‘yadi va uning nima ekanligini, o‘ziga xos xususiyatini aytadi. Masalan, bu olma, u qizil rangda, uning mazasi shirin. Bu bodring u sabzavot, rangi yashil, u sersuv bo‘ladi. Bu o‘yinda ertak qahramonlari va yovvoyi hayvonlar suratlaridan ham foydalanish mumkin.

“JUFTINI TOP” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, ularning xotirasini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi turli meva, sabzavot, narsa va buyumlarni stolga shunday joylashtiradiki, undagi bitta narsa ortiqcha bo‘ladi. Bolaning vazifasi o‘sha ortiqcha narsaning nimaligini topish va nima uchun ortiqchaligini izohlab berishdan iborat. Narsalarni quyidagi ketma-ketlikda joylashtirish mumkin. Olma, o‘rik, ruchka. Tufli, kitob, daftar. Bola esa olma o‘rik meva ekanligi, ruchka buyumligini, mevalar daraxtda o‘shishini izohlab beradi. O‘yinda yana gulli tarelka, stakan qoshiq; chiziqchali tarelka, stakan qoshiq; yashil rangdagi tarelka, stakan, qoshiqning suratini qo‘yib, ularning o‘z juftini topishni so‘rash mumkin.

“QO‘G‘IRCHOQNI SAYRGA TAYYORLAYMIZ” O‘YINI

Maqsad: Kiyinish qoidalari, mavsumbop kiyim tanlash zarurligini tushuntirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi tomonidan turli faslga mos kiyimchalar oldindan tayyorlab qo‘yiladi. Bolalar to‘rt guruhga bo‘linib, ularga qo‘g‘irchoqni to‘rt faslga moslab kiyintirish vazifa qilib beriladi. Har bir guruh o‘zi kiyintirgan qo‘g‘irchoqni nimaga bunday kiyim kiyganini tushuntirib beradi.

“QAYSI O‘YINCHOQ YETISHMAYAPTI?” O‘YINI

Maqsad: Xotira va diqqatni rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi stol ustiga bir nechta o‘yinchoqlarni qo‘yadi. Tarbiyalanuvchi ularga diqqat bilan qaraydi va orqaga o‘girilib ko‘zini yumib turadi. Bolalardan biri stol ustidagi o‘yinchoqlardan birini olib qo‘yadi, birinchi tarbiyalanuvchi esa aynan qaysi o‘yinchoq yetmayotganini aytishi kerak.

“MENING TILAGIM” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: O‘yinni tarbiyachi boshlab beradi. U “Men Azizaga salomatlik tilayman” misolini aytadi. Keyingi bola esa “Men Akbarga yaxshi kayfiyat tilayman” deyishi mumkin. O‘yin guruhdagi barcha bolalar bir-biriga ijobiy so‘zlar aytib bo‘lganidan so‘ng tugaydi. Bir marta ishlatilgan gap ikkinchi marta ishlatilmasligi kerak.

“QOPDA NIMA BOR?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda chamalash, solishtirish, tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: O‘yin shartiga ko‘ra, har bir bola tarbiyachi yoniga keladi. Tarbiyachi kichkina qopchaga solingan narsaning belgilarini aytadi. Tarbiyalanuvchi esa shu belgilarga qarab qopchanning ichida nima borligini aytib berishi kerak. Masalan, qizil rangda, yumshoq narsa, odatda, unga bodring qo‘shib salat tayyorlanadi.

“O‘YLA VA TOP” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarni fikrlashga o‘rgatish, ularning nutqini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Ushbu o‘yinda bolaga nima sakraydi, nima yuguradi, nima ma‘raydi kabi savollar beriladi va javob olinadi.

“TOPILMALAR IDORASI” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarda tasavvur qilish, ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Kattalar bolalardan o‘zlari yo‘qotgan predmetni topishni so‘raydi. Bunda ushbu buyum izohlab, tasvirlab beriladi. Masalan, bu jihoz dumaloq shaklga ega, uni sakratish mumkin, ilib olish va otish mumkin. Bu nima?

“TESKARISINI TOP” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni fikrlashga, taqqoslashga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Bolalar berilgan so‘zning teskarisini topishlari kerak bo‘ladi. Masalan, shirin-achchiq, xursand-xafa, katta- kichkina, keng-tor, kuchli-kuchsiz.

“NIMA ORTIQCHA?” O‘YINI

Maqsad: Sabzavot, meva, idish va mebelning farqini ajratishga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi predmetlarning nomini ketma-ket sanaydi va bolalar ular ichidan ortiqchasini topishlari kerak. Pomidor, karam, bodring, olma. piyola, qozon, tova, divan. Mushuk, sigir, kuchuk, ayiq. Muz, bo‘ron, qor, issiq. Pechenye, tort, vafli, qoshiq.

“ESLAB QOL” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda xotirani rivojlantirish, o‘quv qurollari nomini o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Bolalarni ikkita jamoaga bo‘lib olamiz. Keyin ularga so‘zlarni ketma-ketliqsa aytamiz. Masalan, qog‘oz, qalam, yelim, plastilin, ruchka. Bola so‘zlarni aynan tarbiyachi aytganidek ketma-ketliqsa aytishi kerak. Kimdir tartibdan adashsa, o‘yindan chiqib ketadi. Qaysi jamoada ko‘p ishtirokchi qolsa, ana o‘sha jamoa golib bo‘ladi.

“MEN KIMMAN?” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda eshitish qobiliyatini rivojlantirish, diqqatni jamlashga o‘rgatish, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyalanuvchilar bolalar maydonchasiga chiqishadi. Guruhdan bir bola ajratib olinadi, qolganlari esa yarim aylana shaklida bolaning orqasida turishadi. Tanlab olingan bolaning qo‘lida koptok bo‘ladi. Bolalarga teskari qaragan holda qo‘lidagi koptokni orqaga irg‘itadi. Koptokni ilib olgan bola “Men kimman?” deb so‘raydi. Koptokni irg‘itgan bola ovoz egasini topsa, golib hisoblanadi. O‘yin barcha ishtirokchilarning birma-bir koptok irg‘itishi bilan davom etadi.

“TOPQIRLIK MASHQI” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarda chamalash, solishtirish ko‘zi bog‘langan holda narsalarni paypaslab topish ko‘nikmalarini shakllantirish, so‘z boyligini oshirish.

O‘yin jarayoni: Stol ustiga tugmacha, kubik, olma, qalam, ruchka, bo‘r, bodring kabi predmetlar ikkitadan bir-biridan uzoqda aralash holda joylashtiriladi. Bolalar ko‘zi bog‘langan holda stol ustidagi narsalarni ushlab, hidlab ko‘rgach, uning nomini aytadilar. Masalan, “Bu bodring, sabzavot, yashil rangda, shakli uzunchoq, oyijonim undan salatlar tayyorlaydi”. Qolgan ishtirokchilar ham, xuddi shu tarzda o‘yinni davom ettiradilar. Faqat stol ustiga qo‘yilgan predmetlar har to‘rtta ishtirokchidan keyin almashtiriladi. O‘yin yakunida barcha predmetlarni xatosiz topgan va to‘g‘ri, tez ta‘rif bergan tarbiyalanuvchi tarbiyachi tomonidan rag‘batlantiriladi.

“KIM QAYERDA ISHLAYDI?” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarda kim qayerda ishlashi haqida tasavvur uyg‘otish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi biror kasb nomini aytadi, bolalar esa uning qayerda

ishlashini topishlari kerak. Masalan, tarbiyachi – bog‘chada, hisobchi – korxonada, o‘qituvchi – maktabda, oshpaz – restoranda, shifokor – shifoxonada.

“QARSAK CHAL” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni tez javob berishga, ziyraklikka o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi biror kasbning nomini va harakatlar nomini aytadi. Tarbiyalanuvchilar aytilayotgan kasb va harakatlar to‘g‘ri bo‘lsa, qarsak chaladilar, bordiyu, noto‘g‘ri bo‘sa, unda qarsak chalmaydilar.

Masalan, shifokor qaychini olib sochlarni qirqdi, tikuvchi dare o‘tyapti, oshpaz ovqat pishirayapti, bog‘bon kompyuter tuzatyapti, tez yordam yong‘inni o‘chiryapti, o‘qituvchi daryo o‘tyapti, duradgor ko‘ylak tikyapti.

“O‘SADIGAN TAYOQCHA” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning mo‘ljal olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Bolalarga avvaldan tayyorlab qo‘yilgan taxta tayoqchalar beriladi. Bolalar uni o‘sib boruvchi shaklda stolga qo‘ya bilishlari kerak. Shartni to‘g‘ri bajarish uchun har gal uzunroq taxtachani tanlashga to‘g‘ri keladi. Kim vazifani birinchi bo‘lib bajarsa, tarbiyachi tomonidan rag‘batlantiriladi.

“ORTIQCHA SO‘ZNI TOP” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, ularda tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi oldindan tayyorlab qo‘yilgan so‘zlarni aytadi, tarbiyalanuvchilar esa qaysi so‘z nima uchun ortiqchaligini izohlab berishlari kerak bo‘ladi. Qoshiq, tarelka, qalam. Sovun, tish cho‘tkasi, olma. Yoz, soat, daqiqa. Ko‘ylak, konfet, shim. Qulupnay, pufak, malina.

“KIYIM TANLA” O‘YINI

Maqsad: Ranglarni farqlashga o‘rgatish, ertak qahramonlari uchun kiyim tanlash qobiliyatini shakllantirish, ijodiy tasavvurni, did va nutqni rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga kiyimlar rasmi tasvirlangan kartochkalarini tarqatadi. Bolalar qo‘llaridagi rasmlardagi liboslarni qaysi ertak qahramoniga kiydirish mumkinligini topishadi.

Kir, kulrang kiyimlar – Qimmatga.

Och va yorqin rangdagi, toza kiyimlar – Zumradga.

Sovuq rangli, hashamatli kiyimlar – Qor malikasiga.

Issiq rangli, bejirim kiyimlar – qo‘g‘irchoq Lolaxonga.

“ERTAK QAHRAMONLARI UCHUN RANG TANLA” O‘YINI

Maqsad: Yaxshilik va yomonlik tushunchalarini aks ettirish uchun ranglarni tanlashni o‘rgatish. Ijodkorlik va tasavvurni rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalardan ertak qahramonlari nomini aytadi, bolalar esa ushbu ranglarni qaysi ranglardan foydalanib chizish mumkinligini aytishadi.

Yalmog‘izni – qora va kulrangdan foydalanib chizish mumkin.

“Oltin tarvuz” ertagidagi dehqonni oq va havorangdan foydalanib chizish mumkin.

“Oltin tarvuz” ertagidagi ochko‘z boyni to‘q rangdan foydalanib chizish mumkin. Laylakni oq va issiq ranglardan foydalanib chizish mumkin.

“HAYVONLARNI CHIZAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Hayvonlar suratini chizish bo‘yicha texnik ko‘nikmalarni rivojlantirish. Diqqatini, tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalar oldiga turli o‘lchamdagi geometrik shakllar to‘plamini qo‘yadi. Bolalar fantaziyasiga ko‘ra shakllardan hayvonlarning shaklini

applikatsiya usulida hosil qiladi. Masalan, katta ovaldan quyonchaning gavdasini, kichik ovalchalardan quyonchaning quloqlarini va oyoqlarni hosil qilish mumkin.

“MOSINI TANLA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda tahlil qilish va diqqatni rivojlantirish. Vizual xotira va tizimlilikni tarbiyalash.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga turli qo‘g‘irchoqlarning rasmini ko‘rsatadi. (Magnit yordamida doskaga yopishtirsa yanada samarali bo‘ladi). Bolalar oldiga esa turli rangdagi idishlar to‘plami rasmini tarqatadi.

Tarbiyachi: – Qo‘g‘irchoqlarning kiyimlari qanday rangda? Ularning kiyimiga mos ravishda idishlarni tanlang.

Qizil nimchali qo‘g‘irchoq uchun qanday idishlar mos keladi?

Ko‘k rangdagi ko‘ylak kiygan qo‘g‘irchoq uchun qanday idishlarni tanlash mumkin?

Yashil tufli kiygan va yashil sumka taqqan qo‘g‘irchoqqa qanday idish olishni taklif qilasiz?

“SO‘ZNI TANLA” O‘YINI

Maqsad: Rasm uchun to‘g‘ri so‘zlarni tanlash qobiliyatini rivojlantirish. Mantiqiy fikrlashni va bilimlarini tahlil qilishga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi ertak qahramonlariga nisbatan sifatlarni aytadi, bolalar esa bu sifatlar qaysi ertak qahramoniga taalluqli ekanligini topishadi. Masalan:

Jahldor (O‘gay ona).

Orasta (Zumrad).

Yig‘loqi (Qimmat).

Aldoqchi (“Echki bolalari” ertagidagi bo‘ri).

Rostgo‘y (“Uch og‘a-ini botirlar”dagi Kenja botir).

Yovuz (yalmog‘iz kampir).

**“SYUJETLI-ROLLI O‘YINLAR VA
SAHNALASHTIRISH”
MARKAZI UCHUN DIDAKTIK
MATERIALLAR**

“YOSH SAYOHATCHILAR” O‘YINI

Maqsad: Ona yurt tushunchasiga ega bo‘lish, bolalarda jamoada o‘zaro fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga sayohatga kerakli narsalarni tayyorlashni aytadi. Bolalar sumka, kompas, xarita kabi narsalarni tayyorlaydilar. Guruh bolalari tarbiyachi yo‘naltirgan mavzu bo‘yicha sayohat qiladilar.

“BUVIMNIKIDA MEHMONDA” O‘YINI

Maqsad: Oilaviy munosabatlar, dam olish chog‘ini birgalikda o‘tkazish, do‘stona munosabatda bo‘lish va oila a‘zolariga g‘amxo‘rlik qilish haqidagi tushunchalarni boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalar bilan buvinikiga mehmonga borish uchun nimalar qilish zarurligini so‘raydi. Bolalar nimalar xarid qilish kerakligini aytadilar va yo‘lga tushadilar. Buvi bolajonlarni yaxshi kayfiyatda kutib oladi va ularga dasturxon yozadi. Buvi bolalarga ertaklar o‘qib beradi, bolalar esa buviga she‘rlar aytib beradi.

“SARTAROSHXONA” O‘YINI

Maqsad: Sartaroshlik kasbi bilan tanishish, aloqa madaniyatini rivojlantirishda so‘z birikmalaridan foydalanish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalardan sartaroshxonaga borganlarida qanday voqealar sodir bo‘lganligini so‘raydi. Tarbiyalanuvchilar o‘z tassurotlarini hikoya qilib beradilar. Keyin esa sartaroshning anjomlarini qo‘lga olib bir bola mijoz, ikkinchisi sartarosh rolini o‘ynaydi.

“MODALAR ATELYESI” O‘YINI

Maqsad: Tikuvchi atelye so‘zi mohiyatini tushunadi. Muloqot madaniyati va estetik ko‘nikma va malaka elementlari shakllantiriladi.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga bugun modalar atelyesida liboslar namoyishi o‘tkazilishini va yigitlar tomoshabin rovida bo‘lishlarini, qizlar esa liboslarni ko‘rgazma qilishlarini aytadi.

“ZUMRAD VA QIMMAT” ERTAGINI SAHNALASHTIRISH

Maqsad: Bolalar ertak mazmunini biladi, qahramonlarning ijobiy va salbiy tomonlarini tavsiflaydi, aktyorlik mahoratini namoyon qiladi.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga ertak mazmunini eslatadi. Bolalar esa ertakdan ayrim dialoglarni aytib beradilar. Kimdir Qimmat, kimdir Zumrad, o‘gay ona, ota rollarining so‘zlarini bolalar rolga kirib ijro etadilar.

“DO‘STLAR BILAN TEATRDA” O‘YINI

Maqsad: O‘zini teatrda qanday tutish kerakligini biladi. Aktyorlik kasbi haqida biladi. Muloqot madaniyatining elementar ko‘nikma va malakalari shakllanadi.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga o‘zlarini xuddi teatrdagidek tutishlarini aytadi. Bolalar o‘zlari istagan teatrdan parcha ijro etib berishlari mumkin.

“ONA BILAN QIZALOQ” O‘YINI

Maqsad: Oila a‘zolarini biladi, ona va qiz munosabatlari shakllanadi, bola va ona orasidagi o‘zaro shaxsiy munosabatlar shakllanadi.

O‘yin jarayoni: Pedagog tarbiyalanuvchilarga mehmonga borganda ona va bola o‘zini qanday tutishi haqida qisqacha aytib beradi. Bolalar ona va qizaloq rovida

ona va bola suhbatini ijro etib beradilar.

“BOZORDA” O‘YINI

Maqsad: Bolalar sotuvchilarning vazifalari to‘g‘risida, barcha meva va sabzavot nomlarini biladi, bozor haqida ma‘lumotga ega bo‘ladi.

O‘yin jarayoni: Pedagog va bolalar bozor ko‘rinishi uchun tarozi, meva va sabzavotlarni yasatib chiqadilar. Bolalar xohishiga ko‘ra kimdir xaridor, kimdir sotuvchi rolini o‘ynab beradi.

“OLTIN TARVUZ” ERTAGINI SAHNALASHTIRISH

Maqsad: Bolalar xalq ijodiyoti bilan tanishishda davom etadi, aktyorlik mahorati ko‘nikmalarini orttiradi, yaxshi va yomonni farqlaydi.

O‘yin jarayoni: Bolalar ertakka oida sahnalarni eslaydilar. Turna va dehqon, dehqon va qo‘shnisi suhbatini ijro etib berishlari mumkin.

“FITOBAR” O‘YINI

Maqsad: Sharbatlarning sog‘lomlashtirish va davolash xususiyatlarini biladi. Sog‘lom turmush tarzi shakllanadi, nutqi rivojlanadi.

O‘yin jarayoni: Pedagog avvaldan tayyorlab qo‘yilgan sharbatlarni ko‘rsatadi. Sharbatlar solingan idishlarga ular nimadan tayyorlangan bo‘lsa ana o‘sha narsaning surati yopishtirilgan bo‘ladi. Bolalardan biri fitobar sotuvchisi qolganlar esa xaridorlar bo‘ladilar. Sotuvchi sharbat sotish jarayonida o‘sha sharbatning qanchalik shifobaxshligini aytib o‘tishi kerak.

ALISHER NAVOIYNING “NON ISI” HIKOYASINI SAHNALASHTIRISH

Maqsad: A.Navoiyning “Non isi” hikoyasi bilan tanishish. Aktyorlik mahoratni namoyon etish, non va non mahsulotlari aziz ekanligini tushuntirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog “Non isi” hikoyasini aytib beradi. Bolalar o‘zlari rol tanlab bir-birlariga hikoyaning ayrim joylarini ko‘rsatib berishlari mumkin.

“DAN XODIMI” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchiga haydovchi va DAN xodimi orasidagi munosabatlar tushuntiriladi.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga DAN xodimining svetofor bo‘lmagan joylardagi faoliyatining video lavhasini ko‘rsatadi. Bolalar o‘zlarini DAN xodimidek tutib yo‘l ko‘rsatishlari mumkin.

“SAMOLYOTDA UCHAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Aeroport xodimlari mehnati haqida tasavvurga ega bo‘lish, bolalarda uchuvchi va yo‘lovchilarning o‘zaro munosabatlari haqida tushuncha hosil bo‘ladi, uchish vaqtida qoidalarga amal qilishni biladi. Kattalarga va aeroport xizmatchilariga nisbatan hurmat hissi tarbiyalanadi.

O‘yin jarayoni: Bolalar samolyot uchuvchisi va styuardessaning vazifalari haqida gapiradilar. Keyin esa o‘g‘il bolalar uchuvchi, qiz bolalar styuardessa rolini qisqa ijro etib beradilar.

“MEN PIYODAMAN” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchi jamoat joylarida o‘zini tuta oladi. Transport turlarini farqlaydi. Kuzatish, tahlil qilish, xulosa chiqarish malakasiga ega bo‘ladi.

O‘yin jarayoni: Pedagog bugun ularning guruhiga Bilmasvoy kelib qolgani va u ko‘chada yurish qoidalarini bilmasligini aytadi. Bolalar navbat bilan unga o‘z bilganlarini yo‘lda yurib ko‘rsatib, tushuntirib beradilar. Piyodalar yo‘lakchasi nima, piyodalar qanday qoidalarga amal qilishlari kerakligi haqida aytib o‘tadilar.

“YONG‘IN BO‘LMASIN” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni yong‘in xavfsizligi qoidalari haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga shunday deydi:

– Hozir men sizlarga ayrim harakatlarni ko‘rsataman, sizlar agar u yong‘inga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lsa, qizil kartochkani ko‘tarasizlar, agar yong‘inga sabab bo‘lmasa, unda yashil kartochkani ko‘tarasizlar.

Pedagog harakatlarni ko‘rsatib beradi:

Surat chizganda, kitob o‘qiganda, gugurt bilan o‘ynaganda, arqon bilan sakraganda, plastilindan narsa yasaganda, qo‘l yuvganda, gul ekkanda, buzilgan elektr simiga narsa tiqqanda, mushuk bilan o‘ynaganda, televizorni yoniq qoldirganda, o‘yinchoq o‘ynaganda, dazmolni yoniq qoldirganda.

“XAVFLIMI YOKI XAVFSIZ?” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning hayot xavfsizligi asoslari haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Pedagog ayrim predmetlarni ko‘rsatadi va bolalardan bu bilan o‘ynash mumkinmi yoki yo‘qmi deb so‘raydi. Agar mumkin bo‘lsa, bolalar sariq kartochkani ko‘taradilar, agar mumkin bo‘lmasa unda qora kartochkani yuqori ko‘taradilar. Tarbiyachi quyidagi narsalarni ko‘rsatishi mumkin: qaychi, pichoq, gugurt, dazmol, gaz plitasi, elektr simlari.

“SHIFOKOR QABULIDA” O‘YINI

Maqsad: Shifokorlik kasbi haqidagi bilimlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalar shifokor huzuriga borganda qanday voqealar sodir bo‘lganligini so‘raydi. Tarbiyalanuvchilar o‘z taassurotlarini aytadilar. Keyin esa bolalar shifokor va bemor roliga kiradilar. Har kim o‘z roliga mos gaplarni aytadi.

“OSHPAZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning oshxona va milliy taomlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash, ularga taom nomlarini o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Pedagog oshxonada sho‘rva tayyorlash kerakligini aytadi. Buning uchun nimalar kerak bo‘lishini bolalardan so‘raydi. Bolalar javob beradilar va sho‘rva uchun zarur masalliqarni tanlaydilar.

“QORQIZ” ERTAGINI SAHNALASHTIRISH

Maqsad: Tarbiyalanuvchi “Qorqiz” ertagini mustaqil qayta hikoya qiladi, sahnalashtirishda ishtirok etadi. Ertak qahramonlarining hissiyotlarini tushunadi va so‘zlaydi. Nutqi rivojlanadi.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi “Qorqiz” ertagini bolalarga yana bir bora takrorlaydi. Bolalar ertak qahramonlari nomini aytadilar, ularga ertak davomida kimga oson, kimga qiyin bo‘lganligini so‘zlab beradilar. Rollarga bo‘lingan holda ijro etadilar.

“ATELYE” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarda atelyeda kiyim tikish mehnati haqida tasavvur hosil qilish.

O‘yin jarayoni: Pedagogning stolida turli kasblarga oid anjomlar jamlanmasi

turadi. Tibbiyotga oid o‘yinchoqlar, oshxona jihozlari, tikuvchi faoliyatiga oid jamlanma.

Tarbiyachi bolalarni navbat bilan o‘z yoniga chaqiradi. Bolalar uning yoniga kelib jamlanmani tanlaydi va uni qaysi soha vakili ishlatishini o‘sha yerda oldindan tayyorlab qo‘yilgan suratlar ichidan keraklisini tanlab ko‘rsatadi. Pedagog o‘yinda tikuvchi faoliyatiga ko‘proq urg‘u beradi.

“KIYIM DO‘KONI” O‘YINI

Maqsad: Turli mavsumda kiyiladigan (qishki, yozgi) va maqsadiga ko‘ra kiyiladigan kiyimlar haqida tasavvur hosil qilish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarni kiyimlar do‘koniga taklif qiladi. U yerda esa mavsumga mos bo‘lgan va mavsumga mos bo‘lmagan qo‘g‘irchoq kiyimlarini qo‘yadi. Bolalar esa qo‘g‘irchoqni kiyintiradi. Pedagog birinchi nimani kiyintiramiz, keyin-chi deb savol beradi. Bolalar kiyintirish jarayonida kiyimning rangi va nomini aytishlari kerak.

“YANGI YIL ARCHASINI TAYYORLAYMIZ” O‘YINI

Maqsad: Yangi yil bayrami haqidagi tasavvurlarni boyitish, mayda motorikani rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga archani ko‘rsatadi va u hozircha bayramga tayyor emasligini aytadi. Bolalar archani qutichadan o‘yinchoqlar olib bezatadilar.

“O‘N IKKI OY” ERTAGINI SAHNALASHTIRISH

Maqsad: “O‘n ikki oy” ertagi asosida sahnalashtirilgan o‘yinini, qahramonlarning fe‘l-atvorini tushunish, kompozitsiyaning asosiy xususiyatlarini ilg‘ab olish.

O‘yin jarayoni: Bolalarga “O‘n ikki oy” ertagi multfilmi qo‘yib beriladi. Ulardan qaysi qahramon ularga yoqqani, nima uchun yoqqani so‘raladi. Bolalar o‘zlari

istagan qahramon rolini ijro etib berishlari mumkin.

“HARBIY DENGIZCHILAR” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda Vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirish, ularning kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog harbiy dengizchilarga xos kiyimlarni saralab qo‘yadi. Bolalar esa o‘sha kiyimlarni kiyib o‘zlarini harbiy dengizchidek tutgan holda rol ijro etishlari kerak.

“CHEGARACHILAR” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, chegarachining ahamiyati haqida tushuntirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog taklifiga ko‘ra, tarbiyalanuvchilar chegarachi uchun kubiklardan post quradilar, hamshira, posbon rollarini o‘ynab beradilar.

“POLIKLINIKA” O‘YINI

Maqsad: Shifokor kasbini biladi, o‘yin davomida shifoxona, poliklinika, dori-xona, shifokor mehnati tushunchalaridan foydalanadi.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga poliklinika haqida eslatadi. Bolalar esa poliklinikadagi faoliyatni jonlantirib beradilar. Bir qiz shifokor, yana biri bemor sifatida rol o‘ynaydilar.

“IKKI QIZG‘ANCHIQ AYIQCHALAR” ERTAGINI SAHNALASHTIRISH

Maqsad: Bolalar asarning mazmunini biladi, ijobiy va salbiy xislatlar haqida tushunchaga ega bo‘ladi.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga “Ikki qizg‘anchiq ayiqchalar” ertagini eslatadi. Bolalar ayiqlar rolini ijro etishlari, ayiqlar so‘zlarini aytib berishlari mumkin.

“POCHTA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda kasblarga bo‘lgan qiziqishni oshirish.

O‘yin jarayoni: Bolalar pochta qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerakligini aytadilar. “Pochtachi uyga xat olib kelganda” mavzusini sahnalashtiradilar.

“MEHMONLARNI KUTAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarda aktyorlik qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bugun tug‘ilgan kun ekanligini va shuning uchun tayyorgarlik ko‘rish kerakligini aytadi. Buning uchun xonani yasatish, sovg‘a uchun narsa tanlash, dasturxonni tuzash kerak bo‘ladi. Bolalar uch guruhga bo‘linadi va ularning biriga dasturxon tuzash, ikkinchisiga sovg‘a tanlash va uchinchisiga dasturxonni tuzash vazifa qilib beriladi. Bolalar istasa o‘zlari mustaqil sovg‘a yasashlari ham mumkin.

“DORIXONA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish ularda turli kasblarga nisbatan qiziqish uyg‘otish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarni ayrim kasblar egasi sifatida tanlaydi. Misol uchun kimdir o‘t o‘chiruvchi, kimdir hamshira, kimdir o‘qituvchi, kimdir esa dorixonada sotuvchi. U stolga qo‘yilgan turli kiyimlar orasidan o‘ziga mosini kiyadi va aynan o‘ziga tegishli anjomlarni tanlab olishi zarur bo‘ladi.

“KITOB DO‘KONI” O‘YINI

Maqsad: Kitobning qanchalik zarur narsa ekanligini uqtirish, kitobni asrab-avaylash zarurligini tushuntirish.

O‘yin jarayoni: Bolalar bilan do‘konlar turlari haqida suhbatlashiladi. Kitob do‘konida yana nimalar sotilish mumkinligi so‘raladi. Bolalar bilan birga kitob do‘konini kitoblar bilan bezatish mumkin.

“BUVIMNING TUG‘ILGAN KUNI” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning tasavvurini boyitish, ularni ijodiy fikrlashga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga oshxona jihozlari va mevalar to‘plamini taqdim qiladi. Buvining tug‘ilgan kuniga ikkita mehmon kelishini va shunga mos dasturxon tuzashni aytadi. Bolalar o‘zlari dasturxon tuzaydilar.

“BIZ BOG‘BONLARMIZ” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning atrof-alam haqidagi tasavvurlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga shunday deydi:

– Tasavvur qilinglar, men shamolman. Sizlar esa daraxtdagi barglarsiz. Shamol esganida barglar qanday holatda bo‘ladi? Marhamat qo‘lingizga barglardan ushlab olinglar va mening so‘zlarimni eshitgan holda harakat qilasizlar.

Shamol esayapti, shamol esayapti, bolajonlar ikkita qo‘llaringni yonga cho‘zib sekinroq yurasizlar. Shamolning esishi tezlashayapti, barglar ham uchayapti, uchib-uchib, o‘ngga-chapga aylana-aylana yerga tushadilar, bolalar esa o‘ngga-chapga aylanib bir joyda to‘xtaydilar. Bolalar shamol rolini ijro etishlari mumkin.

“HAYVONOT BOG‘I” O‘YINI

Maqsad: Bolalarga jonivorlar bilan qanday munosabat o‘rnatish kerakligi haqi-

da tushuncha berish.

O‘yin jarayoni: Pedagog hayvonot bog‘iga sayr qilinishi kerakligi haqida aytadi. Bolalar avtobusga o‘tirib hayvonot bog‘iga boradilar, kassadan chipta oladilar va bog‘ni aylanadilar. Hayvonlarga yaxshi munosabatda bo‘lish, ularni xafa qilmaslik kerakligi eslatib o‘tiladi.

“QUYONCHAGA YORDAM BERAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Guruhga quyoncha kirib keladi. Qo‘lida gullarga suv quyadigan idishcha bo‘ladi. Pedagog quyonchadan nima uchun kelganligini so‘raydi. Quyoncha gullarga suv quyish kerakligini ammo u bu ishni ilgari hech qilmaganligini aytadi. Tarbiyachi bolalardan yordam so‘raydi va pedagog nazoratida bolalar gullarga suv quyadilar.

“QUSHLAR O‘LKASIDA” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning qushlar haqidagi bilimlarini oshirish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga o‘zaro kelishgan holda qush bo‘lishlarini aytadi. Bolalar o‘zlari tanlagan qush msiolida uchadilar va o‘sha qushning sayrashini ovoz chiqarib aytib beradilar. Misol uchun, qarg‘a qag‘illaydi, chumchuq chug‘urlaydi.

“SUMALAK PISHIRAMIZ”

Maqsad: Bolalarni milliy va bahoriy taomlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga bahoriy taomlar haqida gapirib beradi. Sumalak tayyorlash uchun nimalar kerakligini so‘raydi. Bolalar sumalak pishirish uchun kerakli narsalarni ajratadilar.

“DOKTOR VOYJONIM” O‘YINI

Maqsad: Bolalarni hayvonot olamiga nisbatan mehr bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatish.

O‘yin jarayoni: Pedagog hayvonlar uchun “Doktor voyjonim” shifoxonasi tashkil qilish kerakligini aytadi. Tarbiyalanuvchilar shifoxonaga kerakli narsalarni ajratib shifoxonani bezatadilar.

“TANNOZ PASHSHAXON” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ularning ijobiy va salbiy obrazlar haqidagi tushunchalarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog ertak syujetini bolalarga aytib beradi. Bolalar esa kim ijobiy qahramon, kim salbiy qahramon ekanligini ajratishlari kerak.

“KULGILI O‘ZGA SAYYORALIKLAR” O‘YINI

Maqsad: Shaxsiy hissiy-irodaviy sifatlarga ega, jamoada ijobiy muhitni hosil qila olish ko‘nikmalari shakllanadi.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga o‘zga sayyoralikni qanday tasavvur qilasiz deb savol beradi. Har bir bola o‘z tasavvuriga ko‘ra o‘zga sayyoralikni ijro etib beradi.

“SUV PARISI” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning suvosti hayoti haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga suvosti hayotiga oid suratlar ko‘rsatadi. Suv parisi bo‘lib qoldingiz, o‘zingizni qanday his qilasiz deb savol beradi. Har bir bola o‘zini suv parisidek his qilib javob berishi mumkin.

“BIZNING OILA” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning kasblar haqidagi bilimlarini boyitish, ularda sotuvchilik kasbiga qiziqish uyg‘otish.

O‘yin jarayoni: Pedagog buvi rovida bo‘ladi va oila uchun oziq-ovqatlar xarid qilish kerakligini aytadi. Ota, ona, buvi, nabira birga do‘konga boradilar. Buvi faqat foydali narsalar xarid qilish zarurligini aytadi. Bolalar foydali narsalarga nimalar kiradi?

Bolalar mevalar, sut mahsulotlari, quruq mevalar, go‘sht, donli mahsulotlar foydali mahsulotlar ekanligini aytadilar.

“SUPERMARKET” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning do‘kon va sotuvchi haqidagi tushunchalarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog guruhga kimdir xat tashlab ketganini xatda esa shunday yozilganini aytadi:

“Bolajonlar, assalomu alaykum, bugun mening tug‘ilgan kunim. Biznikiga mehmonga kelinglar. Sizlarning sevimli qo‘g‘irchog‘ingiz Lolaxon.”

Bolalar Lolaxonga sovg‘a olish uchun nima qilishimiz kerak?

Bolalar sovg‘alar do‘koniga borish kerakligini aytadilar. Do‘kondan bolalar sovg‘a uchun o‘yinchoqlar, qo‘g‘irchoqlar tanlaydilar.

“UY QURAMIZ” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarda quruvchi kasbiga nisbatan qiziqish uyg‘otish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyachi bolalarga uy qurish haqida topshiriq beradi. Bolalar uy quradilar. Kimning uyi chiroyli qurilgan bo‘lsa ana o‘sha bola g‘olib deb topiladi.

“MEBEL DO‘KONI” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning do‘konlar haqidagi tasavvurlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog tarbiyalanuvchilardan mebel do‘konining ichida nimalar bo‘lishi mumkinligini so‘raydi. Bolalar o‘zlari ko‘rgan do‘konlar misolida buni gapirib beradilar. Kimdir do‘kon sotuvchisi bo‘lib mebel sotishi ham mumkin.

“MUZQAYMOQ KAFESI” O‘YINI

Maqsad: Bolalarning kafelar haqidagi tasavvurlarini boyitish.

O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga muzqaymoq kafesi boshqa kafelardan nima-si bilan ajralib turadi deb savol beradi. Bolalar o‘z fikrlarini bildiradilar. Keyin esa muzqaymoq kafesida qanday jihozlar bo‘lishi mumkinlinini aytadilar.

“KINO UCHUN SINOV” O‘YINI

Maqsad: Tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish. Ularda o‘zaro hamdardlik, boshqalarni tushuna olish ko‘nikmalarini shakllantirish.

O‘yin jarayoni: Tarbiyalanuvchilar ichidan bitta bola rejissyor sifatida tanlab olinadi. U kino olish uchun sinovga kelganlarni ko‘rikdan o‘tkazadi. U o‘zi tanlagan bolaga aynan qandaydir rol aytadi, o‘sha rol ijrosi uchun baho beradi. Masalan, o‘g‘il bolalarga ayyor tulki o‘ljasini aldayapti, u o‘zini qanday tutishini ko‘rsatib bering, qiz bolalarga Zumradxonni Qimmatoy xafa qildi, uning holatini qanday tasvirlaysiz? Siz hayvonlar qirol shersiz qanday bo‘lishingiz kerak kabi holatlarni rolga kirib ko‘rsatib berish so‘raladi. Tarbiyalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida ularga o‘zlari istagan rolni ijro qilishlari uchun ham imkoniyat yaratib berilishi o‘yinni yanada qiziqarli bo‘lishini ta‘minlaydi.

MUNDARIJA

"TIL VA NUTQ" MARKAZI UCHUN DIDAKTIK O'YINLAR

"DARAXT" O'YINI.....	4
"QO'G'IRCHOQNI UXLATAMIZ" O'YINI.....	4
"BALAND-PAST" O'YINI.....	4
"BARGLAR" O'YINI.....	5
"QOR PARCHALAR UCHMOQDA" O'YINI.....	5
"ATROFIMIZDAGI TOVUSHLAR" O'YINI.....	6
"NASOS" O'YINI.....	6
"AKS SADO" O'YINI.....	6
"QURBAQALAR" O'YINI.....	7
"SOAT" O'YINI.....	7
"TISH SHIFOKORI" O'YINI.....	7
"QO'NG'IROQCHA" O'YINI.....	7
"HAYVONLAR KELAYAPTI" O'YINI.....	8
"ESHIK TAQILLAGANDA" O'YINI.....	8
"O'RDAKLAR" O'YINI.....	8
"TESHANING OVOZI" O'YINI.....	9
"KIM NIMANI YAXSHI KO'RADI?" O'YINI.....	9
"SO'Z TANLA" O'YINI.....	9
"QO'G'IRCHOQ LOLANIKIGA MEHMONGA BORAMIZ" O'YINI.....	9
"IDISH-TOVOQLAR" O'YINI.....	10
"OYIM NIMA QILADI?" O'YINI.....	10
"OYIMNING XISLATLARI" O'YINI.....	10
"KIM QAYERDA YASHAYDI?" O'YINI.....	11
"GAPNI TUGAT" O'YINI.....	11
"KERAKLI SO'ZNI TOP" O'YINI.....	11
"NIMA QILADI?" O'YINI.....	12
"QAYSI TARAFDA?" O'YINI.....	12
"XAVFLI BUYUMLAR" O'YINI.....	12
"KIM BIRINCHI?" O'YINI.....	13
"NONUSHTA TAYYORLAYMIZ" O'YINI.....	13
"TUG'ILGAN KUN" O'YINI.....	13
"KUN QISMLARI" O'YINI.....	14
"KAYFIYATIMNI TOP" O'YINI.....	14
"RANGINI AYT" O'YINI.....	14
"QUYONCHAGA TO'G'RI GAPIRISHNI O'RGATAMIZ" O'YINI.....	14
"NIMA QAYERDA TURADI?" O'YINI.....	15
"O'ZING SAVOL TUZ" O'YINI.....	15
"XATONI TOP" O'YINI.....	15
"NIMA QANAQA?" O'YINI.....	16

“GAPNI TUGAT” O‘YINI.....	16
“KIM KO‘PROQ AYTADI?” O‘YINI.....	16
“NIMA QAYSI RANGDA?” O‘YINI.....	17
“KIM KO‘P TOPADI?” O‘YINI.....	17
“MENING HIKOYAM” O‘YINI.....	18
“ILIB OL VA RANGINI AYT” O‘YINI.....	18
“KAM VA KO‘P” O‘YINI.....	18
“GAPNI YAKUNLA” O‘YINI.....	19
“BUZILGAN TELEFON” O‘YINI.....	19
“BELGISINI AYT” O‘YINI.....	19
“YAQIN SO‘ZLAR” O‘YINI.....	20
“KIMNIKI?” O‘YINI.....	20
“KO‘RGANIMIZNI AYTAMIZ” O‘YINI.....	20
“KIM CHAQQON?” O‘YINI.....	21
“O‘ZING TUGAT” O‘YINI.....	21
“O‘ZING O‘ZGARTIR” O‘YINI.....	22
“QARINDOSH SO‘ZLAR” O‘YINI.....	22
“XATONI TO‘G‘IRLA” O‘YINI.....	22
“KIM BO‘LSAM EKAN?” O‘YINI.....	23
“TAOM NIMADAN PISHIRILGAN?” O‘YINI.....	23
“ISSIQ-SOVUQ” O‘YINI.....	23
“BELGISINI AYT” O‘YINI.....	24
“AVVAL NIMA BO‘LGAN EDI?” O‘YINI.....	24
“MAZASI QANAQA?” O‘YINI.....	24
“BU NIMANING OVOZI?” O‘YINI.....	24
“KUZDA NIMA BO‘LADI?” O‘YINI.....	25
“NIMA YO‘QOLDI?” O‘YINI.....	25
“NIMA DUMALOQ BO‘LADI?” O‘YINI.....	25
“YAXSHIMI YOKI YOMON?” O‘YINI.....	25
“QAYERDA NIMA QILISH MUMKIN?” O‘YINI.....	26
“NIMA UCHA OLADI?” O‘YINI.....	26
“KIM BIRINCHI?” O‘YINI	26
“QAYSIORTIQCHA?”	27
“KIMGA, NIMAGA?” O‘YINI.....	28
“SURATDAN HIKOYA TUZ” O‘YINI.....	28
“YEYMIZ-YEMAYMIZ” O‘YINI.....	29
“O‘ZING SO‘Z TUZ” O‘YINI.....	29
“UYQUGA KETAMIZ” O‘YINI.....	30
“BARMOQLAR SALOMLASHAYPTI” O‘YINI.....	30
“YONG‘OQNI QO‘YIB YUBORMA” O‘YINI.....	31
“SOVG‘A” O‘YINI.....	31
“HAMMASI ZO‘R” O‘YINI.....	31

“BIRGA SANAYMIZ” O‘YINI.....	31
“BALIQLAR” O‘YINI.....	32
“KIM CHAQQON?” O‘YINI.....	32
“QUSHCHA UYGA KELDI”.....	32
“KULGUNING RASMI” O‘YINI.....	32
“XATOLIK BORMI?” O‘YINI.....	33
“MASHINANI YURGIZAMIZ” O‘YINI.....	33
“BILIMDON BOLALAR” O‘YINI.....	33
“SAYOHATGA BORAMIZ” O‘YINI.....	34
“MEHMONLARNI KUTIB OLAMIZ” O‘YINI.....	34
“MEN MUXBIRMAN” O‘YINI.....	35
“DO‘KONDA” O‘YINI.....	35
“O‘ZING YAKUNLA” O‘YINI.....	35
“AVTOBUS” O‘YINI.....	36
“O‘ZIM TOPAMAN” O‘YINI.....	36
“OXIRGI HARFNI AYT” O‘YINI.....	36
“TEZ AYT” O‘YINI.....	37
“AGARDA...” O‘YINI.....	37
“TOPGAN TOPALOQ” O‘YINI.....	37
“KIM KO‘PROQ BILADI?” O‘YINI.....	38
“TEZ JAVOB TOP” O‘YINI.....	39
“QARAMA-QARSHI” O‘YINI.....	39
“KASBLARNI O‘RGANAMIZ” O‘YINI.....	40
“CHAMALASHNI O‘RGANAMIZ” O‘YINI.....	40

*“MATEMATIKA, QURISH-YASASH VA KONSTRUKTSIYALASH” MARKAZI UCHUN
DIDAKTIK O‘YINLAR*

“TO‘G‘RI SANA” O‘YINI.....	43
“NIMA QAYERDA?” O‘YINI.....	43
“KO‘PMI YOKI KAM?” O‘YINI.....	43
“ESHITAMIZ VA YOZAMIZ” O‘YINI.....	43
“MEVALARNI YIG” O‘YINI.....	44
“TEZ HISOBLA” O‘YINI.....	44
“JO‘JALAR VA TOVUQLAR” O‘YINI.....	44
“QUSHLARNI SANA” O‘YINI.....	45
“JOYINGNI TOP” O‘YINI.....	45
“CHO‘PLARNI BO‘YIGA QARAB JOYLA” O‘YINI.....	45
“SURATGA QARAB HARAKAT QIL” O‘YINI.....	46
“KIM CHAQQON?” O‘YINI.....	46
“TUGALLANMAGAN SURAT” O‘YINI.....	46
“GILAMNI YAMAYMIZ” O‘YINI.....	46
“TIRIK SONLAR” O‘YINI.....	47

“ESHIT VA AYT” O‘YINI.....	47
“BILMASVOYGA O‘RGATAMIZ” O‘YINI.....	47
“KIM TEZ YURADI?” O‘YINI.....	48
“KIM KO‘PROQ?” O‘YINI.....	48
“SHAKLLAR USTASI” O‘YINI.....	48
“BILMASVOY MEHMONDA” O‘YINI.....	49
“ESHIT VA HARAKAT QIL” O‘YINI.....	49
“TUGALLANMAGAN RASM” O‘YINI.....	49
“TEZROQ AYT” O‘YINI.....	49
“O‘YINCHOQNI TOP” O‘YINI.....	50
“BIR XILINI TOP” O‘YINI.....	50
“CHAMALAB TOP” O‘YINI.....	50
“KIM CHAQQONROQ?” O‘YINI.....	51
“XATO QILMA” O‘YINI.....	51
“YOSH RASSOMLAR” O‘YINI.....	51
“BUZILGAN MASHINA” O‘YINI.....	52
“QAYSI SON YO‘QOLDI?” O‘YINI.....	52
“KERAKLI SONNI QO‘Y” O‘YINI.....	52
“AYIQLARNI MEHMON QILAMIZ” O‘YINI.....	52
“KIM TEZROQ?” O‘YINI.....	53
“BALIQLAR QAYERGA QARAB SUZAYAPTI?” O‘YINI.....	53
“GUL O‘STIRAMIZ” O‘YINI.....	54
“JO‘JANI TOPAMIZ” O‘YINI.....	54
“QAYSI UZUNROQ?” O‘YINI.....	54
“BUVIMNIKIGA MEHMONGA BORAMIZ” O‘YINI.....	55
“BALIQ TUTAMIZ” O‘YINI.....	55
“ARIGA YORDAM BERAMIZ” O‘YINI.....	55
“KICHIK DAN KATTAGA QARAB JOYLASHTIR” O‘YINI.....	56
“BO‘G‘IRSOQ” O‘YINI.....	56
“NIMAGA O‘XSHAYDI?” O‘YINI.....	56
“TIKUVCHIGA YORDAMLASHAMIZ” O‘YINI.....	57
“BITTA KO‘PINI TOP” O‘YINI.....	57
“NIMA O‘ZGARDI?” O‘YINI.....	57
“KUNNING QAYSI QISMI?” O‘YINI.....	57
“KIM YO‘QOLIB QOLDI?” O‘YINI.....	58
“JONLI SONLAR” O‘YINI.....	58
“NECHTA QADAM?” O‘YINI.....	58
“ESLAB QOL VA QAYTAR” O‘YINI.....	59
“BU QACHON SODIR BO‘LADI?” O‘YINI.....	59
“DIQQAT BILAN QARA” O‘YINI.....	59
“JONLI HAFTA” O‘YINI.....	59
“MALIKANI QUTQARAMIZ” O‘YINI.....	60

“NECHTALIGINI HISOBLA” O‘YINI.....	60
“GUGURTDONALARIDANYASA” O‘YINI.....	61
“SAYOHAT” O‘YINI.....	61
“BU QAYSI SHAKL?” O‘YINI.....	61
“RAQAMLAR” O‘YINI.....	62
“O‘RMONKULBASI” O‘YINI.....	62
“FOTOGRAFNING YONIDA” O‘YINI.....	62
“ADASHMA” O‘YINI.....	63
“BESHGACHA SANA” O‘YINI.....	63
“NIMA QAYERDA?” O‘YINI.....	63
“KO‘PMI KAM?” O‘YINI.....	64
“RAQAMNI TOP” O‘YINI.....	64
“OLMAXONGA YONG‘OQ, QUYONGA SABZI” O‘YINI.....	64
“ADASHMA” O‘YINI.....	65
“NIMA O‘ZGARDI?” O‘YINI.....	65
“TESKARI SANA” O‘YINI.....	65
“O‘RNIGA QO‘Y” O‘YINI.....	66
“FIGURALAR NIMAGA O‘XSHAYDI?”.....	66
“GILAMNI YAMASH” O‘YINI.....	66

“FAN VA TABIAT” MARKAZI UCHUN DIDAKTIK O‘YINLAR

“GUL RANGINI TOP” O‘YINI.....	68
“DENGIZDAGI XAZINA” O‘YINI.....	68
“AKVARIUMDAGI BALIQLAR” O‘YINI.....	68
“RANG-BARANG TO‘TIQUSH” O‘YINI.....	69
“BIR XIL BARGNI TOP” O‘YINI.....	69
“MAZASIDAN TOP” O‘YINI.....	69
“UNDAN NIMA TAYYORLANADI?” O‘YINI.....	70
“NIMA PAXTADAN TAYYORLANGAN?” O‘YINI.....	70
“TRANSPORTLAR OLAMI” O‘YINI.....	71
“QURUQ QUM, NAM QUM” O‘YINI.....	71
“XAVFLI BUYUMLARNI AJRAT” O‘YINI.....	71
“QUYONCHANI OVQATLANTIRAMIZ” O‘YINI.....	72
“PIYOZ NIMAGA O‘XSHAYDI?” O‘YINI.....	72
“QUVNOQ ARCHA” O‘YINI.....	73
“QOR YOKI MUZ” O‘YINI.....	73
“RANGLI MUZLAR” O‘YINI.....	74
“IZLARNI TOP-CHI!” O‘YINI.....	74
“KUCHUKCHAGA OVQAT BER” O‘YINI.....	75
“QUM: QURUQ YOKI HO‘L?” O‘YINI.....	75
“KIMGASUV KERAK?” O‘YINI.....	76

“SEHRLI QOG‘OZLAR” O‘YINI.....	76
“QAYSI HASHAROT NIMA YEYDI?” O‘YINI.....	77
“MEHRIBON QUYOSH” O‘YINI.....	77
“G‘AROYIB DUNYO” O‘YINI.....	78
“SIRLI TABIAT” O‘YINI.....	78
“QAYSI BIRI?” O‘YINI.....	79
“VIKTORINA” O‘YINI.....	80
“AJOYIBOTLAR OLAMI” O‘YINI.....	80
“ZAKOVAT” O‘YINI.....	81
“BOLASINI TOP” O‘YINI.....	81
“QIZIQARLI SAVOL” O‘YINI.....	82
“QIZIQARLI MANTIQ” O‘YINI.....	83
“NIMA UCHUN” O‘YINI.....	84
“BU QACHON BO‘LADI?” O‘YINI.....	84
“UCHINCHISI NIMA?” O‘YINI.....	85
“BU NIMA?” O‘YINI.....	85
“BIR SO‘Z BILAN IZOHLA!” O‘YINI.....	85
“QANDAY OVOZ CHIQARADI?” O‘YINI.....	86
“KIM QANDAY HARAKATLANADI?” O‘YINI.....	86
“NIMA BILAN OZIQLANADI?”.....	87
“TABIATNI ASRANG” O‘YINI.....	87
“ATROFIMIZDAGI OLAM” O‘YINI.....	88
“QANDAY EDI?” O‘YINI.....	88
“O‘SIMLIKNI TOP” O‘YINI.....	88
“YOSH BIOLOG” O‘YINI.....	89
“BU QAYSI HAYVON?” O‘YINI.....	89
“HAYVONNI TOP” O‘YINI.....	90
“EKSKURSIYAGA TAYYORLANYAPMIZ” O‘YINI.....	90
“FOYDA-ZARAR” O‘YINI.....	90
“DARAXT VA TARVUZ” O‘YINI.....	91
“KIM YORDAM BERADI?” O‘YINI.....	91
“QAYSI RANGDA?” O‘YINI.....	91
“YAXSHIMI YOMON?” O‘YINI.....	92
“EKOLOGIK SVETOFOR” O‘YINI.....	92

“SAN‘AT” MARKAZIDA O‘YNALADIGAN DIDAKTIK O‘YINLAR

“O‘ZBEKISTON BAYROG‘I VA GERBINI TOPING” O‘YINI.....	94
“MENING UYIM” O‘YINI.....	94
“MENING OILAM” O‘YINI.....	95
“MENING DO‘STIM KIM?” O‘YINI.....	95
“ORTIQCHA GULNI TOP” O‘YINI.....	96

“HOSILNI YIG‘” O‘YINI.....	96
“UNDAN NIMA TAYYORLANADI?” O‘YINI.....	96
“G‘AROYIB PAXTA” O‘YINI.....	97
“TRANSPORTLAR OLAMI” O‘YINI.....	97
“QUYOSHJON KO‘RIN” O‘YINI.....	98
“BUVIMGA GULDASTA” O‘YINI.....	98
“QUYOSHJON” O‘YINI.....	98
“HAYVONOT OLAMI” O‘YINI.....	99
“BAYRAMLAR SHAHRI” O‘YINI.....	99
“HAYVONLAR” O‘YINI.....	99
“QUSHLAR SHAKLINI YASAYMIZ” O‘YINI.....	99
“SAYYORALARNI YASAYMIZ” O‘YINI.....	100
“SAYYORANI ASRA” O‘YINI.....	100
“ORZUIMDAGI UY” O‘YINI.....	100
“MENING XONAM” O‘YINI.....	100
“CHOYNAK-PIYOLA” O‘YINI.....	101
“KOMPYUTER” O‘YINI.....	101
“O‘ZING TOP” O‘YINI.....	101
“BIR SO‘Z BILAN AYT” O‘YINI.....	102
“TO‘G‘RI TA‘RIF BER” O‘YINI.....	102
“NIMA QILADI?” O‘YINI.....	102
“KO‘K TIMSOH” O‘YINI.....	103
“XATOIMNI TOP” O‘YINI.....	103
“O‘ZING IZLA” O‘YINI.....	104
“XATOSINI TOP” O‘YINI.....	104
“QAYSI BIRINCHI?” O‘YINI.....	104
“NIMA UCHUN ORTIQCHA?” O‘YINI.....	105
“TO‘G‘RI BO‘LSA IL” O‘YINI.....	105
“RASSOM NIMANI UNUTDI?” O‘YINI.....	105
“KIYIMDAGI RANGLARNI TOP” O‘YINI.....	106
“ESLAB QOL” O‘YINI.....	106
“MEVALARNI TOP” O‘YINI.....	106
“GURUHLARGA AJRAT” O‘YINI.....	107
“UMUMIY JIHATNI TOP” O‘YINI.....	107
“BUNDAN QANDAY FOYDALANILADI?” O‘YINI.....	107
“NIMA YAXSHI-YU, NIMA YOMON?” O‘YINI.....	107
“NIMA HAQIDA GAPIRYAPMAN?” O‘YINI.....	108
“ERKALAB AYT” O‘YINI.....	108
“BU QAYSI HAYVON?” O‘YINI.....	109
“BO‘LISHI MUMKINMI?” O‘YINI.....	109
“U BIZGA NIMAGA KERAK?” O‘YINI.....	109
“GAP TUZ” O‘YINI.....	110

“ORTIQCHA SO‘ZNI TOP” O‘YINI.....	110
“ONASINI TOP” O‘YINI.....	110
“HOZIR QAYSI FASL?” O‘YINI.....	111
“KIM KO‘PROQ HARAKATLARNI AYTADI?” O‘YINI.....	111
“NIMA UCHADI?” O‘YINI.....	111
“UCHINCHISI ORTIQCHA” O‘YINI.....	112
“BU QACHON BO‘LADI?” O‘YINI.....	112
“SURATDAN O‘RGANAMIZ” O‘YINI.....	112
“JUFTINI TOP” O‘YINI.....	113
“QO‘G‘IRCHOQNI SAYRGA TAYYORLAYMIZ” O‘YINI.....	113
“QAYSI O‘YINCHOQ YETISHMAYAPTI?” O‘YINI.....	113
“MENING TILAGIM” O‘YINI.....	114
“QOPDA NIMA BOR?” O‘YINI.....	114
“O‘YLA VA TOP” O‘YINI.....	114
“TOPILMALAR IDORASI” O‘YINI.....	115
“TESKARISINI TOP” O‘YINI.....	115
“NIMA ORTIQCHA?” O‘YINI.....	115
“ESLAB QOL” O‘YINI.....	115
“MEN KIMMAN?” O‘YINI.....	116
“TOPQIRLIK MASHQI” O‘YINI.....	116
“KIM QAYERDA ISHLAYDI?” O‘YINI.....	116
“QARSAK CHAL” O‘YINI.....	117
“O‘SADIGAN TAYOQCHA” O‘YINI.....	117
“ORTIQCHA SO‘ZNI TOP” O‘YINI.....	117
“KIYIM TANLA” O‘YINI.....	118
“ERTAK QAHRAMONLARI UCHUN RANG TANLA” O‘YINI.....	118
“HAYVONLARNI CHIZAMIZ” O‘YINI.....	118
“MOSINI TANLA” O‘YINI.....	119
“SO‘ZNI TANLA” O‘YINI.....	119

*“SYUJETLI-ROLLI O‘YINLAR VA SAHNALASHTIRISH”
MARKAZI UCHUN DIDAKTIK MATERIALLAR*

“YOSH SAYOHATCHILAR” O‘YINI.....	121
“BUVIMNIKIDA MEHMONDA” O‘YINI.....	121
“SARTAROSHXONA” O‘YINI.....	121
“MODALAR ATELESI” O‘YINI.....	122
“ZUMRAD VA QIMMAT” ERTAGINI SAHNALASHTIRISH O‘YINI.....	122
“DO‘STLAR BILAN TEATRDA” O‘YINI.....	122
“ONA BILAN QIZALOQ” O‘YINI.....	122
“BOZORDA” O‘YINI.....	123
“OLTIN TARVUZ” ERTAGINI SAHNALASHTIRISH.....	123

“FITOBAR” O‘YINI.....	123
ALISHER NAVOIYNING “NON ISI” HIKOYASINI SAHNALASHTIRISH.....	124
“DAN XODIMI” O‘YINI.....	124
“SAMOLYOTDA UCHAMIZ” O‘YINI.....	124
“MEN PIYODAMAN” O‘YINI.....	124
“YONG‘IN BO‘LMASIN” O‘YINI.....	125
“XAVFLIMI YOKI XAVFSIZ” O‘YINI.....	125
“SHIFOKOR QABULIDA” O‘YINI.....	126
“OSHPAZ” O‘YINI.....	126
“QORQIZ” ERTAGINING SAHNALASHTIRISH.....	126
“ATELYE” O‘YINI.....	126
“KIYIM DO‘KONI” O‘YINI.....	127
“YANGI YIL ARCHASINI TAYYORLAYMIZ” O‘YINI.....	127
“O‘N IKKI OY” ERTAGINI SAHNALASHTIRISH.....	127
“HARBIY DENGIZCHILAR” O‘YINI.....	128
“CHEGARACHILAR” O‘YINI.....	128
“POLIKLINIKA” O‘YINI.....	128
“IKKI QIZG‘ANCHIQ AYIQCHALAR” ERTAGINI SAHNALASHTIRISH.....	128
“POCHTA” O‘YINI.....	129
“MEHMONLARNI KUTAMIZ” O‘YINI.....	129
“DORIXONA” O‘YINI.....	129
“KITOB DO‘KONI” O‘YINI.....	130
“BUVIMNING TUG‘ILGAN KUNI” O‘YINI.....	130
“BIZ BOG‘BONLARMIZ” O‘YINI.....	130
“HAYVONOT BOG‘I” O‘YINI.....	130
“QUYONCHAGA YORDAM BERAMIZ” O‘YINI.....	131
“QUSHLAR O‘LKASIDA” O‘YINI.....	131
“SUMALAK PISHIRAMIZ”.....	131
“DOKTOR VOYJONIM” O‘YINI.....	132
“TANNOZ PASHSHAXON” O‘YINI.....	132
“KULGILI O‘ZGA SAYYORALIKLAR” O‘YINI.....	132
“SUV PARISI” O‘YINI.....	132
“BIZNING OILA” O‘YINI.....	133
“SUPERMARKET” O‘YINI.....	133
“UY QURAMIZ” O‘YINI.....	133
“MEBEL DO‘KONI” O‘YINI.....	134
“MUZQAYMOQ KAFESI” O‘YINI.....	134
“KINO UCHUN SINOV” O‘YINI.....	134

TARBIYACHI KITOBI

DIDAKTIK O'YINLAR

Metodik qo'llanma

Dizayner: Shohruh Shomansurov

Nashriyot litsenziyasi № 1006-9260-a51a-410a-4237-1355-6372. 2021-05-19

Bosishga ruxsat etildi: 29.07.2022 y.

Qog'oz bichimi 70x90 ^{1/16}. Times New Roman garniturasida bosildi.

Ofset uslubida oq qog'ozda chop etildi.

Adadi 500 nusxada.

Bosma tabog'i 9. Shartnoma 0174.

Murojaat uchun telefon:

(+99897) 746-71-73, (+99894) 665-83-06.

„Evrika“ nashriyot-matbaa uyi.

Manzil: Toshkent sh. Mirobod tumani, 3-uy.

„Credo Print“ kitob fabrikasida chop etildi.

100053, Toshkent shahri Bog'ishamol ko'chasi, 160-uy.

www.credoprint.uz

Didaktik o‘yin – bu aqliy faoliyatni tarbiyalashning qimmatli vositasi bo‘lib, u boladagi intellektual jarayonlarni faollashtiradi. Didaktik o‘yin bolalarga har qanday o‘quv materialini qiziqarli va oson o‘rganishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayoniga katta qiziqish uyg‘otadi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida yangi bilimlarni o‘yinlarsiz o‘rgatish mumkin emas.

Ushbularni inobatga olib, mazkur metodik qo‘llanmaga "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi asosida, "Matematika, konstruktsiyalash va qurish-yasash", "Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish", "Til va nutq", "Fan va tabiat", "San‘at" markazlarida olib boriladigan ta‘limiy faoliyatlarda qo‘llanadigan didaktik o‘yinlar jamlandi.

Mazkur "Tarbiyachi kitobi Didaktik o‘yinlar" kitobi maktabgacha ta‘lim sohasidagi barcha pedagog xodimlar foydalanishi uchun mo‘ljallangan.



EST. 2020 # KITOB O‘QISH TRENDI
EVRIKA

Original maket «Evrika»
nashriyot-matbaa
uyida tayyorlandi.

ISBN 978-9943-8441-1-7



9 789943 844117